



ABDULLA ORIPOV IJODIY MEROSINING O'ZBEK VA JAHON ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya

THE PLACE OF ABDULLA ORIPOV'S CREATIVE
HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF
UZBEK AND WORLD LITERARY AND
AESTHETIC THINKING

international scientific-theoretical conference



O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti**

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

**«ABDULLA ORIPOV IJODIY MEROSINING O‘ZBEK VA JAHON
ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI»**

mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Toshkent – 2021

Mas'ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati

Shuhrat Sirojiddinov (O'zbekiston), Sirojiddin Sayyid (O'zbekiston), Ramiz Asker (Ozarbayjon), Muslihiddin Muhiddinov (O'zbekiston), Ibrohim Haqqulov (O'zbekiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Badriddin Maqsudov (Tojikiston), Tanju Seyhan (Turkiya), Aftondil Erkinov (O'zbekiston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Mark Toutant (Fransiya), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Abdulloh Ro'yin (Afg'oniston).

Ushbu to'plamda "Abdulla Oripov ijodiy merosining o'zbek va jahon adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni" asr mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To'plamda Abdulla Oripov adabiy-ilmiy merosining adabiyotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shoir ijodining bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

НУРЛИ ОҶАНГЛАР БИЛАН ЙЎҒРИЛГАН ШЕЪРИЯТ

Наим КАРИМОВ,
академик

Қарши шаҳридан уч-тўрт чақирим нарида бир пайтлар арши аъло билан сирлашган, ҳозир эса кексайиб, ер қаърига тобора кириб бораётган Қўнғиртоғ исмли тоғ бор. Бу тоғнинг этагида қадим даврларда ўзбекнинг некўз номли уруғи яшаган. Бугун ўзбек элатининг бошқа турфа уруғлари сингари некўз ҳам халқнинг улуғ ва бепоён уммонига сингиб-қўшилиб кетган. Ҳозир ўша урукқа мансуб аجدодлар яшаган жой *Некўз* деб аталади. Бундан роса саксон йил муқаддам – 1941 йил 21 мартда Некўз қишлоғида Наврўз билан эгизак бир фарзанд туғилди. Бу фарзанднинг номи бугун бутун дунёга машҳур шоир Абдулла Ориповдир.

Эҳтимол, бир кун келиб, Косон туманидаги Некўз қишлоғи ҳам тарих қаърига сингиб кетар. Аммо бугун аниқ айтиш мумкинки, ўшандай олис ва кўнгилсиз келажак келган тақдирда ҳам Некўз қишлоғининг номи атоқли ўзбек шоири Абдулла Орипов туфайли энди маданиятимиз тарихида абадул абад қолади.

Абдулла саккиз болали оиланинг кенжа фарзанди бўлгани учун отаси унинг бошқа акалари қатори Қарши ё Тошкентга бориб ўқишини дастлаб истамади. Боғбон ота ўзининг бу ўлмас эли-юртини ноз-неъматлар билан таъминловчи, ўзи ҳам самарасидан бебахра қолмовчи хунарини севимли фарзандига мерос қилиб қолдирмоқчи эди. Лекин ноилож қолди. Тақдир тақозоси олдида отанинг эзгу бир нияти ҳам фақат армон бўлиб қолар экан. Йиллар армони бўлиб. Аслида, эл шаънини юксалтирган улуғ шоирнинг отаси бўлиш бахти ҳам қисматнинг сийлови. Кенжа фарзанди, барибир, боғбон бўлиб ўсди. Фақат у ўз ниҳолларини инсонлар қалбига экиди, шу инсонлар қалбидаги ниҳолларни узоқ йиллар давомида парвариш этди ва бугун Абдуллага замондош бўлган кишилар қалбида у яратган мевалар ҳил-ҳил пишиб товланиб турибди.

Абдулла туғилиб ўсган қишлоқда ўша мушкул йилларда радио ҳам, шубҳасиз, ойнаи жаҳон ҳам, бўлажак шоирга мактаб бўларлик бошқа омиллар ҳам йўқ эди. Аммо унинг турли илмгоҳларда таҳсил кўраётган акалари қишлоққа таътил кунларида келганларида уйда даста-даста китоблар пайдо бўлар ва хонаки кутубхона кундан кунга бойиб борар эди. Ана шу китоблар Абдуллага руҳий озуқа берибгина қолмай, унинг юрагида шеъриятга муҳаббат оловини ҳам ёқиб юборди. Саратоннинг зерикарли жимжит кунлари, кузнинг изғиринли оқшомлари, қишнинг олис ва совуқ

кечаларида у Пушкин ва Лермонтов билан, Ҳамид Олимжон ва Ғафур Ғулом билан сирлашиб, шеърият алифбосини смирди. Раҳматлик Маҳкам Момонинг турфа ривоятлари, Исмоил чўлоқнинг олди-қочди хангомалари орқали халқнинг сеҳрли оғзаки ижоди билан танишди. Ана шу икки манба таъсирида ўзи ҳам нималарнидир қоғозга туширди. Бу қоғозга туширганлари кундан-кунга у орзу қилган шеърга ўхшаб борар эди.

Абдулла 1958 йилда ўрта мактабни битириб, Тошкентга келганида унинг ёнида фақат олтин ҳарфлар билан ёзилган етуклик шаҳодатномаси эмас, балки ёнида Пушкиннинг, Лермонтовнинг, бошқа классик шоирларнинг, шунингдек ўзининг ҳам юзлаб сатрлари бор эди. У дорилфунунда таълим олар экан, талабалик йилларининг шукуҳли нафаси, биринчи бўса ва биринчи муҳаббат армони, дастлабки инсоний қувонч ва изтироблар унинг – ёш шоирнинг дафтарига мунис ҳислар ўлароқ тўкилди. Унинг зуваласидаги шоирлик аста-секин баҳор куртаклари сингари ниш ура бошлади.

Абдулла, чамамда, ўз ҳаётининг ана шу баҳорий палласини эслаб, “шеърият киши қалбига, энг аввало, руҳий ташналик, чексиз эҳтиёж, ажиб бир сеҳр тариқасида кириб келади”, деб ёзган эди. Бугун биз Абдулла Ориповнинг матбуот юзини кўрган илк шеъридан тортиб, шу вақтга қадар яратган асарларини назардан ўтказсак, уларнинг шеъриятга ҳавас улкан шоирларга тақлид тарзида эмас, балки чиндан ҳам руҳий ташналик, чексиз эҳтиёж ва ажиб бир сеҳр тариқасида майдонга келганига ишонч ҳосил қиламиз. Чамаси, ҳақиқий шоир ҳам шундай эҳтиёж фарзанди сифатида таваллуд топади.

Шоирнинг эл оғзига тушган дастлабки шеърларидан бири – “Тилла балиқча”да лойқа ҳовузга ташланган ва ташландиқ ушоқларни еб катта бўлган балиқчанинг ҳолати тасвирланган эди. Абдулла бу шеърида тилла балиқчанинг шу кўлмакдаги ачинарли қисматидан эмас, балки унинг шу сассиқ ҳовузни дунё деб тушунишидан мутаассир бўлган. Оддий ҳаётий манзарадан кутилмаган ва кўламли фалсафий хулоса чиқаришидаёқ унда катта шоирга хос нигоҳ ва сезги мавжудлиги юз кўрсатган эди. У кейинчалик ўзидаги ана шу фазилатларни ривожлантириб, ҳаётий мавзуларни ўзбек шеърияти учун янги бўлган нуқтадан туриб ёритишда давом этди. Ана шу аснода ўз ижодий овози ва услубини топди.

Менимча, “Тилла балиқча” Абдулла Орипов ижодининг шаклланиш фаслида ёзилган ва шу фасл доирасида қолиб, бугунги кунда унутилган шеърлари жумласига кирмайди. У Чингиз Айтматовнинг “Оқ кема” қиссасидаги норасида бола образи сингари тимсол даражасида аҳамиятга

молик. Тилла балиқча – бу ҳозирги воқеликда, чиркин бир шароитда, баъзан ғаламис кишилар қуршовида яшаётган истеъдод соҳибининг образи.

Одатда, шоирлар қавмининг бутун инсониятга мансублигини таъкидлаш ниятида уларнинг на миллати, на ватани борлиги айтилади. Бу мутлақо хато фикрдир. Шоир энг аввало, шу эл-юрт табиатини, қалбини, орзу ва армонларини куйлаш жараёнида бошқа эл-юртлар учун ҳам муштарак бўлган қадриятларни теран тасвирлашга эришади.

Абдулла Орипов шеъриятининг гўзал намуналаридан бири “Юртим шамоли” шеъридаги мана бу сатрларни яна бир бор эсланг:

*Мен-ку бу дунёда бир зори висол,
Карбало даштида Мажнун сифатман.
Шамоллар ичида мен ҳам бир шамол,
Чечаклар атридан мен ҳам сармастман.
Лекин сен руҳимнинг мангу хаёли,
О, юртим шамоли, юртим шамоли...*

*Эсгин-эй, боғларнинг жамоли кулсин,
Мовий нафас билан тўлсин этаклар.
Учқур қўшиқларга бу олам тўлсин,
Шаънингга шоирлар айтсин эртаклар.
Эсгин, ватанимнинг таралсин боли,
О, юртим шамоли, юртим шамоли.*

Бу мисралар, ўтли сўзлар тарзида шоир юрагидан отилган бу туйғулар ўзбек учун ҳам, фаранги учун ҳам, ҳинду учун ҳам тушунарли ва азиз бўлса не ажаб. Аммо улар ўзбек диёридан, аниқроғи, Абдулла Орипов учун муқаддас бўлган Қарши чўлларидан эсанг шамолдан мавж олган. Шоир ўз юртига бўлган соғинчи, меҳр-муҳаббатини куйлар экан, беқиёс даражага кўтарилади. Умуман, у ўзининг нурли оҳанглар билан йўғрилган шеъриятида бугунги воқеликдан, бугунги замоннинг фожиалар, кулфатлар, нохушликлар билан тўла пиллапояларидан юксалиб, жаҳон классикларининг келгуси авлодлар қалбидаги манзилгоҳига йўл топди.

Нурли оҳанглар – фақат некбин ғоялар ва туйғулар силсиласи эмас. Баъзан шоир ўз қалбидан юзиб чиққан мунгли ҳислар шалоласини тасвир этганида ҳам китобхон дили бу мусаффо туйғулар туғенидан хийла покланиб, мунгдан-да нурлангандек бўлади.

*Инсон ўз умрини ўйласа кўп вақт,
Қийнайди ўзидан ўтган қусурлар.
Кимгадир айтилмай қолган бир раҳмат,
Кимдандир сўралмай қолган узрлар...*

*Инсонга тобемас замон, инчунун,
Инсон юрагида аламлар қат-қат.
Фақат бир таскин бор барчаси учун
Афсус чека билсанг – шу ҳам бир давлат.*

Абдулла Орипов ўзининг бундай теран инсоний кечинмаларга бой шеъриятида донишманд файласуф даражасига кўтарилган. Шоирнинг ёши анча улуғ ҳамкасбларида ҳам кўринмаган бу фазилат унда қандай қилиб барвақт ниш урди, деб сўрашингиз мумкин. Менимча, бунинг боиси шундаки, унинг шоирлик қалби шу давр мобайнида бошқаларга нисбатан кўпроқ меҳнат қилди, унинг миясидаги ҳужайраларнинг аксар қисми фаол ишга жалб этилди. Шу боис унинг нигоҳи ҳам, туйғулари ҳам фавқулодда теранлик касб этди. Шу боис у ҳаётдаги нохуш ҳоллардан кўпроқ озор чекиб, ўзини қуршаган муҳитдаги норасоликлардан беҳад азоб тортди. У тилла балиқча сингари кўлмакдаги чириган хас-хазонлар билан муроса қила олмади.

Шоирнинг “Ишонч кўприклари” шеърисида ўзини қийнаган маънавий муаммолар теран бадий талқин этилган. Бугун маълум бўлишича, бу шеър куни кеча фақат ижодкорлар ўртасида кўзга ташланган қусурларга эмас, балки умуман жамиятимизнинг маънавий тушкунликка юз тута бошлашига қарши қаратилган экан. Шеърдаги ҳар бир сатр шу маънода кишиларни огоҳликка ундовчи, улуғ давлатни оламшумул ҳалокатдан сақлаб қолишга даъват этувчи руҳий қувватга эга экан. Қуйидаги мисралар шундан далолат беради:

*Юздан парда кетса,
Дилдан диёнат,
Меҳр ришталари зимдан узилса,
Юракларни босса шубҳа, хиёнат,
Ишонч кўприклари бузилса;
Етимлар ҳақидан қўрқмаса биров,
Сўқмоққа айланиб кетсалар йўллар;
Қиблагоҳлар осий, тугишганлар ёв,
Ғазналарга чўзилса қўллар...
Элнинг шоирлари ганим зотлар каби
Бир-бирларин гажиб есалар;
Минбарларга чиқса кўча-кўйнинг гапи,
Андишани қўрқоқ десалар...
Бундай юртда энди қирғин шарт эмас,
Вабо ҳам қочади ундан йироққа.*

*Ҳатто дарёлари қурир басма-бас,
Ҳатто тупроқлари тушар титроққа.*

Шоир башорат қилган экан. Халқнинг олди бўлган кишиларни иймон тарк эта бошлагани боис, тўғрироғи, оммавий тус олган иймонсизлик сабабли аслида бой ва қудратли бўлган мамлакатимиз ўша кезлари ҳалокат ёқасига келиб қолган эди. Дарёларгина эмас, дастурхонлар ҳам қуриб, мамлакатдан қут-барака қочганига кўпчилик гувоҳ. Кимларнингдир иродаси билан халқлар бир-бирларига қарши пичоқ чархлагани ҳам рост...

Ана шундай фожиавий бир шароитда шоирнинг қуйидаги атиги саккиз мисрали шеъри ўзига катта маънони ортгандек бўлади:

*Дейдилар, қайгадир ўт кетса, албат,
Чумчуқ хас таширмиш, қалдирғоч-чи сув.
Балки, бу чумчуқнинг шаънига туҳмат,
Ёнгин нималигин балки билмас у...
Сен дунё ҳолига назар сол бир пас,
Назар сол кўзлардан оққан ёшларга.
Дунёда кулбалар ёнар ҳар нафас,
У доим муҳтождир қалдирғочларга.*

Ўша кезлари ёнаётган мамлакатга қалдирғоч каби сув элтиб келиб сепувчи, уни нифоқсиз, можароларсиз, тўкин ва фаровон янги замонлар сари етакловчи қаҳрамонлар нақадар зарур эди. Ўзи ҳам ана шундай эзгу ният яшаган куйинчак шоир сифатида юрт ғамини ана шундай дардли мисраларда куйлагани Абдулла Ориповнинг чинакам инсонпарвар, халқпарвар шоир бўлгани исботидир.

Абдулла Орипов тўғдор сатрлар ва шеърлар ижод қилди. Замондоши Эркин Воҳидов ижодида эа мусиқийлик, шеърий равонлик устуворлик қилгани маълум. Бу икки шоир бир-бирини такрорламайдиган, ўзига хос адабий ҳодиса сифатида бир-бирини тўлдирди ва миллий адабиётимизнинг ўзлари яшаган даврдаги қиёфасини мукамал ифода эта олди. Икки улуғ ижодкор ортидан қанча-қанча истеъдодли шоирлар авлоди етишиб чиққани айни ҳақиқатдир. Улар туфайли бугунги ўзбек шеърияти яна бир поғона юқорига кўтарилди.

Ўзбек диёрида Наврўз таровати кезиб юрган ушбу кунларда ҳаёт бўлганида севимли шоиримиз ўзининг муборак саксон ёшини қаршилаган бўлар эди. У баркамол бир шоир, донишманд ижодкор сифатида ўзидан бой адабий мерос қолдирди. Унинг руҳий ташналик, чексиз эҳтиёж ва ажиб бир сеҳр тақозоси бўлган шеърияти бугун ҳам адабиётсевар қалбларни эзгулик

нури билан ёриб келмоқда. Улуғ шоирнинг қуйидаги орзуси бугун ҳам кўнгилларга умид ва ишонч нурларини сочиб турибди:

*Баҳор-ку ўтади шамолдек шитоб,
Майли, ўтажасак у ва ўтар бўлсин.
Азизим, умрингда ҳаво бўлсин соф,
Умринг шамоллари муаттар бўлсин...*

Улуғ шоиримизнинг халққа, ижодга бағишланган умр шамоллари чиндан ҳам муаттар эди. Теран мазмун ва гўзал бадиий шаклни уйғун этган шеърлари бугун шеърсевар қалбларни муаттар этиб келмоқда

Yashar Kosim,
filologiya fanlari doktori, Ozarboycon Milliy Ilmlar
Akademiyasi Nizomiy Gancaviy nomidaqi Adabiyot
institutining bosh ilmiy xodimi

Abdulla Oripov va avloddoshlari icodida ozod adabiyot ideali

XX аср ўзбек адабиётида, хусусан, шеърятимизда тутқун ижтимоий муҳитда санъаткорнинг ўзига хос маънавий-ахлоқий фаолиятига доир бебаҳо ва ноёб эстетик тажриба шаклланди. Фитрат, Чўлпон, Қодирий, Оёбек, Умон Носир ижодининг ўлмас сабоқлари, Ғофур Ғулом, Ҳамид Олимжон, Абдулла Қаҳҳор, Мақсуд Шайхзода, Миртемир, Шухрат, Асқад Мухтор, Зулфия, Шукрулло каби забардаст адибларимизнинг айрим асарлари ана шундан далолат беради. 60-70 йилларда адабиётимизга дадил кириб келган турли адабий наслар ижодий изланишларида ҳам, табиийки, умуммиллий бахтсизлик ва ялпи мазлумлик шароитида ижодкор ўрни ва ҳаётий мавқеи каби муҳим муаммолар диққат марказида туради. Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Рауф Парфилар авлоди ва уларнинг издошлари ижодида бу масала бадиий-фалсафий йўналишда чуқур талқин этилди. Фақат айрим шеърларидагина эмас, “Рухлар исёни”, “Жаннатга йўл” каби мумтоз ва салмоқли дostonларида ҳам Эркин Воҳидов ва Абдулла Орипов буткул эрксизлик, ҳуқуқсизлик муҳитида ижодкор қисмати, эл-юрт такдири, ижодий эрк ва ҳаққонийлик зарурати каби ғоят муҳим масалаларни юксак маҳорат ва мардоналик билан авж пардаларда куйладилар.

“Рухлар исёни” достонида мустабид замон ижод аҳли олдига кўндаланг кўйган қатор қалтис саволларга абадият нуқтаи назаридан ҳамда аниқ жавоблар берилган. Айтайлик, муаллиф истибдод шароитида номус ва шараф билан яшаш-яратиш учун, эркин ижод қила билиш учун маънавий мустақилликка, руҳий озодликка эришиш бирдан-бир халос йўли эканлигини махсус таъкидлайди. Улуғ ва азобкаш ҳинд шоири Назрул Ислоннинг тақдири тимсолида Э.Воҳидов нафақат ўз ички қийноқларини, балки тутқун устозлар ва авлодлар ижодий қисматларини ҳам умумлаштирган: *Не қилайлик, одамлардек яшолмадим дунёда. Лек кўнглимда нолиш эмас, Алланечук дилодлик. Гарчи жисмим банди қафас, Рухимда бор озодлик.* Қуйидаги мисралар эса буюк ва беомон ёлғонларга она бўлган замоннинг “шоир ким?” ёки “шоир қандай бўлиши керак?” сингари саволларига лўнда ва ҳикматли жавобидир:

*Шоир юрак – Пок тилаги.
Имонидир башарнинг.
Армон тўла юракдаги
Исёнидир башарнинг.*

Истибдод – алдов билан нафас олади. Ҳар босган қадамида ёлғонга суянади. Истеъдоднинг ҳаёт манбаи эса Ҳақиқат. Ҳаётдан ва ҳақиқатдан юз ўттирган куни Истеъдод ўлади. Истибдод эса ёлғондан сув ичган сайин гуркираб ўсади. Ҳақиқат – у учун ўлим демакдир. Истеъдод ва Истибдод табиатида мана шундай туғма зиддият мавжуд. Мазкур ўлмас ҳақиқатни Эркин Воҳидов ўша ёлғон авж олган алғов-далғов йилларда ҳассослик билан илғаган, қатъий ишонч билан, жасорат билан бизга билдирганди...

*Яралишдан Истеъдоднинг
Табиати – исёндир!*

Абдулла Орипов ва Рауф Парфи лирикасида ижодкор тақдирининг фалсафий таҳлили, хусусан, миллий-ижтимоий ҳуқуқсизлик шароитида шоир қисматининг ғоят чигаллиги мунтазам равишда ўз аксини топиб келган. Ижодкор умрини яшаш, чинакам шоир бўлиш жудаям қийин қисмат. Сўз санъатининг кўнгилли азобкашлари, софдил фидойилари мана шу қисматнинг мураккаблигини қайта-қайта таъкидалашни ўзларига бурч деб билганлар. А.Орипов маънавий салафлар эътирофини ва муқаддас ўғитларини ёдда тутган ҳолда бежиз айтмаган: *Шоир бўлиш қийин, Шоир бўлиш оғир.*

У ижодкор ҳаётининг барча аччиқ-чучугини, калтис синовларини бошидан кечирган бир инсон сифатида “Шоир умри”ни бекорга қуйидагича тасвирламаганиди:” *Дарахтни ҳаммиша ўрайди шамол. Шоирни ташвишлар чулгар ҳаммиша. Сен шоир умрини дема безавол. Унинг ҳам ҳар они ташвишига пеша. Қара-я ўтибди қирқ йил муттасил, Яшабман юлдузлар остида карахт. Оҳ, шоир умрига хавас қилмагил. У қуюн ичида унган бир дарахт*”. Дарвоқе, шоирлар шуҳратига рашк қилгувчилар, кўпинча, уларнинг тинимсиз давр шамоллари куршовида, омонсиз замон қуюнлари ичра униб ўсадиган дарахт эканлигини унутиб юборадилар. Шоирларни – ёвуз замонларнинг ўғай фарзандларини эъзозлаш ва ардоқлаш заруратини замон томошабинлари - паст ва “кибор оломон” (Рауф Парфи) ўйлаб ҳам кўрмайди. Эрк ва озодликка шоирнинг муҳаббати қанчалар бепоён бўлса, адолатсиз замон пайдо бўлишида ҳар гал ва мудом тайёр “хомашёдай” иштирок этадиган мутеъ, бепарво ва лоқайд оломонга нафрати шунчалар чексиздир:

Машираб осилганда қаёқда эдинг?

Чўлпон отилганда қаёқда эдинг?

Суриштирганмидинг Қодирийни ё,

Қалқон бўлганмидинг келганда бало?

Замон ва санъаткор курашида иккинчи томоннинг, деярли, ҳар гал мағлубиятга учрашида асосий сабабкор ва айбдорлардан бири, шубҳасизки, оломондир. Азал-абад салтанат суянчиғи бўлиб келган ва жамиятнинг маънавий жиҳатдан энг текинхўр қисми саналадиган бу ғаройиб табақа учун ҳайвоний эҳтиёжлар, ҳузур-ҳаловат ҳамма нарсадир. Ҳатто Ватан, озодлик, эл-юрт тақдири, номуси ва шаъни у учун ҳеч нарсадир. Шунинг учун ҳам шоир замон белгиларидан ва тимсолларидан бири сифатида оломонни ажратиб олиб, уни ғазаб билан лаънатлайди:

Нимасан? Қандайин сеҳрли кучсан?

Нечун томошага бунчалар ўчсан?

Қаршингда ҳасратли ўйга толаман,

Қачон халқ бўласан, эй, сен оломон?

Шоир қисмати – мушкул қисмат. Бироқ Ватани асорат остида, миллати асирликда бўлган шоирнинг тақдири юз чандон, минг чандон оиғрроқдир. Мазлум юртнинг шоири – фақат шоир эмас. У айни чоғда, озодлик учун крашчи, маънавий муаллим-мураббий. А.Ориповнинг мустамлака зулми авжидалигида чўлпонона жасорат ва шижоат билан битилган мазкур сатрлари ана шу ҳақиқатни шоир нечоғлик теран англаганлигини

кўрсатмайдимми? *Фақат шоир бўлиш... Бу ҳали етмас – То кишиан бор экан юрт оёғида.* Хусусан, буюк санъаткор шунчаки оддий ва якка шахс эмас. У бутун элу юртни, Ватан ва миллатни ўзида мужассам қиладиган улкан Шахс-дир. Шунинг учун ҳам унинг оғриқлари адоқсиз, изтироблари эса чексиздир. Чинакам шоир шахси шунчалар улуғворки, у ялпи тутқунлик муҳотида ҳам умумдан кескин ажралиб туради ва озодликнинг яккаш оролидай мавжуд бўлаверади. Шоир ҳар қандай шароитда ҳам руҳан эркин бўлгани ва ўз ички эркини ҳеч қачон бой бермагани учун Озодликнинг таъмини-лаззатини ҳаммадан кўра яхшироқ билади. Унинг қадрига кўпроқ етади. Айни шу боис Озодликни ҳаммадан кўра Шоир ортиқроқ севади ва истади: “*Шоир қаламида ҳасратлар қат-қат, Шоирни чулғайди ўйлар дафъатан. Яшаб қолармикан шеърим оқибат? Озод бўлармикан натавон Ватан?*”

XX аср ўзбек шеърлятида тутқун муҳит ва иждокорнинг миллий-эстетик мавқеи борасида сўз борар экан, Рауф Парфи лирикасини четлаб ўтиш амри маҳол. Агар таъбир жойиз бўлса, айтиш мумкинки, Р.Парфи бутун дунёга донғи кетган “ёвузлик салтанати” билан ҳаёт-мамот жанглирида энг кўп “қон тўккан” шоирларимиздан саналади. Шуниси ҳайратланарлики, у мана шу узундан-узун кураш йилларида ўз собиқ эътиқодидан ва жанговор мавқеидан ҳеч қачон “бир мисралик” ҳам чекинмаган. Ҳукмрон мафкурага бир зум бўйсунмаган. Рауф Парфи илк ёшлик машқларидан то бу кунгача “Шоирнинг сўзи унинг ишининг моҳиятидир” (А.С.Пушкин) деган доҳиёна каломга амал қилиб келди. Иждокорларнинг эзгу эътиқоди ва шунга узлуксиз садоқати масаласи ҳар доим унинг диққат марказида турди. Р.Парфи ҳали навқиронлик чоғларида битган ва буюк замондоши Абдулла Ориповга бағишланган “Шоир” (1970) деган машҳур шеърлида бекорга шундай кескин ва шиддатли саволларни ўртага ташламаган эди:

*Кимни шоир дея тан олар жаҳон,
Биз кимни шоир деб атаймиз бугун?*

Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Рауф Парфи, Чўлпон Эргаш, Омон Матжон, Муҳаммад Али, Маъруф Жалил, Миразиз Аъзам каби забардаст шоирлар мансуб авлоднинг ўзига хослиги ва қудрати шундаки, улар эрта ёшлиқданоқ санъатнинг тақдири ва туб моҳияти билан чамбарчас боғлиқ масалаларни замондошлари олдиға кўя билан ва бунга ҳаққоний жавоб излар эдилар. Ва табиийки, ушбу масалалар ичида энг долзарби ва хатарлиси “Шоир ва Замон” муаммоси эди. Хўш, Шоир ким? Шу ғаройиб замонга – Инсоният тарихидаги энг ёвуз ёлғонга унинг муносабати қандай бўлмоғи зарур? У жафоқаш миллат қалбидаги ғамзада ва мотамсаро кечинмаларни

тасвирлаши керакми? *Кимдир ул, замғусор ва мотамсаро. Фикр сочаётган оламга?* Наҳотки, чин санъаткор ҳам шунчаки бир эрмак деб куйлаши, сохта ва ўткинчи эҳтиросларга берилиши, умумёлғон ва умумгуноҳга шерик бўлиши мумкин? Саволнинг ўзи янги ва ёш Шоирни даҳшатга солади:

*Йўқ... Йўқ, яралмади у билган ҳаёт,
Ҳали тугилмади шоирнинг куни.*

Муносабат – бениҳоя аниқ. Жавоб – жудаям кескин. Дарҳақиқат, Р.Парфининг ёш лирик қаҳрамони бу масалада ҳеч қачон иккиланмаган. Ҳақиқатнинг қасоскор кўзларига ҳамиша тик қарай олган. У мустамлака воқелигини – эркин ҳаёт, айрим ва бир қатор замондош қаламкашлардай, миллий зулмни – миллий саодат, деб куйлашни бир зум ҳам тасаввур қилолмаган. Вақт оғир-оғир айланиб, тутқунликнинг узундан-уzun ва зил-замбил йиллари ортда қолган, қутлуғ Истиқлол титроқ орзудан, аёвсиз армондан Қуёш янглиғ ҳақиқатга айланган мана шу Музаффар кунларда бемалол айтса бўлар; Рауф Парфи Истиқлолни чорлаб, Миллий қутулишни истаб, Озодликни астойдил сўраб, Эркин қўмсаб битган шеърларни юрак кони билан ёзар экан, ҳар гал Ватан учун жон фидо қилишни кўз олдига келтира олган, ўлимни обдон ўйлаган экан:

*Тиккандир жонини Ватанига у,
Бу сўз қаршисида титрама, эй жон.
Юзма-юз келгандек гўё ўт ва сув,
Юзма-юз келадир шоир ва замон.*

“Шоир”да муаллиф барча эҳтиёт ва хавфсизлик чораларини кўнгилли равишда итқитиб ташлагандай кўринади. На замоний ва маконий шартлилик бор бунда – шеър замондош ва тенгдош ижодкорга бағишланган. 1970 йил. Миллий тутқунлигимизнинг юз йили... Яна ёвуз Даҳо туғилганининг юз йиллиги... Шеърда на мажозий тагдорлик, на истиоравий сир бор – ҳамма нарса очик-ойдин айтилган. Энг хушёр сўз соқчиларини ҳам шоштирадиган, сирли-сеҳрли ва “мубҳам” образлар яратишда моҳир, деб тан олинган муаллиф негадир бу гал ўз нафратини тизгинламаган, ғазабини рамзлар билан пардаламаган. Аксинча, беҳад кескин қаршилантериш усулини танлаган – шоир ва Замон ҳолатини “гўё ўт ва сув” деб белгилаган. “Шоир”да Рауф Парфи қонли салтанат билан зимдан олишиш жонига теккан, сабр-тоқати тоқ бўлган ва ниҳоят, ёвуз душманга қарши очик ҳужумга ўтишга шайланаётган, шошилаётган ёвқур аскарга ўхшайди:

*Буюк эътиқоддир бу даҳр аро йўл,
Буюк эътиқоддир муборак илҳом.
Шоир юрагида очилмаган гул,
Шоир юрагида собит интиқом.*

Ушбу мисраларни қайта ўқиркан, қалбимдан яна ажиб жозиб бир туйғу кечди: нечоғлик гўзал жасорат ва нақадар жасоратли гўзаллик... XX аср ўзбек лирикасидаги бу каби жасур ва ҳайратингиз гўзалликлар билан чексиз ғурурлансак арзийди...

60-йиллар шоирлар авлоди ижодида мавжуд ижтимоий-сиёсий тузумга, қонли диктатура тартибларига қарши аламли эътироз ва алангали исён шахсга сиғиниш даври фожиаларининг таҳлилидан бошланади. Тўғрироғи, улар машъум шахсга сиғиниш йиллари даҳшатларини аёвсиз фош қилмасдан туриб манфур ва шафқатсиз тоталитар тузумни инкор этишни иложсиз деб билишган.

Аслида ҳам шундай. Сталинизм ваҳшатларининг жинояткорона табиатини теран англаб етмасдан совет даврининг ёвуз моҳиятини очиб ташлаш қийин, албатта. Бутун-бутун авлодларни, ўнлаб халқларни бахтсиз, милёнлаб умрларни хазон қилган ғайри-инсоний жамиятнинг зим-зиё тарихини, қон билан йўғрилган ўтмишини чуқур ёритмасдан шуни таг-туби билан фош этиш амри маҳол. Айни шу боис янги ўзбек лирикасида замонавий воқелик-совет даври иллатларига қарши чиқиш бир ижтимоий-эстетик ҳодиса сифатида яқин ўтмиш фожиаларини англашга интилиш, машъум замон қилмишларини қоралаш билан бир пайтда кечади. Янги шеърятдаги бир-бирини тўлдирадиган, ўзида теран ахлоқий-фалсафий ва миллий-маънавий мазмун ташийдиган ана шу иккита йўналишнинг ўзаро муносабатини билиш жуда муҳим аҳамиятга моликдир. Зеро, янги ўзбек лирикасининг ғоявий-бадий нафасини ҳам, янги лирик қаҳрамоннинг маънавий-ахлоқий мавқеини ҳам ушбу иккита поэтик жараённинг узвий бирлиги белгилайди.

Бу ўринда биз мазкур икки йўналишдан биттасига-чорак аср муқаддам навқирон авлод шеърятда шахсга сиғиниш даври кўргуликларига муносабат қандай акс эта бошлаганига тўхталмоқчимиз.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, олтмишинчи йиллар шоирлар авлоднинг илк қадам тажрибаларида салмоқли ўрин тутган, қатағон ва қатли ом қурбонларига бағишланган шеърларни ёш қаламкашларнинг имонсиз ва эътиқодсиз замонга фақат исёни сифатида қабул қилмаслиги лозим. Мазкур шеърлар ҳамда ушбу авлодлар, уларнинг аъмол ва орзулари билан

якдиллигининг ифодаси эди. Қолаверса, биргина бу руҳдаги шеърлар эмас, умуман, янги шеърятнинг энг сара ва самимий намуналари қаттол замон шафқатсизларча узиб ташлаган маънавий ришталарни қайта тиклашга узлуксиз интилиш билан йўғрилган. Бу – янги ўзбек лирикасининг моҳиятини ва ундаги ўзига хос кайфиятни белгиловчи асосий жиҳатлардан биридир.

Олтмишинчи йилларнинг ёш шоирлари ижодида қатли ом даҳшатларининг инъикоси хусусида сўз кетар экан, Абдулла Орипов шеърятига махсус тўхталиб ўтишга тўғри келади. Улкан шоиримизнинг, айниқса, “Кетганлар ёди бу...” шеъри бу жиҳатдан жудаям теран ва таъсирли. Ушбу шеърда шахсга сиғиниш даври фожиаларига янги авлоднинг нафақат аламзада муносабати, балки кўпроқ умум кайфияти, бир умрга унутилмас маънавий-руҳий хулосалари акс этган, дейиш мумкин. Мустабид замон қатағонларига қарши олис олтмишинчи йилларда битилган қатор поэтик намуналар сингари, “Кетганлар ёди бу...” шеъри ҳам шартли сюжетга, бирмунча рамзий мундарижага эгадир: *“Туш кўрдим, тушимда бир денгиз эмиш, Тўлқинлар сапчирмиш мовий осмонга. Манзил йироқ эмиш, уфқ сўнгсиз эмиш, Бир кема борармиш ўша томонга. Унинг саҳнасида жами дўст-ёрон, Умрлик дўстларни кўрган эмишман. Жаннат хаёлидай даврада шодон Мен ҳам қаҳ-қаҳ уриб турган эмишман”*.¹

Рамзийлик ва шартлилик пардаси ортидан шеърда тўғрисида сўз кетаётган замоннинг характерли белгилари, барибир аниқ кўриниб туради. Юқоридаги сатрларда тилга олинган “тўлқинлари осмонга сапчиётган денгиз”, “йироқ манзил”, “сўнгсиз уфқ” ва ўша машҳур Сўнгсизлик томонларга сузаётган кема, “унинг саҳнасидаги жами дўст-ёрон”, “умрлик дўстлар”, “жаннат хаёлидай шодон давра”, “шодмон қаҳ-қаҳлар”... Булар бари социалистик истибоднинг илк босқичидаги, яъни йигирманчи-ўттизинчи йилларнинг (аниқроғи, ялпи қатли омгача бўлган даврнинг) ўзига хос ижтимоий-сиёсий иқлимини, сохта кўтаринки кайфиятини, умумий маънавий манзараларини акс эттирмайдими?!

Навбатдаги поэтик парчада эса ўттизинчи йилларнинг ўрталаридан эътиборан авж олган қатағонларга – оммавий репрессияларга ишора қилинади. Бизнингча, “кеманинг бир соҳилга етиши”, “мен”ни оғир йўл азоби толдириши, рўй берган даҳшатли ва “ногоҳ айрилиқ” барча дўст-ёронларни ўша Кеманинг қоронғу ёқларга олиб кетиши ва “мен”нинг айрилиқ Кемаси ортидан гирён югуриши ўз маъно ва мундарижасига кўра ўша шафқатсиз замон нишонларидир: *Кема бир соҳилга етгани маҳал Мени йўл азоби қўймиш толдириб. Кема жўнаб кетмиш йўлида жадал, Кема жўнаб кетмиш мени қолдириб. Мен унинг ортидан югурдим гирён Ногоҳ*

¹ Абдулла Орипов. Йиллар армони. 154-бет.

айрилиқдан кўзларим ёшлаб. Нега сен қоронғу ёқларга томон Менинг дўстларимни кетдинг деб бошлаб.

Эҳтимол, бошдан охиригача рамзлар асосига қурилган, хусусан, туш тарзида – ғайриреал бадий замон сифатида ўйланган бир шеърга эркин ёндашаётганимиз бир қадар ажабланарли туюлар, балки шу шеърни абадият ва азал-абад ҳақиқатлар мавқеидан туриб, баҳсловчилар ҳам топилиб қолар. Бироқ 60-йилларнинг энг илғор ва демократик ижтимоий-эстетик тафаккур йўналишларидан, уларнинг умумий моҳиятидан келб чиқадиган бўлсак, “Кетганлар ёди бу...” шеърини айнан шу йўсинда талқин қилиш мантиқан тўғри эканлиги аён бўлади. Абдулла Орипов ижодининг умумий ижтимоий руҳи, айниқса, 60-йилар лирикасининг ўзига хос ва силсилавий ғоявий-эстетик мазмуни, давомли ва изчил фалсафий мундарижаси, шоир “мен”ининг шахсга сиғиниш даври фожеаларига узил-кесил муносабати бизнинг талқинимизни тўла-тўкис асослайди. Ҳа, севимли шоирмизнинг илк лирикасидаги ғамгин ва аламзада кайфиятнинг бош сабабларидан бири худди ўша йилларнинг машъум хотироти, сталинизм даҳшатлари билан бевосита боғлиқ эканлиги кўриниб турибди, ушбу шеър эса мана шу йўналишдаги дастлабки бадий изланишлардан бири сифатида эътиборга лойиқдир. Қолаверса, поэтик рамзларни очиш ва йўйиш тажрибаси ҳам бизнинг илмий-танқидий мавқеимизни қўллаб-қувватлайди. Маълумки, ҳар қандай бадий рамз ёки шартли хаёлий образ биринчи галда ўзи яратилган даврнинг, камида энг яқин ўтмишнинг акс-садоси янграқ туғилади. Айни шу боис энг серқирра ва сермаъно рамзий образларнинг ҳам бош маъноси ёхуд асосий маъноларидан бири уларнинг туғилишига туртки берган муайян ижтимоий шарт-шароитга, тарихан аниқ ва ҳаққоний даврга бориб тақалади. Демак, 60-йилларда яратилган “Кетганлар ёди бу...” (1966) шеърининг сталинизм даври – 30-50 йилларнинг ижтимоий сиёсий ва миллий маънавий контекстида баҳоланиши нафақат ҳақиқатга хилоф эмас, балки ҳар томонлама ўзини оқлайди.

“Кетганлар ёди бу...” шеърининг хулосаси муаллиф ниятини англашга ёрдам беради:

*Алам қилмас менга кемадан қолмоқ,
Уйқу-ку сўнггига бориб етганди.
Мен-ку бир манзилга тушгандим, бироқ
Кема дўстларимни олиб кетганди.*

“Дўстлар” образи билан шоир қатағон қилинган армонли авлодлар, Абдурауф Фитрат, Абдулҳамид Чўлпон, Абдулла Қодирий, Усмон Носирлар сингари улуғ устозлар, муқаддас маънавий салафлар қисматиға ишора қил-

маяптимикан?! Айтиш керакки, Абдулла Ориповнинг ва катор авлоддошларининг шу йўналишдаги шеърлари ушуб саволга фақат тасдиқ жавобини тақозо этади. Шундай қилиб, янги узбек лирикасида озод адабиёт тушунчасининг ва идеалининг илк бор катагон қилинган устозлар тақдирига боғишланган шеърларда рўёбга чиққанини кузатамиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Орипов А. Йиллар армони. Г.Гулум номидаги Адабиёт ва санат нашриёти. Тошкент, 1984.
2. Вохидов Э. Садокатнома. II жилдлик, Г.Гулум номидаги Адабиёт ва санат нашриёти. Тошкент, 1981.
3. Парфи Р. Кайтиш. Г.Гулум номидаги Адабиёт ва санат нашриёти. Тошкент, 1984.

ИККИ БУЛБУЛ ЁХУД ДАРД ҲАМОН ЎША-ЎША (Абдулла Орипов шеъриятида навоийёна оҳанглар)

Сувон МЕЛИ

Ҳазрат Навоийнинг нурли сиймоси ва муаззам ижодиёти ҳар бир ўзбек учун, хусусан, ўзбек адиби учун бир қуёш қабидир. Бу қуёшдан ҳар ким ўз имкони даражасида тафт ва куч олади. Ози оз, кўпи кўп олади. Абдулла Орипов буюк бобокалонимиздан катта куч ва ёниқ тафт олган XX аср иккинчи ярмида етишган улуғ шоирдир. Ҳозир улуғ ёшдагилар биладикки, шоир адабиётга кирган дастлабки йилларда унинг таваллуд санаси 1942 йил деб ёзиларди. Кейинчалик бу сана 1941 йилга ўзгартирилдики, бу зинҳор бежиз эмас. Демак шоиримиз Ҳазрат Навоийдан роса 500 йил кейин дунёга келган ва бу ниманидир англатса керак.

Шундай қилиб, Абдулла Орипов, таъбир жоиз бўлса, Ҳазрат Навоийнинг панневара шогирдидир. Устозлик ҳаммага ҳам насиб этавермаганидек, ҳамма ҳам шогирдлик мақомига (Навоийга шогирдлик – бу мақом) эриша олмайди. Абдулла Орипов шу мақомга эришган санокли шоирларимиздан бири эди. У битикларидан бирида чуқур афсус билан “Навоий бўлолмадик” (шундай шакл унинг сўз қўллашида бор эди) деб ёзган эса-да, шу гапни айтиш, айта олиш учун ҳам анчайин ҳуқуқ талаб қилинарди.

Шундай ҳуқуқ Абдулла Ориповда бор эди.

Шоир Ҳазрат Навоий ҳақида талай мисралар битганки, уларнинг сараси, шубҳасиз 1968 йилда ёзилган “Алишер” шеъридир. “Байтингга бир бора қовушган ҳар лаб, Такрорлаб кетгуси маҳшаргача то” дейди Шоир ушбу

шеърда. Ундан ташқари, Шоир адабий суҳбат ва мақолаларида буюк бобомиз ҳақида талай мулоҳазалар билдирган, закий кашфиётларни ўртага ташлаган. Шулар асосида ҳам “Абдулла Орипов – навоийшунос” деган тадқиқот олиб бориш мумкин ва у самарали бўлади, деб ишонаман. Шоир 1982 йилда адабиётшунос Анвар Жабборов билан “Шеър ва шеърят ҳақида” деб номланган суҳбатида дейди:

“Мен навоийшунос деган терминга қаршиман. Чунки бу шундай катта баҳри муҳитки, унинг денгизлари бор. Шунинг учун, “Лайли ва Мажнуншунос” ё “Фарҳод ва Шириншунос” бўлиш мумкин. “Чор девон” бир умр ўрганилса кам. Мен Навоидан масаланинг моҳиятига киришни, шеърни сеҳрли таёқчадай ўйнатишни ўргандим. У киши мазмун ифодасининг устаси, шеър айтиш мумкин, лекин шеърни мазмун билан фақат Навоий айтган”².

Масалага илмий жиҳатдан ёндошилса, Ҳазрат Навоий ижодининг Абдулла Орипов шеърятига таъсири жуда катта мавзу. Уни тадқиқ этиш балки том-том китобларни тақозо этар, лекин қуйидаги мулоҳазалар ушбу катта ишнинг бир заррасигина дейиш мумкин. Зеро XX-XXI аср ўзбек шеърятининг йирик намояндаси ўзбек адабиёти даҳоси ижодидан, ушбу “баҳри муҳит”дан сув ичмаслиги, улги олмаслиги мутлақо мумкин эмасдир.

Биз қуйида шоиримиз 1965 йилда, ёшлик палласида битган лирик шедеври “Булбул”нинг илҳомбахш нуқтаси, сарчашмаси ҳақида сўзламоқчимиз. Бу эса айнан Ҳазрат Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достонидаги бир лавҳа ва унинг “Булбул” шеъри яралишида ижодий туртки бўлганлигини қайд этамиз ҳамда кейин эса ҳар икки мустақил ҳодиса, дostonдаги лавҳа ва шеърнинг қиёсий-типологик таҳлилини амалга оширмақчимиз. Бундан кўринадики, таъсир ва типология муайян ўринларда бир-бирини инкор этмайдигина эмас, бир-бирини тўлдиришига гувоҳ бўлишимиз мумкин.

Шундай қилиб, Ҳазрат Навоий “Хамса”сининг учинчи достони “Лайли ва Мажнун”ни мутоала қилар эканмиз, унинг 13-бобида шундай лавҳага дуч келамиз. Аввал боб унвонидаги айрим жумлаларни кўчирсак: “Қайснинг... булбули шабҳез била ишқ дostonлари адосида нола қилғони ва булбул соясидек туфроққа йиқилғони...”. Боб давомида Мажнунга эврилган Қайснинг ёниқ ишқ изтиробларини булбулга айтиб, у билан бир нав баҳсга киришгани тасвир этилади:

Булбул била соз этиб навони,
Булбулдин ошар эди фиғони³.

² Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 4-жилд. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. 62-бет.

³ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. 69-бет.

Шундан сўнг Мажнуннинг булбулга таъна қилиб айтган сўзларини насрий баёнда келтирамиз, энг зарур ўринларда Ҳазратнинг ўз сўзларидан фойдаланамиз.

Насрий баёндан: “У булбулга қараб:

– Сенинг бундай нола қилишинг ўринсиздир, чунки ёринг билан биргасан; жойинг тоза гулшан, қўнадиган еринг эса гуллар шоҳида. Сен гулшанда ҳарам маҳрамисан, гуллар орасидаги суҳбатнинг азизисан. Гўё сен ўз мавқеингни писанд қилмайсан ёки ёр васлидан тўйдингми?” Энди Ҳазратнинг ўз сўзлари:

Ким шому сахар (таъкид бизники – С.М.) қилиб мароға,
Минг тил била ун солиб ароға.
...Сен аҳли висолсен, дам урма,
Ҳажр аҳли қошида нукта сурма!
...Олингда сени висолдин боғ,
Бағримда менинг фирокдин доғ.

Бундаги оҳангга эътибор беринг. Қайс булбулни беҳудага одамларга, элга озор бериб, ўзингни ошиқи зор қилиб кўрсатма. Сен нола чекишинг ўринсиз. Ёринг, гулинг ёнингда-ку, демоқда Мажнун. Булбулга қаратилган таъна оҳангги ва таъкид ила кўрсатганимиз “шому сахар” ибораси А.Ориповнинг юқорида тилга олганимиз “Булбул” шеърида манаман, деб турибди: “Шому сахар тиним билмай шарҳ айладинг дилингни...” Ягона бош қаҳрамон ва ушбу икки ашё – ўхшаш оҳанг ва ҳар икки матн учун муштарак ибора “Булбул” шеъри бевосита “Лайли ва Мажнун” достонидаги келтирганимиз лавҳа таъсирида туғилган, деган илмий фаразни олға суришга имкон беради. Асрдош улуғ шоиримиз буюк дostonни ўқиш жараёнида ушбу лавҳага тўқинган ва у шоиримизнинг поэтик ҳаёлотида “Булбул” шеърининг сеҳрли мисралари кўклам ёмғиридек қуюлиб келишига туртки ва илҳом берган. Шу ерда “Булбул” шеърини тўлиқ келтирамиз. Яхшиямки, у қисқа, бори-йўғи тўрт байт, саккиз мисра:

Булбул

Раҳматжонга

Сен – булбулсан, булбулларни маст қила қол, булбулим.
Менинг учун сайрашингни бас қила қол булбулим.

Шому сахар тиним билмай шарҳ айладинг дилингни,
Қани, айт-чи, булбулгинам, ким тушунди тилингни?

Биров сени нола деди, биров деди оҳ-фиғон,

Булбул тилин булбул билар, мен билмасман, булбулжон.

Англарми деб беҳудага роз сўйлама, қушим, ҳай,
Сен – булбулсан, булбулгинам, сени булбул тушунгай⁴.

Асл бадий асарда тасодифий унсур бўлмайди. Ушбу шеър сарлавҳасидан кейин “Раҳматжонга” деган ёзув-бағишлов бор. Биламизки, бу киши Шоирнинг ҳамюрт кадрдонларидан бири, янтоқдан бошқа нарса ўсмайдиган тақир даштдан чиққан таниқли булбулнафас бастакор Раҳматжон Турсуновдир. Бағишлов Шоир ушбу бастакорнинг дилбар қўшиқ ва кўйларидан қаттиқ таъсирланганини англатиши мумкин. Бу фикрни тан олган ҳолда айтиш жоизки, бу ерда бошқа бир сабаб, ижодий сир бор, ҳойнаҳой. Бу Шоир шеърда қўллаган ўзига хос усул – бадий четланиш билан боғлиқ. Асардаги бош персонаж булбул идеалда, юксак нуқтада шоирнинг ўзи, унинг поэтик тимсоли. Лекин, Шоир бадий усул қўллаб, Ўзини “сен”дан, яъни булбулдан ажратмоқда: “Сен – булбулсан, булбулларни маст қила қол, булбулим, Менинг учун сайрашингни бас қила қол, булбулим”. Бу ердаги “мен” бир тарафдан шоир, бошқа тарафдан унинг мухолифи. Яъни Шоир айтмоқдаки, сен – булбулсан, мен эса бошқаман... Ана шу бадий усул тасдиғи учун – бу биринчи қатламдаги тасдиқ, иккинчи қатламда у энди ишламайди – булбулнафас бастакор номи, яъни бағишлов керак.

Шому саҳар тиним билмай дилини шарҳ айлаётган Шоирнинг ўзи-ку. Унинг тилини тушунмаганлар (“ким тушунди...”) эса “мен”. Бу “мен” сал ўтиб “биров”га айланади: “Биров сени нола деди, биров деди оҳ-фиғон”. Бундай ҳукм совет даврида салкам “халқ душмани” деган тавқи лаънатга тенг эди. Шеърга қайтамиз. Бунда “биров” билан “мен” ўртасига тенглик аломати кўя олмаймиз, чунки “мен” булбулнинг тилини билмаса-да, лекин уни яхши кўради, дилдан ардоқлайди. Бежиз “булбулжон, булбулгинам” дея атамайди. Авайлаш ва эркалаш оҳангги сўнгги байтда ўз ҳадди асосига чиқади: “Англарми деб беҳудага роз сўйлама, қушим, ҳай, Сен булбулсан, булбулгинам, сени булбул тушунгай”.

Охирги байт шеър апофеози, шодон тантанаси бўлиб, унда шеър бошланишидаги ёт, ёқимсиз “мен” ўрнини булбулга хайрихоҳ ва меҳрибон “мен” эгаллайди, лекин у “мен” тарзидаги сўз эмас, грамматик қўшимча орқали “қушим”, “булбулгинам” – ифодаланган менлик маъносидир. Шунда, шу ерга келиб Мен ва Булбул яхлит вужудга айланиб, муаллиф атай яширган ғояни нозик ишора орқали юзага чиқаради.

⁴ Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Т.: Шарк, 2019. 52-бет.

Яъни булбул – бу Шоирнинг автотимсоли, фақат англомасликдан аламзада Шоир тимсолидир.

Бадиий усулга яна бир бор эътибор беринг. Бир тарафдан Мен, яъни шоир ўзини булбулдан ажратади. Унга ётлигини таъкидлайди. Бир пайтнинг ўзида, иккинчи тарафдан, булбулга қондош ва жондош эканлигини эркалаш оҳанглар орқали муҳрлайди: “Сен булбулсан, булбулгинам, сени булбул тушунгай”. Учта “булбул” сўзи қўлланган ушбу мисрада иккита булбул бор – булбуллиги таъкидланаётган ва булбулни тушунадиган булбул. Улар эса моҳиятан бир Булбул, яъни Шоирнинг ўзидир.

Юқорида замондош шоиримиз ушбу шоҳбайтини ёзишда Ҳазрат Навоидан куч ва илҳом олгани, “Лайли ва Мажнун” достонидаги лавҳадан таъсирлангани ҳақида ёзгандик. Лекин Абдулла Ориповнинг шеъри дostonдаги лавҳадан қанчалар фарқли ва мустақил. Муштараклик зимнида тафовут, тафовут зимнида муштараклик мавжуд. Бу қиёсий типологик тадқиқотларнинг, таъбир жоиз бўлса, олтин қонуни. Қайс мажнуний ҳолатда Булбулга таъна қилар экан, у булбулдан нафратланмайди, нафрат туйғуси бу ерда ўринсиз. У ишқий жазбада булбулни ўзига яқин олиб, яқин билиб, унга қарата нолалар қилади. Сўзининг охирида ақлу ҳушидан жудо бўлиши бежиз эмас:

Чун чекти бу ерга навҳаи дard,
Бўлди яна ақлу ҳушдин фард.

Зеро, унинг булбулга мурожаати ишқий жабҳанинг олий даражаси, ҳадди асоси эди.

Бинобарин, ҳар икки матнни Булбулга мурожаат бирлаштиради, лекин Ҳазрат Навоийда Мажнун ва Булбул охиригача мустақил субъект, ҳодисалар бўлса, Абдулла Орипов шеърида Мен ва Булбул бошда ажралса, иккиланса, шеърий ривож сўнигида битта вужудга, дардчил Шоирга айланади. Лекин ҳар икки матнда ҳам “шому сахар” нола қилаётган булбул ўзаро қондошдир.

Ҳазрат Навоий булбулидан куч ва илҳом олган Абдулла Орипов булбули (яъни ўзи) мустабид даврнинг юзига тик боқади. Ўз дарду ва аламларини тўкиб солганда, уларни нола ва оҳ-фиғон дея таъна тошини отаётганларга, айб қўяётганларга “Булбул тилин булбул билар, мен билмасман, булбулжон” деб уларни дидсизлик ва дардсизликда айблаш учун куч-қувват топа олади. XV асрдан XX аср томон парвоз қилган Булбул ушбу асрдаги ўзбекнинг дарду ноласини куйлай бошлади.

Булбул икки – Ҳазрат Навоий булбули ва Абдулла Орипов булбули. Лекин дард эса ҳамон ўша-ўша...

Intellekt va orifona falsafa
Ilhom G'aniyev Muzaffarovich,
filologiya fanlari doktori,
Xalqaro YAssaviy mukofoti laureati,
Buxoro davlat universiteti
ilkhom.ganiev.m@gmail.com

Annotasiya

Maqolada A.Oripov ijodining so'nggi bosqichida sharqona donishmandlik, pandnoma ruhi kuchayganligi, Qur'on va hadisiy g'oyalar she'rlarini ichdan nurlantirib turgani, poetik sintaksisi va falsafiy olami, milliy va umumbashariy g'oyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: badiiy sintez, orifona falsafa, poetik sintaksis, tafakkur tadriji, sintaksis, metaforik obrazlar, ramz

Annatation

The article analyzes the final stage of Aripov's work, the rise of Oriental wisdom, the spirit of didactics, the poetic syntax and philosophical world, national and universal ideas.

Key words: artistic synthesis, wisdom philosophy, poetic syntax, evolution of thinking, syntax, metaphoric character, symbol

Alloh o'z bandalarining to'g'ri yo'ldan adashmasliklari uchun avval o'z elchilarini, keyin ilohiy kitoblarni jo'natdi. U mehribon, rahmli va qodir bo'lganligi uchun yana va yana avliyo-anbiyolarni yubordi. Ammo odam bolasi bularning hech qaysiga quloq tutmadi. Garchi uning tiynati pok bo'lsa-da, nomi inson – unutuluvchi-ku. Aslida uning zaminga badarg'a qilinishi ham unutuluvchanligi bilan bog'liq, Momo Havo miysoq kunida bergan va'dasini esdan chiqarmaganida, ta'qiqlangan mevani emaganida Erda musofirdek sarson-sargardon yashashga majbur bo'lmasdi. Xato qilish ham bizga Odam Ato va Momo Havodan meros ekan-da.

Ko'zguga qaragan odam o'z aksini ko'rganidek, har birimiz o'z xatti-harakatlarimizning natijasi, aksi, hosilasimiz. Baxt va baxtsizligimiz amal, qilmishlarimizning oqibatidan boshqa narsa emas.

Insonning boshqa yaratiqulardan farqi aql, tafakkurda. U aqlni to'g'rilik yo'lida ishlatsa farishtaga, yomonlik maqsadida sarflasa hayvonga yaqinlashib boradi.

Aqlingga aql qo'sh, jahlingga – sabr! Mana shunday topib aytilgan birgina dono fikrga amal qilib yashay olgan inson o'zini nechog'li kamol toptiradi. Nafaqat o'ziga, yon atrofdagilarga juda katta namuna, ibrat bo'ladi. Nodonda sabr, johilda shukr yo'qligi qusur sanalgani kabi aqlni charxlash va faqat yaxshilik yo'lida sarflash ham fazilat hisoblanadi.

“Azon qatlami” she'rida Qodiri G'afforning bizni kafti orasida chiroq tutgandek asrab turganligi, zaminga yovuz nur tushsa, jamiki jonzotlarning kulfatga mahkumligi bayon qilingan. Ammo har bir insonning o'z azon qatlami bo'lmasa, ya'ni insonning fe'lida noqislik bo'lsa, uning siyrati barbod bo'lishi aniq.

YOvuzlik joy olsa qalblardan agar,

Undayin kimsaning nomi adodir.

Molu mulk dunyosi bisyordir magar,

Lekin ruhi uning majruh, gadodir.[Oripov Aю 2013:18]

Insonning insonligi uning ruhiy go'zalligida. Ruh toza, go'zal bo'lsa, o'sha inson eng baxtli, eng saodatmand. Zero, bu sinov, imtihon olami bo'lgan o'tkinchi dunyodan olib ketadiganimiz yagona, u ham o'z ruhimizdir. Ruhni pok tutish, yanada go'zallashtirish uchun nafsni yenga olish kerak. Tananing ozuqasi turli-tuman taomlar bo'lganidek, ruhning ozuqasi yaxshi amal va shu ezgu ish ortidan olinadigan duo, savob. Ammo bunga amal qilish juda qiyin. SHuning uchun ham mavlono J.Rumiy “Inson bolasi dunyoni zabt etadi, ammo og'zini zabt etolmaydi” deganlar. Darhaqiqat, ko'z, qo'l, oyoq, quloq, og'izni tiyish haqiqiy mo'minlik, mana shu besh a'zosini qaytarilgan ishlardan tiya olgan odam nafsini yenga olgan kishidir. Mutafakkir Jaloliddin Rumiy ko'zning zohiriy va botiniy xossalarini shunday sharhlaydilar: Ko'zi ojiz inson duch kelgan iflosliklarni yuqtiradi va natijada kirlanadi. Ammo qalb ko'zi ko'r bo'lgan inson maxfiy iflosliklarga duch keladi. Ko'rinib turadigan har qanday ifloslikni suv bilan tozalash mumkin. Ko'rinmaydigan, maxfiy, qalbdagi ifloslikni esa suv bilan poklab bo'lmaydi. Aksincha, u ko'paygan sari ko'payadi. Qallda ifloslik sezilar ekan, ularni ko'z yoshdan o'zga narsa tozalashi, poklay olishi mumkin emas. Hazrat Mavlono Jaloliddin Rumiyning fikricha, moddiy ko'zdan ko'ra, ma'naviy ko'zning ochiq bo'lishi afzaldir. Inson dunyo ne'matlariga hirs qo'ymasligi, ilohiy haqiqatlar sari yuzlanmog'i darkor. Ayniqsa, Haq ahlining qalb ko'zlari ochiqdir. Ularning moddiy ko'zlari uyquda bo'lsa ham, bu ular uchun kamchilik emas. YA'ni ular bu dunyoda mansab, martaba va hattoki, saltanatlardan mahrum bo'lsalar ham, qayg'u-hasrat qilmaslar. Qalb ko'zining ularga taqdim etgan ma'naviy fayzlari oldida moddiy saltanatning hech qanday qadr-qiymati yo'q. Tasavvufda bu hol “basirati ochiq” deb ataladi. Haqni topgan va hamma narsadan xoli qilgan bir inson nur taratgan quyosh kabidir. Qalb o'zining ma'naviy

ozuqasini batamom topsa, unga boshqa hech narsa kerak emas. Bularga ehtiyoj ham sezmaydi. YA'ni, ularni ko'rish uchun ham, eshitish uchun ham muhtojlik his qilmaydilar. Boshqa tarafdin, qalb ko'zlari yumuq, ammo jismoniy ikki ko'zi ochiq bo'lganlar, ma'naviy jihatdan tinch-xotirjam emaslar.

SHoir "Tomosha" she'rida insonni yomon deyishlari uchun yomonlik qilish shart emas, lekin yaxshi deyishlari uchun amal va aqchang bo'lishi kerak, deydi achchiq kinoya bilan. Bu istehzoning sababi odamlar o'rtasidagi oqibatsizlik, bir-birini ko'rolmaslik, xusumat, jaholatdir. Jaholatning boisi ilmsizlik, atrofda bo'layotgan voqea-hodisalardan to'g'ri xulosa chiqara olmaslik. Negaki, gohida aql o'rnini tajriba bosishi mumkin. Odamning giyohvandlik umr zavoli ekanligini ko'ra bila turib, shu ish bilan shug'ullanib o'z hayotini barbod qilishini gumrohlikdan boshqa nima deb atash mumkin?! SHoir she'rida o'zi Hindistonda guvoh bo'lgan bir manzarani eslaydi. Dehli tomonlarda sigirning yo'lini avtomobil kesib o'tolmaydi, lekin baland koshonalar oldida qator-qator och-nahor, hatto nozik joylarini yopolmaydigan nochor odamlar. Xuddi mutafakkir Ahmad YUgnakiy yozganlaridek:

Odamlar boylarga burib yuzlarin,

Ularga qul qilib berar o'zlarin.

YUzlarin o'girib faqir kishidan,

Ko'rmasga olarlar yumib ko'zlarin.

Insonlarning beparvo, loqayd, shafqatsizligidan yuragi ming dard, alam, hasratga to'lgan shoir "Tomosha" she'rida kinoya bilan deydi:

Hayvonot bog'iga yo'ling tushganda,

Kim kimni tomosha qilgay o'ylab boq. [Oripov A 2013:71]

Hayotning ana shunday ayanchli manzaralari qarshisida ojiz qolgan shoir xulosasiga ko'ra inson uchun eng katta yo'qotish, eng ulug' fojia– o'z qalbini yo'qotish. Zero, qalbini yo'qotgan odam Hazrati Inson (koinot gultoji!) degan sharafdan ajraladi va uning ongsiz, aqlsiz mavjudotlardan hech qanday farqi qolmaydi.

A. Oripov ijodining bosh mavzusi vatan va xalq, lekin bu ikki tushunchani alohida tasavvur qilib bo'lmaydi. Qolaversa, bu egizak bir-birini talab qiluvchi, biri ikkinchisiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lmagan tushunchaning asosi –Inson. "Tafakkur" she'rida yozadi:

Bul ikki his hamroh erur Insonga azal,

Biri– qo'rquv, yakunida mag'lubiyat bor,

Biri– hurmat, qarindoshdir e'tiqodga u. [Oripov A 2013:87]

Odamlarni boshqarib turadigan ana shu ikki hisdan birini to'g'ri tanlay olish kerak. Sog'lom fikr, sog'lom aqlga suyangan va uning qudratiga ishonib, oldinga

intilgan kishi, albatta, yutadi. Inson chin baxtni o'z qalbidan, yuragidan izlagandagina topa oladi, negaki inson izlayotgan narsa aslida uning botinida. Boshqacha aytganda, inson aslida har doim o'zini axtaradi. Hayotni harakatga keltiruvchi kuch ana shu o'zlikni izlashda. Bu yangi mavzu emas. O'z vujudingga tafakkur aylagin, Har ne istarsan o'zingdan o'zingdan istagil, degan shoh bayt yoxud "Lison un tayr"ni yodga olsak, shoirning g'oyaviy maqsadi ravshanlashadi. A. Oripov an'anaviy syujetdan chekinib, voqea-hodisalarni o'zi yashayotgan davridan tanlaydi va go'zal badiiy talqin qiladi. SHoirning yozganlarini ko'hna mavzuning yangi talqinlari, deb atash to'g'riroqdir.

Siz naqadar aldoqchisiz, inson hislari,

Miqdoringiz belgilovchi hakam bormikan?!

Siz eltasiz goh kamolot, goh jaholatga. [Oripov A 2013:86] Inson qalbining evrilishlarini tushunish, inson mayllarini jilovlash juda katta kuch talab qiladi. Ana shuni to'g'ri boshqara olgan inson ko'zlagan maqsadiga shubhasiz etadi. Qadim rim shoiri (mil.av 65-8) Kvint Goratsiy Flakk aytgan ediki: "Aqldan mahrum bo'lgan kuch, o'z-o'zidan o'ladi". Juda to'g'ri, achchiq hayot, tarix haqiqati. Ne-ne saltanatlar, sulolalar kuch-qudratim bor deb o'zgalarga zulm-zo'ravonlik qilib, bosqinchilik, talon-taroj, qon to'kishlar qilib, alal oqibat tarix shohsupasidan supurilib, nom-nishonsiz ketdi, mana aql-idroksiz kuchni sarflash.

SHoir uchliklari orasida bir voqeani bayon qilgan, uning mazmuni quyidagicha: YOmg'irli kunda qashshoq bir xonadon shiftidan chakka o'ta boshlabdi. Tomga chiqib, biror chora ko'rish shart. O'g'il o'ylabdi: tomga qanday chiqay, axir, uyda otam o'tiribdilar?! Oqibatda uydagilarning hammasini tom bosibdi. Otang o'tirgan uyning tomiga chiqma, maqolidan shoir juda o'rinli foydalanibgina qolmay, uni o'z g'oyaviy maqsadiga to'laqonli bo'ysundira olgan. SHoirning mahorati oddiy bir detal, voqea-hodisani talqin qila turib, undan umuman kutilmagan xulosa-hukm chiqarishida yaqqol ko'rinadi. YAratgan bizga aql bergan, undan foydalanish imkoniyatini ham. Borliqda Alloh irodasining belgisi – tafakkurga teng kuch yo'q:

Oliy hislar qurshovida kamol topgan chog'

Sig'dirgay u shuuriga butun olamni.

Aksi bo'lsa, sarkardasiz qo'shin kabidir.

Ahli bashar najotkori Tafakkur faqat.

Uy to'rida hurmat ko'rsin otang ham, mayli,

Lekin chakka o'tmasin hech tomingdan, bolam. [Oripov A 2013:87]

YUqorida keltirillan uchliklar shoirning tanlangan asralari 7-jildidan olingan. Unda "Ranglar va ohanglar" sarlavhasi ostida o'n besh turkum keltirilgan: "Ranglar va ohanglar" "Uyg'unlik", "Qismat", "Tafakkur", "Millat", "Hikoyat" "Mufti" "Qadr", "E'tiqod", "Tarix", "YAxshilik", "Haqiqat",

“Vatan”, “Ko’ngil”, “Sinov”. SHoir ijodining mundarijasini eslatuvchi mazkur bitiklar oq she’r shaklida yozilgan. Garchi qofiya bo’lmasa-da, ichki musiqiy ohangni ilg’ash qiyinchilik tug’dirmaydi. Har biri band tuzilishiga ko’ra mustaqil bo’lgan bu uchliklarni o’zaro bog’lab turuvchi butunlik bor.

Olam ma’lum bir tartib, qoida asosida yaratilgan. Unda hech qanday bo’shliq yo’q, makonni nimadir to’ldirib turadi. Suvsiz idishda ham zangor havo bor, qop-qora koinot qa’rida esa vaqt yashaydi, jisimsiz ruhlar kezadi. Olam uyg’unlikdan iborat, har bir ma’voga munosib va xos ashyo bo’lishi kerak. Qorni to’q odamga taom kerak bo’lmagani kabi uxlayotgan odamning kuyga ehtiyoji yo’q. Odam esa o’z xatti-harakatlari bilan ana shu mutanosiblik, uyg’unlikni buzmoqchi bo’ladi. Barcha muammolar: jinoyat, urush, nizo, dushmanlik shundan kelib chiqadi. Lekin :

Buyuk istisno bor dunyoda dunyoda biroq,
Bunyod etib bo’lmas uni qo’l bilan
Muhabbat deyдилar uni, Muhabbat.

CHunki olamning javhari, asosi ham ishq, muhabbatdir. Er va osmonni bog’lab turuvchi ko’zga ko’rinmas rishta ham faqat ishqdir. Ishq insonni nurlantiradi, olg’a yurishga undaydi, tani va ruhiga quvvat beradi. So’fi Olloyorning muhabbatni ko’ngil mulkiga bir oliy sifat, ganji bog’i ma’rifat, deyishlari ham bejiz emas. SHuning uchun ham hazrat Ali (r.a): Aql tahorati ilm bilan, qalb tahorati ishq bilan olinadi, deganlar. Darhaqiqat, qalbi bo’sh-bo’sh odam juda xavfli, chunki u hissiz, xuddi sharpadek, istalgan pastkashlik, tubanlik, yovuzlikka qo’l urishi mumkin. SHoirning o’zi ham “Dunyo degan shundayin anglab bo’lmas sir ekan”, deya o’rtanadi. Ulug’ shoir Abulqosim Firdavsiy esa: “Ko’hna olam udumi shunday: sirlar dengizida suzaveramiz-u, lekin hech qachon qirg’oqni ko’rolmaymiz” deb afsulangandi. Sababi esa ayon: inson qancha ilm-zakovatli, dono, tinib-tinchimas, kuchli bo’lmasin, bu olam sirlarining oxiriga etolmaydi.

Alqissa aytilди: –Insoni Kabir,
U hatto samoga qo’ymishdir qadam.
Lekin oqib turar qonida kibr,
Mehnatin yonida yashar nafsı ham. [Oripov A 2016:28]

SHoir “Koinot gultoji insondir azal, YO falak, ijoding buncha mukammal” , deb hayratlanadi, unga ishonadi, mehr, muhabbat, ixlos qo’yadi, keyin uning nomukammalgini sezib qolib o’ksinadi, ammo uni yolg’iz qoldirmaydi, chin bir darddoshlik, elkadoshlik hissini tuyadi. Ba’zan uning nodon, gumrohligidan talvasaga tushadi, ich bag’ri qonga to’lib “Qarshingda hasratli o’yga tolaman, Qachon xalq bo’lasan ey sen, olomon?!” deb zorlanadi. Hayot so’qmoqlarida

davom etarkan, hamsafarlar, o'zidan oldingilar va orqadagilarning ahvoli, qilmishlarini ko'rib hafsalasi pir bo'ladi:

Hazrat deb insonga o'qidim takbir,
Raso bo'lgin deya kuyladim jo'shib.

Hazratni hasrat deb so'ng qildim tahrir,
Rasoga "v" harfin qo'ydim-ku qo'shib.. [Oripov A 2016:6]

A.Oripov ijodida inson obrazining tadrijini tekshirish shoirning nafaqat badiiy-falsafiy qarashlari, balki qalbida kechgan ijodiy evrilishlar kardiogrammasini aniqlashtirish imkonini beradi.

SHoirning istiqloldan keyingi ijodi mavzu va g'oya jihatdan o'zgarganligi faqat davr, ijtimoy-siyosiy tuzum bilan bog'liq bo'libgina qolmay, uning shaxs, bir inson sifatida qalbida kechgan evolyutsiya ta'siri yaqqol ko'rinadi. O'tli, olovli, hissiyotga to'la she'rlar o'rnini vaqt o'tishi bilan sharq pandnomalariga xos donishmondona o'gitlar egallay boshlagan. Bu davrda yozilgan she'rlar son jihatdan ko'p bo'lsa-da, hajmi siqiq. Islomiy- irfoniy sarchashmalar va shoirning achchiq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan xulosa-hukmlar shayx Sa'diyning didaktik asarlarini yodga soladi. Lekin baribir A.Oripovning o'ziga xos uslubi, ifoda va tasvir yo'sini, mahorati sezilib turadi.

Oyoqsiz bo'lsa-da suv ham yurolgan
Ibrat ol, hech qursa, sen unga qarab.

Keltirilgan parchada detal- suv, shoirning mahorati u ana shu detalga yangi mazmun yuklay olganida.

Farang faylasufi Volter deydiki: "Har qanday ijod namunasi ijodkor to'g'risida guvohlik beradi. Hech narsa meni bu oddiy aksiomadan qaytarolmaydi". Haqiqatdan ham oddiy mantiq bilan qaralsa, har bir yaratilgan narsa, kashfiyotda ijodkorning ichki olami, tafakkur tarzi, fe'l-atvoridan nimadir zarra muhrlangan bo'ladi. Psixoanaliz shu haqiqatga asoslanib badiiy matn yoki san'atning boshqa turlaridagi har bir so'z, detal, harakat, belgi, ishora, ohang ostidan ijodkor shaxsiga oid alomatlarini zarrabin bilan o'rganib topadi.

Ijod – bu sohibining libosi mavzuni, ichi, shaxs va maslagi, o'z davrida oshkora ayolmagan yurak sir, hayqiriqlari.

A.Oripov she'riyati bugun adabiyotimiz uchun adabiy mezon vazifasini o'tashga munosib, chunki u ham o'zining salmog'i, ham badiiy jihatdan yuksak va betakrorligi, xalqona va umumbashariyligi bilan shunga arziydi.

YUqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, A.Oripovning har bir she'rida butun bir hayotiy, insoniy drama, fojialar badiiy yaxlitlikda ifoda etilgan.[Meli S, 2020:75]

SHoirning har bir she'rida poetik umumlashma – sharqona donishmandlik, hikmatnavislik, pandnoma, jaydari falsafa mavjud.

Har bir she’rda lirik qahramonning hissiy va fikriy olami to’liq ochilgan. SHE’rlarda yakka odam taqdiri butun bir olamga mengzalgan, manzara, hissiyot, ramz va metaforik obrazlar nihoyatda uyg’un, ta’sirchan. O’quvchida yangi fikr uyg’otadi.

Hazrat Navoiy aytganlaridek, har bir insonda “ Haq sirri zotida pinhon”ligini A. Oripov she’riyati ko’zgasida ko’rish mumkin. SHoir bitiklarida “guhari sharif”, Allohning erdagi xalifasi bo’lgan Insonning sirli va mukammal qiyofasi borligicha namoyon bo’ladi.

A.Oripov achchiq hayot va inson haqiqatini shunday ifodalagan:

Qismat mayin ichdim– achchiq va taxir,

Tuydim ehtirosning samoviy kuchin.

Dunyoda odamzot yashamas, axir

Faqat irodasin sinamoq uchun”.

Bir qarashda har bir misra tugal, mustaqil, o’z ma’no qatlam va qamroviga ega, lekin shoirning san’atkorligi shundaki, har bir misradagi ma’nolarni bir bandga g’aybiy ilhom va iste’dod bilan uyg’unlashtirgan. SHoir nazdida ham, bizning nazarimizda ham odamzot bu dunyoga faqat irodasini sinash uchungina kelmaydi, u hidoyat yo’liga kirib zalolat bilan tinmay kurasharkan o’zligini anglay boradi. Balki u bir umr komil inson sog’inchi bilan yashar. Bu haqiqatni shoirning orifona falsafalari bizga bot-bot eslatib turadi va fikrimizni charxlaydi, tafakkurimizni olam va odamning asl mohiyatiga yo’naltiradi, so’zning sehri va so’zning hikmati ham shunda-da.

Bir so’z bilan aytganda, A.Oripov she’riyatining jozibasi, abadiyatga daxldorligi insoniyatning abadiy muammolarini faryodiy kuylagani bo’lsa, uning javhari Inson, Taqdir, Zamon va Ilohiy haqiqatlarni bir-biri bilan yuksak darajada bog’laganligi, uyg’unlashtirganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Oripov A. – Tanlangan asarlar. 7- jild. – T., SHarq NMIU, 2013. – 299 b.

2.Oripov A. – Tanlangan asarlar. 8-jild. - T., G’.G’ulom nomidagi NMIU 2016. – 322 b.

3. Meli S. So’zu so’z. – T., Sharq NMAKBT, 2020. – 526 b.

4. G’ani.I, Ofoq.N Abdulla Orif falsafasi. –T., Muharrir, 2021, – 304 b.

АБДУЛЛА ОРИПОВНИНГ “СОҶИБҚИРОН” ДРАМАСИДА АМИР ТЕМУР ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ

*Қувватова Дилрабо Хабибовна
Филология фанлари доктори, профессор.*

Бухоро давлат университети

dilrabo68@mail.ru

Аннотация: Амир Темур – дунёни ларзага солган бекиёс ҳукмдор. Шу маънода улуғ саркарда ҳақида яратилган асарлар кўхна тарихимиз саҳифаларини ёритиб беради. Ўзбекистон Қаҳрамони, халқ шоири Абдулла Ориповнинг “Соҳибқирон” драмаси айна шу мақсадга хизмат қилади. Мақолада мазкур асар таҳлили орқали шоирнинг Амир Темур образини яратишдаги бадиий маҳорати очиб берилган.

Калит сўзлар: Амир Темур, Султон Боязид, шеърий драма, монолог, диалог, тарихий ҳақиқат, фожиавийлик.

Annotation: Amir Temur is a unique ruler who won universal respect. So the works created about the great leader enlighten the pages of our ancient history. The Hero of Uzbekistan, people's poet Abdulla Oripov's drama "Sokhibkiron" ("The Lucky Man") is created rightly for this aim. This article deals with the analysis of this work which reveals the poet's skill on creating Amir Temur's character.

Key words: Amir Temur, Sulton Boyazid, poetical drama, monologue, dialogue, historical truth, tragedy.

Маълумки, ўзбек адабиётида Амир Темур ҳақида яратилган дастлабки драма Фитрат қаламига мансуб “Темур сағанаси” бўлиб, ушбу асар бизгача етиб келмаган. Шунга қарамай, уни драматургиямизга биринчилардан бўлиб Амир Темур образини олиб кирганлигини таъкидлаш керак. Адабиётимизнинг кейинги босқичларида мазкур аънанани бир қатор ижодкорларимиз давом эттирдилар. Амир Темур ва темурий шахзодалар ҳақида яратилган пьесалар миқдори йигирмадан ортиқ бўлиб, шулардан эътиборга моликлари Абдулла Ориповнинг “Соҳибқирон”, Одил Ёқубовнинг “Авлодларга васият”, Хуршид Давроннинг “Бобуршоҳ” (“Соғинч”), Маъруф Жалилнинг “Соҳибқирон” (“Амир Темур қиссаси”), Қилич Абдунабиевнинг “Амир Темур ва Йилдириш Боязид”, Тўра Мирзонинг “Амир Темур”, Урфон Отажоннинг “Ҳумоюн қабул”, Шавкат Пардаевнинг “Жаҳонгир”, Туроб Акбархўжаевнинг “Замон ўғлони”, Салоҳиддин Сироҷиддиновнинг “Соҳибқирон Темур”, Асрор Самаднинг “Соҳибқирон Темур”, Насрулло Қосимовнинг “Амир Музаффар фожиаси” сингари турли жанр ва савиядаги тарихий асарлардир.

Собиқ тузум даврида яратилган бир неча асарларда Амир Темур шахси кескин қораланганлигини, тарихий ҳақиқат бузиб кўрсатилганлигини кузатиш мумкин. Бинобарин, мустақиллик йилларида Амир Темур шахсига бағишлаб жуда кўп асар яратилишига сабаб – унинг тарихий хизматларини холисона баҳолаш билан боғлиқ. Халқ шоири, Ўзбекистон Қаҳрамони Абдулла Ориповнинг 1995 йилда ёзган “Соҳибқирон” шеърий драмаси шу йўлдаги катта қадамдир. Абдулла Орипов асарлари чуқур ҳаётийлиги, фалсафий теранлиги, шоирона фикр-мушоҳадаларга бойлиги билан

ибратлидир. Бошқа драмалардан фарқли равишда, “Соҳибқирон”да Амир Темурнинг реалистик образи яратилиб, унинг мамлакат ва халқ тарихида тутган ўрни ёрқин акс эттирилган. Унда асосий эътибор жангу жадалларга қаратилган эмас, балки диалог ва монологлар орқали Амир Темурнинг Ҳазрати инсон ҳақидаги чуқур мушоҳадалари, фикрлари, ўй-хаёллари, давлат бошқаруви, инсоний фазилатлари акс эттирилган. Меҳр-оқибати ҳам, ғазаби ҳам улкан бўлган бу тарихий сиймо ҳар қандай шароитда ҳам меҳнатсевар, ҳалол инсонларни қадрлай олган. Асардаги бир лавҳа буни тасдиқлаб туради: Султон Боязид билан бўлган жангда султоннинг қўлга тушганлиги хушxabарини олиб келган содиқ ясовули Қосимга ўз набирасини никоҳлаб беришини айтиб, мукофотлайди. Асардаги эпизодлар орқали мулоҳазаларимизни асослашга ҳаракат қиламиз.

Темур:

Бизнинг учун ғоят қутлуғ мужда келтирдинг,
Ўғлим, сени сийлагайман бу мужда учун,
Иншооллоҳ, Самарқандга қайтиб борган чоғ
Никоҳингга беражакман бир набирамни [Орипов, 2001: 248].

Соҳибқирон юртни сотган, хоин инсонларга шафқатсиз муносабатда бўлган. Унинг умри, асосан, жангу жадалларда ўтган. Улуғ саркарда ўзи истамаса-да, бу урушларда минглаб бегуноҳ одамларнинг қони тўкилишига сабабчи бўлган. Зеро, Соҳибқирон яшаган даврда тарихий шароит шуни тақозо этганлиги рост. Бу ўша даврнинг барча ҳукмдорлари қатори Амир Темурга ҳам хос эди. Соҳибқирон вазири Муҳаммад Қовчиннинг:

Балки Боязид
Тавба қилиб ўтиргандир, журъати сўниб.
Кўз олдига келар балки, минглаб калладан,
Ясалажак миноралар, селдек оққан қон...[Орипов, 2001: 406].

деб айтгани учун ғазабланади ва уни “иродасиз арбоб”, “бу қарвонда адашган туя” деб атади. Шу тарзда Муҳаммад Қовчинни лавозимидан туширади ва уни отбоқарликка, жанггоҳларда узилган қаллаларни териб юришга буюради. Шу тарихий жараёнлар тасвирига А.Орипов ҳолисона ёндашади ва буни Амир Темур ўз сўзлари орқали ифода этади:

Темур:

Мен ҳазрат эмас,
Мен ҳам Темур деб аталмиш оддий бир банда...
Боз устига фотиҳ дея ном олган Зотман
Одам қавми ўз қисматин саҳроларида
Ташналиқдан лаби қақраб тентираган чоғ,
Қултум сувдек керак бўлдим шекилли унга.

Чексиз чўлда Инсоният карвони тарқаб
Бир-бирларин тепиб,
Суриб ғужғон бўлган пайт.
Мен уларни ипга тиздим бир сарбон бўлиб.

Кўҳна тарих олдидаги хизматим шулдир [Орипов, 2001: 407].

Юқоридаги мисраларда Соҳибқироннинг миллат ва Ватан равнақи йўлидаги фидойилиги, унинг умумбашар олдидаги хизмати ва қатор инсоний фазилатлари очиб берилган. Ушбу сахна тасвирлари орқали китобхон кўз ўнгида халқимизнинг шонли тарихи жонлантирилган.

Драма Амир Темур ҳаёти ва фаолиятининг деярли барча томонларини камраб олганлиги билан ажралиб туради. Тасвирга олиб кирилган воқеалар ва образлар кўлами ниҳоятда ранг-баранг бўлишига қарамасдан, уларнинг барчаси Соҳибқирон характеридаги фазилатларни очиб беришга йўналтирилган. Хусусан, сартарош билан бўлган суҳбати, вазиру аъёнларига муносабати, Сирдарё бўйларидаги мўғулларга қарши олиб борган кураши, Бибихоним, Мир Саййид Барака, Кайхусрав, Шайхулислом, Амир Хусайн, Анқара жангида қўлга олинган Боязид, Ҳофиз Шерозий, Ўрусия, Испания, Хитой элчилари билан бўлган муносабатларда инсонийлик ва саркардалик хусусиятлари ёрқин намоён бўлади.

Бинобарин, шоир Темур шахсини очиб беришда бадий тўқимадан ҳам самарали фойдаланган. Драмадаги сартарошнинг Амир Темурнинг соч-соқолини олиш сахнасидаги суҳбатдан унинг ҳам оддий бир инсон эканлиги, ҳамиша бир дилдош, сирдошга муҳтож бўлганлигини англаш қийин эмас. Шу жиҳатдан у сартарошга дилидаги гапларни айтишга чоғланади:

Ҳар қадамда билинтирмай оғу сочгувчи
Мансабпараст, ғаюр, баттол, ўғри, фирибгар,
Хушомадгўй кимсаларни маҳрам санайми?
Ё уларга ялтоқланиб,
Табассум айлаб,
Кўнгулларин овлаш учун муқом қилайми?
Мен уларнинг юрагида не кечишини
Ойнага боққан каби кўриб тураман.
Одамларнинг баднафс,
Юҳо оғизларига
Тизгин солиб,
Қамчин билан титратмоқ даркор [Орипов, 2001:381].

Амир Темур атрофидаги “мансабпараст, ғаюр, баттол, ўғри, фирибгар” инсонлар борлигидан афсус чекади. Уларга қарши “тизгин солиб”, “қамчин билан” курашиши кераклигини айтади. Бундан улуғ саркарданинг “Куч

адолатдадир” деган ҳаётӣй шиори асл маърифӣй манбаларини аниқлаш мумкин бўлади.

Асарнинг яна бир муҳим хусусияти шундаки, унда Амир Темур жангу жадаллар ичида тасвирланмайди, уруш сахналари деярли учрамайди. Фақатгина шоир унинг султон Боязид билан бўлган жанги ҳақидаги қисқача тафсилотини бериш билан чекланади ҳамда асарнинг охириги қисмида Хитойга юриш тараддудлари ҳақида гап боради, холос. Шоирни, асосан, Амир Темурнинг орзу-ўйлари, фикр ва кечинмалари, фалсафӣй мушоҳадалари банд этади.

Драмада Соҳибқироннинг бунёдкорлик, яратувчанлик фаолияти, инсоний фазилатлари, мамлакат ва халқ олдидаги буюк хизматлари, моҳир саркарда, адолатли ҳукмдор, инсоний қадриятларни улуғловчи давлат раҳбари, шу билан бирга меҳрибон ота сифатидаги қиёфаси кўз ўнгимизда намоён бўлади. Унинг она юртига бўлган меҳри бекиёс, Турон кўрки, Туркистон келажаги улкан сиймога куч бағишлаб туради. У ҳар бир ватанпарвар инсон сингари ўз ватани, она тупроғидан мадад олади ва шу юрт фарзанди эканлигидан ғурурланади:

Мен мусулмон амириман!
Насабим туркий!
Адолат ва дини Ислому посбонидирман...
Биз ким, мулки Турон,
Амири Туркистонмиз.
Бизким миллатларнинг
Энг қадими ва энг улуғи
Туркнинг бош бўғинимиз! [422]

Бу сўзлар нафақат Соҳибқирон Амир Темурнинг қалбидан отилган туйғулар, балки у мансуб миллатнинг ҳаётдаги шиори бўлиб янграйди. Улуғ саркарданинг туркий насаб эканлигидан фахрланиш туйғуси, адолат ва ҳақ йўлидаги эзгу интилишлари туркий халқларни янада яқдил ва ҳамфикр бўлишга чорлайди. Драмада от суриб, қилич тортиб, қарийб дунёнинг ярмини забт этган ва улуғ салтанатни тиклаган жаҳонгирнинг ўйга толган, яшаш мазмунини чуқур англаганлиги фалсафӣй сатрларда китобхонга етказилган. Буни Соҳибқироннинг Аҳмад Яссавий билан тушда хаёлан суҳбат қуриш воқеалари асослаб туради. Амир Темур Аҳмад Яссавийга юксак эҳтиром билан қараган. Тарихдан маълумки, Хожа Аҳмад Яссавий ҳаётлигида ва вафотидан кейин ҳам кўплаб ҳукмдорлар ҳурматига сазовор бўлган. Соҳибқироннинг Аҳмад Яссавий шахси ва тариқатига қизиқиши эса Туркистонда унга атаб мақбара қурдиришидан анча олдин пайдо бўлган.

Алишер Навоий “Насойим ул-муҳаббат” асарида келтиришича, Амир Темур Туркистон машойихи ва Аҳмад Яссавийнинг Исмоил отанинг яқин авлоди бўлмиш Хўжа Боязиднинг суҳбатига келади ва ундан содир бўлган бир кароматнинг гувоҳи бўлгач, унга мурид бўлади. Шайхга хонақоҳ қуриб бериб, кўплаб назру ниёзлар қилади [Навоий, 2001: 421] .

Амир Темурнинг Аҳмад Яссавий ва унинг издошларига ҳам ҳурмати баланд бўлган, уларнинг мазорлари устига мақбаралар бино қилган. Бу ҳақда адабиётшунос Нодирхон Ҳасан “Аҳмад Яссавий ва Амир Темур” номли мақоласида бу ҳақда батафсил маълумот беради [Ҳасан, 2008: 17].

Демак, Амир Темурнинг улуғ мутасаввуфга ихлос қўйиши бежиз эмас. У ўзининг “Темур тузуклари”да давлат асосини ташкил этувчи ўн икки ижтимоий тоифа ичида фозил, донишманд, художўй кишилар ва сўфийларни алоҳида ҳурмат билан тилга олади. Авлиёлар ва дин пешволарининг мазорларини тузатиш ҳақида гапириб, саййидлар, уламо, машойих ва фузалоларни азиз тутиш, уларнинг зиёратгоҳларини қуриш ва таъмирлаш учун вақфдан маблағ ажратишни тайинлайди. Драмадаги энг таъсирчан воқелик тасвири айнан шу билан боғлиқ. Яъни Соҳибқирон Хизрга дуч келганида, ундан Аҳмад Яссавий билан учраштиришини сўрайди. Тарихнинг гувоҳлик беришича, Амир Темур вафотидан олдин икки дунё сарвари Аҳмад Яссавий қабрига келиб тиловат қилади, хаёлан у билан учрашиб ажр сўрайди. Бу суҳбат Амир Темур ақл-заковатининг юксаклигини, ўз фаолиятида ҳар доим Исломнинг ахлоқий мезонларига таяниб иш кўрганлигини тасдиқлаб туради:

Темур:

Тинсиз жангу жадал билан ўтди ҳаётим
Балки қанча умрларга зомин бўлганман.
Охиратда этагимдан тутмасми улар?

Яссавий:

Оллоҳимнинг хоҳишига мувофиқ келса
Икки дунё савоб эрур ҳар қандайин иш.
Айт-чи Темур, сен бесабаб қон тўкканмисан?

Темур:

Адолат ва дини Ислом ҳимояси деб,
Ер юзини фатҳ айладим, тартиб ўрнатдим [Орипов,
2001:470]

Яссавий руҳи билан қилган ушбу зиддиятли суҳбатда Амир Темурнинг яна бир фазилати намоён бўлади. Унинг қўлига қурол олишдан мақсади адолат ўрнатишга қаратилган. Улуғ мутасаввуф Амир Темурга “бесабаб қон тўкканмисан” дея сўроққа тутар экан, у “адолат ва дини Ислом ҳимояси”

учун курашганини айтади. Зеро, бу йўлда қон тўкилиши табиий эди. Абдулла Орипов шу жиҳатдан ҳам улуғ саркарданинг ўзини доим назорат қилиб турганлигини, ўз қарашлари, эътиқодига содиқлигини кўрсатиб беради:

Темур:

Мен онамдан шамшир билан туғилмагандим
Кеш шаҳрининг сарҳадида,
Воҳа бағрида
Хўжа Илғор деган жой бор.
Кўкка боқиб,
Адирларда юрардим шодон,
Баҳор чоғи сел тошқини, турфа чечаклар
Хўп ғаройиб туйғуларни тухфа этарди
Юлдузларга боқиб гоҳо байтлар битардим.
Шоир аҳли ғазалларин қоғозга ёзса,
Мен шеъримни ўчмас қилиб қоғозга ёздим.
Бу битикнинг мазмуни шул
“Куч – адолатда!”

Ёш бошимдан қисмат менга қилич тутқазди [Орипов, 2001: 382].

Бу монологни улуғ саркарданинг биографияси сифатида қабул қилиш мумкин. Маълумки, таниқли ёзувчи Муҳаммад Али “Улуғ салтанат” романида тарихий давр манзараларини тасвирлашда, тарихий шахслар образларини яратишда жараёнида Амир Темур қадамжоларини бориб кўрган, тарихий сиймо билан боғлиқ ёдгорликлар сақланаётган музейларда бўлган. Хусусан, ёзувчининг Амир Темур кўлига тақиб юрадиган сирли “Рости русти” узугини кўриш учун Американинг Нью-Йорк шаҳридаги “Метрополитен” музейининг “Ислом бўлими”га борганлиги маълум. А.Орипов ҳам “Шоир аҳли ғазалларин қоғозга ёзса, Мен шеъримни ўчмас қилиб қоғозга ёздим” сатрларида шу тарихий воқеликка ишора қилган.

Не бахтким, тукқан юрт бўлганда озод,
Муборак Ватанга қайтиб келмишсиз,
Қулоқ тутгайми, деб ноаҳил авлод,

Ташаккур, бизларни кўзга илмишсиз [Орипов, 2001:380]

Асарнинг ютуғи шундаки, китобхон кўз ўнгида Амир Темур халқ ва мамлакат бирлиги учун курашган, адолатни бош шиор билиб, ўз юртида улкан бунёдкорлик ишларини амалга оширган буюк давлат арбоби сифатида намоён бўлади. Зеро, Абдулла Орипов: “Соҳибқирон” шеърини драмасини ўтмишга боқиб, бугун учун ёзганман”, – дейди. Асар сўнгида Соҳибқироннинг набиралари Мирзо Улуғбек ва Пирмуҳаммадни ёнига

чақириб, насихат қилади, Бибихонимга бўлган юксак ишончини изҳор этади. Хулоса ўрнида айтиш керакки, драмада тарихий воқелик кўламининг кенглиги, тасвирнинг қуюқлиги улуғ шоирнинг бир қатор тарихий манбаларга, жумладан, Амир Темурнинг “Темур тузуклари”, Ибн Арабшоҳнинг “Амир Темур тарихи”, Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” сингари тарихий-бадий манбаларга таяниб, бадий манзаралар яратганлигини асослаб туради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Насойим-ул муҳаббат. Мукамал асарлар тўплами. XVII жилд. –Тошкент, 2001. –Б. 421.
2. Орипов А. Танланган асарлар IV жилдлик. II жилд. Шеърлар ва дostonлар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
3. Ҳасан Н. Аҳмад Яссавий ва Амир Темур// Ўзбек тили ва адабиёти, 2008, №. 4. –Б.17.
4. Темур тузуклари. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.

ЛИРИКАДА ИЖТИМОЙ ДАРДНИНГ ПЕРСОНИФИКАЦИЯЛАШУВИ

HUMANIZATION OF SOCIAL GRIEVANCE IN POETRY

Ҳамдамов Улугбек Абдуваҳобович,

филология фанлари доктори, доцент.

Ўз ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти

ulugbek1968.68@mail.ru

Аннотация: Мақолада ўзбек шеърятининг 60-йилларга келиб азалий ўзанларга қайтиши, инсоний туйғуларнинг тараннум этилиши шоир Абдулла Орипов шеърлари мисолида очиб берилади. Шоир поэзияси схематизм ва волюнтаризмдан ҳоли бўлиб, унда ижтимоий дард персонификация ҳодисасига айланиши ҳақида сўз юритилади.

Annotation : The article investigates on the reform of Uzbek poetry in 1960 as well as reflecting human feelings by providing examples from Abdulla Oripov's creative works.

Калит сўзлар: санъатнинг инсонийлашуви, ижтимоий дард, ижтимоий шеърият, персонификация ҳодисаси, рамз, асл инсоний туйғулар тараннуми.

Key words: Promoting art for human welfare, social grievance, social poetry, humanization, symbol, expression of pure human feelings.

Ўзбек шеъриятида 60-йиллардан кейин алоҳида бир давр бошланди. Бу дегани шуки, у аввалги мадҳиябозлигу мафкурабозликдан, расмиятчилигу буйруқбозликдан, риторикадан, насиҳатбозлигу қуруқликдан, волюнтаризм (объектив реалликни, ҳаёт қонуниятларини менсимай мақсадга эришишга бўлган уриниш) дан, тантанадан, ўринсиз ғурурдан халос бўла бошлади. Шоир “совет халқи” деб номланган кўпчилик орасидан ўз “мен”ини қидириб топди ва унга бир инсонга қарагандай қарай олди. Шундай қилиб, бир неча ўн йиллардан бери асосий эътибори ҳукмрон мафкурага қаратилган ўзбек шеърияти 60- ва 70-йиллар авлоди сиймосида яна абадий ўзанларга қайта бошлади, инсонни, унинг манфаатларини, Ватанни, унинг дардларини тараннум этмоққа тутинди, “инсонийлашди”.

Бу шеърият яна инсонпарвар ва ҳақиқатпарвар бўлиб майдонга тушди. 60-йиллар авлоди шеъриятининг бош хусусияти ана шундай эди. Улар орасида Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Омон Матжон ва Рауф Парфилар шеърияти ажралиб туради.

Абдулла Орипов 60-йиллар шеъриятимизда дабдаба ва мадҳиябозлик расм бўлган, шоир ҳам, ўқувчи ҳам шунга кўниккан бир пайтда “қўққисдан йиғлаб юборган” ижодкор. XX аср ўзбек шеъриятига биринчилардан бўлиб энг ёқимли, энг хуш мунгни олиб кирган шоирдир у. Шунинг учун ҳам ўша вақтдаги расмий доиралар ва ҳатто адабий танқидчилигу жамоатчилик бир қадар тараддудланиб қолганига қарамай, бу шеърият кўпчилик томонидан қабул қилинган, ҳатто севиб қолинган эди:

Қайтгим келди, онам, ёнингга,
Юрагимда исмсиз дардлар.
Совуқ хонам, соат чиқ-чиқи,
Ташқарида хазонрез боғлар,
Ёмғирнинг жим хониш қилиши...
Бариси ҳам нечундир бу дам
Туширмоқда сени ёдимга... [ЙА,49]

Шеър 1963 йилда ёзилган. Яқин ўтмишимиздан яхши биламизки, бу вақтда собиқ Иттифоқ бўйлаб социализм қурилиши авжида, оддий одамдан раҳбарларгача, етти ёшдан етмиш ёшгача ушбу улкан қурилишга маънан ва жисман сафарбар этилган, инсон қайси соҳада ишламасин, кайфият-ҳоли нуқтаи назаридан ўша азим ишларга монанд руҳда бўлмоғи талаб қилинган вазият эди. Шеърятда улкан шоир Ғ.Ғуломнинг ўктам, улуғвор, ғурур ва ифтихорга тўла, айни пайтда сиёсий-мафкуравий ҳозиржавоб “календарь” шеърлари баралла янграётган, ўқувчи ҳам шунга кўникканди. Бироқ бирдан атрофни мунгли бир нола тутади-да юрагидаги исмсиз дардлардан, онасини қаттиқ соғинганидан, унинг ёнига қайтгиси келганидан, чунки табиат ҳар доим ҳам киши бошини она бўлиб силамаслигидан тўлиб-тошиб ёзади. Ҳа, Абдулла Орипов 60-йилларда мафкуравий тарғиб-ташвиқот остида қайсидир даражада “темир одам”га, “робот”га айланиб бораётган замондошига унинг ўз, аслий туйғуларини ёдига солган шоирлардан биридир. Бироқ айни пайтда ва энг аввало, асосан, Абдулла Ориповнинг ўрни улкан ижтимоий шеърят билан белгиланади. Ҳамма гап шундаки, кўпнинг дарди – ижтимоий дард “мен”нинг дардига, шоир дардига айлангани учун ҳам Абдулла Ориповнинг ижтимоий шеърятини бир вақтнинг ўзида кўнгил лирикасидек қабул қилинади.

Парво қилма, дўстим, эзилма сира,
Ғамгин кўшиқларни куйласа шоир.
Мисралари гарчанд маъюс ва хира,
Лекин барчаси ҳам қалбига доир.
Буюк замонанинг оташин зарби
Унинг қаламига ёт эмас асло.
Агар керак бўлса, Шарқни ва Ғарбни
Ёлғиз бир шеърига эта олар жо. [ЙА,181]

Дарҳақиқат, Абдулла Орипов шеърятини даврнинг, замонанинг оташин зарби – қайноқ нафаси уфуриб турадики, назаримизда, бадий асарнинг кенг муваффақият қозониши шартларидан бири айнан шу ерда мужассам. Лекин давр нафаси шеърятда Абдулла Ориповгача, Эркин Воҳидовгача, Рауф Парфигача йўқ эдими? Нега энди 60-йилларга келган ёш авлод поэзияси ўқувчилар қалбини бунчалар ром этди? Ахир Ойбеку Ғафур Ғулом, Шайхзодаю Миртемир, Асқад Мухтору Шухрат, Зулфияю Саида Зунунова каби бошқа ўнлаб забардаст шоирлар ижодида ҳам замона нафаси баралла сезилиб турар эди-ку! Гап шундаки, 60-йилларга келиб нафақат ўзбек, балки ўша вақтдаги умумиттифоқ поэзиясида ҳам улкан эврилишлар юз берди.

В.Вознесенский, Н.Рубцов, Р.Рождественский, Қ.Қулиев, Р.Ҳамзатов, Ў.Сулаймонов каби етук шоирлар ижоди шундан дарак беради. Ўзгариш ва эврилишларнинг туб сабаби, табиийки, И.Сталин вафотидан кейин мамлакат ижтимоий ҳаётида юзага келган “илиқлик” билан изоҳланади.

Хуллас, ижодкор теграсидаги олам, ундаги ҳаёт, одамлар, муносабатлар ўзгаришига юз тутаётган эди. Бунинг натижасида шоир ўз асри билан, замондоши билан юзма-юз, бақамти келди ва самимий куйлай бошлади. Унинг шеърлари она заминга, одамга, унинг муаммоларига яқинлашиб келди. Е.Евтушенко бир шеърида “Келди ўзга замонлар, Кўринди ўзга номлар”⁵ деб ёзади ўзгариб бораётган замондошларини кузатар экан. Бошқа бирн шеърида “Қўлланган услублар сийқадир энди, Билмай қолдим нима қиларимни ҳам”⁶ деб айтадики, “ўзга замонлар” келганлиги услубларнинг янгиланишига эҳтиёж туғдирган, замин яратгандек таассурот қолдиради. Ёки А.Вознесенский ёзади:

Тинглар сангдил аср ҳам...
Юракдан теран жўшиб,
Ўзга фикрли одам
Куйлар ажиб бир кўшиқ⁷.

Кўринадики, 60-йилларда ёзилган бу шеърларда шоир инсоннинг ўзгариб бораётгани, бунга сабаб – унинг фикрлари, қарашлари бошқа мазмун, характер касб этаётганидан сўз очаяпти. Шундай мазмунга яраша ўзга услуб ҳам кидирилмоқда. Тахминан мана шундай кайфият 60-йиллардаги ўзбек шеъриятида ҳам ҳукм сурди. Натижада Э.Воҳидов, А.Орипов, О.Матжон каби шоирларимизнинг янги мазмунни янгича оҳанглар, ифодалар билан тараннум этган шеърлари майдонга келди. Албатта, бу ўриндаги “янги мазмун”, “янги оҳанг”, “янги ифода” каби иборалар ғоят баҳсталаб. Чунки шеъриятдаги чинакам янги мазмун ва шунга муносиб янги шакл ХХ аср аввалида пайдо бўлган эди. Шунга қарамасдан, 40 – 60- йиллар оралиғида ўзбек поэзиясида ҳукм сурган умумий баландпарвозлик ва схематизм қаршисида 60-йиллар шеърияти шартли маънода назмимизнинг қайтадан жонланиши, янгиланиши эди. Профессор О.Шарафиддинов: “А.Орипов янги ўзбек шеъриятини яратгани йўқ. У шеър тузилишини ислоҳ қилмади, аксинча, унинг ҳамма шеърлари традицион воқеалар асосида туғилган. У поэтик тафаккурнинг янги қонуниятларини кашф этгани йўқ”...⁸ деб ёзса ҳам,

⁵ Ложувард осмон.Тўплам. М.Мирзо таржимаси.- Т., 2008.- Б. 65.

⁶ Ўша асар. - Б. 61

⁷ Ўша асар. - Б. 101.

⁸ Озод. Шарафиддинов. Ҳаёт билан ҳамнафас.Т., Ёш гвардия. 1983.Б156.

барибир, А.Орипов мансуб 60-йиллар авлодининг ўзбек шеърияти бадиий тафаккур тараққиёти силсиласидаги улкан вазифасини беҳато илғайди: “Чинакам шоир доим адабиётга шеъриятнинг янгича талқинини олиб келади ва бунда замоннинг эстетик эҳтиёжлари ифодаланади. Шундай вазифаларни янгича тушуниш, шоирнинг жамият ҳаётидаги ўрнини янгича талқин қилиш А.Орипов учун ҳам характерли”⁹.

60-йиллар аввалида А.Орипов кўпроқ инсон қисмати, муҳаббат, армон, умрнинг шошилинич оқиши, табиат каби мавзуларда қалам тебратади, кўнгил манзараларини чизди. Унинг ижодига чинакам ижтимоий ноталар Ватан мавзуси билан бирга кириб келди ва бу мавзу шоир поэзиясининг лейтмотивига айланди. Хусусан, 1964 йилда ёзилган “Мен нечун севаман Ўзбекистонни” шеърини олиб кўрайлик. Сарлавҳага чиқарилган савол шунчаки риторика эмас, балки ўз Ватанига бўлган муҳаббатини тушуниш мақсадида қўйилган мулоҳазакор саволдир. Савол шу тарзда қўйилганиёқ муаммо шоир учун ижтимоий-шахсий долзарблик касб этгани, мавжуд қарашлар уни қониқтирмаганидан бу борада ўз ғоявий-эстетик мавқеини белгилаш эҳтиёжи туғилганини кўрсатади. Шу эҳтиёж шоирнинг лирик-фалсафий мушоҳадаларига туртки беради:

Аслида, дунёда танҳо нима бор,
Пахта ўсмайдими ўзга элда ё?
Ахир қуёшли-ку бутун Осиё. [ЙА,57]

Демак, Ўзбекистоннинг серқуёшлиги ёки унда пахта ўсиши шоир севгисига етарлича сабаб эмас ва айна ҳол мавзу талқинида уни салафлардан фарқлайди. Шоир изланишда – Ватан муҳаббатига омил бўлган бош сабабни қидиришда давом этади. Ниҳоят, топади ҳам:

Хўш, нечун севаман Ўзбекистонни,
Сабабини айтгин десалар менга,
Шоирона, гўзал сўзлардан олдин
Мен таъзим қиламан она халқимга. [ЙА,57]

Шоир йўл юради, йўл юрса ҳам мўл юради, охир ўзи кўзлаган – қалбига таскин бағишлайдиган манзилга етиб келади. Лекин бу йўл шунчаки йўл эмас, балки рамзийдир. Унинг маъноси – ёш шоир тафаккур йўлини, англаш йўлини босиб ўтади. Ватанни тушуниш сари улоққан йўл уни халқининг қошига олиб келади.

⁹ Ўша жойда.

Халқим, тарих ҳукми сени агарда
Мангу музликларга элтган бўлсайди,
Қорликларни макон этган бўлсайдинг
Меҳрим бермасмидим ўша музларга? [ЙА,57]

Демак, шоир учун Ватаннинг қаерда жойлашганлиги, боши устидаги куёш нурининг оз-кўплиги аҳамиятсиз. У ҳатто “Мангу музликлар”да бўлса ҳам – барибир, шоир Ватанни севишда давом этаверади. Чунки бунга биринчи ва асосий сабаб – халқи! Халқни ўйлай бошлаган шоирнинг эса унинг ўтмиши, бугуни ва келажаги тўғрисида мулоҳаза юритмаслиги мумкин эмас. Бундай йўлни – фикр йўлини, мулоҳаза йўлини босиб ўтган шоирнинг каламидан чиққан лирика, табиийки, ижтимоий мазмунга тўйинган ҳисобланади.

Ватанга бу тарз қиммат берилиши табиий равишда унинг ўтмишига назар солишга, тарихни қайта идрок этишга ундайди. Бу эса 60-йилларда шеърятимизда Ватан мавзусидаги энг гўзал шеърлардан иккитаси дунёга келишига замин бўлди. Мен А.Ориповнинг “Ўзбекистон” шеъри ҳамда Э.Воҳидовнинг “Ўзбегим” қасидасини назарда тутмоқдаман. Салафлардан фарқ этиб, бу шеърларда иккала шоир ҳам юрти тарихига холис назар солишга интилади: агар 20-йиллар авлоди ўтмишда фақат қора саҳифаларни кўрган бўлса, бу авлод унинг шонли саҳифаларини ҳам варақлай бошлади. Ва бириси “Олис тарих қадамим маним, Ўзбекистон, Ватаним маним” [ЙА,222] дея, иккинчиси “Сенга тенгдош Помиру оқсоч Тиёншон, ўзбегим” [II,334] дея фахр ҳиссини туйди. Шонли саҳифаларни варақлаш асносида буюк аждодлар – ўзбек тарихида ёрқин из қолдирган сиймолар амалга оширган улуғ ва хайрли ишлари қаторида ёдга олинади. Бу дегани ўша номлар ва уларга ёндош тарихий воқеалар шоирлар тафаккурида бир ерга жам этилиб, замондош инсон онгида қайта таҳлилдан ўтказилди. Агар Ватанга муҳаббат ўзи мансуб халққа муҳаббатдан келиб чиқишининг англаниши илк қадам бўлса, бу шеърларда Ватан муҳаббатига сабаб бўлган ҳадаф конкретлашади. Негаки, энди илдизларга назар солинмоқда: иккала шоир ҳам ўзини буюк аждодларга ворис деб билади, бундан фахр туяди. Бу шеърларда иккала шоир ҳам оламий миқёсда фикрлайди десак, хато бўлмайди. Чунки уларнинг ўтмишни идрок элагидан ўтказиши Ватани, халқининг дунёда тутган ўрнини, бошқача айтсак, миллий ўзликни англаш йўлидаги эҳтиёткорлик билан кўйилган илк қадамлардир.

Эҳтиёткорлик деганим бежиз эмас, закон шуни тақозо этарди. Хусусан, шеърларидаги шу хил янгича кайфият туфайли А.Ориповнинг хушёр

мафкурачилар томонидан нишонга олингани ҳам шуни кўрсатади. Иккинчи томондан, ўз даври учун олға кетиш санаётганимиз бу шеърлар ҳам мафкура тазйиқидан ҳоли эмас эди. Жумладан, шонли ўтмиш билан ҳар қанча фахрланмасин, А.Орипов юрти хомталаш бўлмай туриб “бош устига инқилоб келгани”, “Ленин беғараз қўл чўзгани” ва “қилич серпаб толе тонгида” ўзлигини таниб қолганини [ЙА,224] айтса, Э.Воҳидов “бўлди осмонинг чароғон толе хуршиди билан” [I,336] дейди. Ҳар икки ҳолда ҳам инқилобнинг Ватан тақдирида буюк бурилиш эканлиги таъкидланади. Шунингдек, А.Орипов “улуғ совет оиласида мангу ёруғ пешонанг сенинг” [ЙА,226] деса, Э.Воҳидов “Ватанни бир боғ”у Ўзбекистонни “унда бир гул” [I,336] дейди. Лекин барибир бу шеърлар ботинида “Мен буюк бир юрт ўғлидурман, Мен башар фарзандиман, Лекин аввал сенга бўлсам содик ўғлон, ўзбегим” [I,337] тарзидаги орзу-истак устунлик қилади.

Хоҳ шоир, хоҳ тарихчи, хоҳ файласуф бўлсин, тарихни шу тарзда кўз олдига келтириб, унда юз берган жаҳоншумул воқеалар туб моҳиятини англашга тиришар экан, тадқиқотчи ўзи ўрганаётган объектнинг ижтимоий моҳияти билан юзма-юз келаверади. Худди шундай, А.Орипов ҳам, Э.Воҳидов ҳам Ватан мавзусидаги шеърларини ёзар экан, ҳеч шубҳасиз, ижтимоийётга рўбарў келишган. Ҳа, 60-йиллардаги эркинлик эпкинлари иждокор ботинидаги туйғуларни кўзгатиб юборганди. Образли қилиб айтганда, эркинлик шабадаси Алоуддин каби кўзани силаб ўтган ва оқибат унинг ичида ухлаб ётган дев уйғониб қолганди. Шунинг учун ҳам ўша давр поэзиясида ифода этилган ҳис-туйғую фикрлар, тарихимизнинг олдинги босқичига нисбатан олинса, чиндан ҳам мўъжиза. Масалан, рус шеъриятидан биргина В.Высоцкийни олайлик. У ҳеч қандай келишувчиликка бормайди, даврни, жамиятни, тузумни, ундаги кайфиятни аёвсиз танқид қилади:

Нечун мен жамият қалби бўлайин,
Қачонки, унда қалбнинг ўзи бўлмаса¹⁰

Шоир ўзи яшаётган жамиятни қалбсизликда айблайдики, бу ўз даври учун жуда кучли танқид эди.

Албатта, ўзбек шеъриятида бундай очикдан-очик радикал кайфият маҳсули бўлган шеърлар ёзилмаган. Лекин шунга қарамай, тарих ва бугунни идрок этиш шоирни анча-мунча кўз юмилмас ҳақиқатлар майдонида чиқариб қўйган десак, янглишмаймиз. Ҳа, А.Орипов бу даврда 1981 йилда ёзилган “Мени олиб кетинг...” шеъридаги каби:

¹⁰ В. Высоцкий, Стихотворения.- М.: Эксмо,2008.- С.24

Талпинган диёрим – у Ўзбекистон,
Сеҳрини айтишга борми ҳеч имкон!
Йўқ, ўзга юртларда беролмасман жон,
Мени олиб кетинг Ўзбекистонга [ЙА,443] , -

дейишга ҳали тайёр эмас ва бу имконсиз эди. Оғир хасталик билан юзма-юз келиб Москва касалхоналаридан бирида даволанаётган шоир энди Ватанни илгаригидек – кўпларнинг ичида, “улуғ Совет оиласи”да ҳис қилмайди. Энди у ўз диёрини – Ўзбекистонни айириб, сайлаб севаяпти. Унинг Ватанга бўлган муносабатида энди ўзгачалик мужассам. Бир қарашда сезилмайди. Лекин айтишдаги лирик мен кайфияти ўша даврнинг кўп миллатли ягона мамлакат ғоясига соя ташлаб туради. Эҳтимол, вақтида шоирнинг ўзи ҳам бунга эътибор бермагандир. Лекин ҳақиқат шундан иборатки, бетоб шоирнинг Ватанга муносабати зимнида жуда улкан ижтимоий-сиёсий асос, қарийб йигирма йиллик изтиробли изланишлар ётибди. Яъни мазкур ғоя жамиятдаги илиқлик экинлари таъсирида илк ижодидаёқ ниш берган, унинг куртак ёзиши учун эса вақт керак бўлган эди.

Юқоридаги шеърлар таҳлили 60-йиллар охирига томон А.Ориповнинг ғояга муносабати муттасил ўзгариб борганини, бу ўзгаришлар жамиятдаги ўзгаришлар билан боғлиқ ҳолда юз берганини кўрсатади. Бундай кайфият биргина А,Ориповга хос бўлмай, балки фикрловчи кишиларнинг кўпига хос эди. 60-йилларнинг ўрталаридан бошлаб собиқ иттифоқда диссидентликнинг кучайгани шу ўзгаришлар билан боғлиқ эдики, бунинг бадий адабиётда акс этмаслиги мумкин эмасди. Жумладан, Э.Воҳидовнинг “Илтижо” шеърида лирик қаҳрамон “мўъжизий қудрат”га “Ёруғ ишончимдан қилмагил жудо” дея илтижо қилади. Бу ўзининг ғояга ишонч-эътиқоди соб бўлаётганини ҳис этиб турган одам кайфиятидир. Лекин бу 60-йиллар авлоди, хусусан, унинг икки йирик вакили маслакисиз, ғоясиз қолди дегани эмас. Аксинча, уларнинг маслаги, ғояси конкретлашди. “Ўйларим”даги мана бу мисраларга диққат қилинг:

Юрагимга бир маҳаллар кирган туйғулар
Энди сендан кетгаймиз деб сўрайди жавоб.
Мени бир зум ҳол-жонимга қўймайди улар,
Қўймайдилар, ваъдаларинг чикди деб сароб.
Кўз олдимда собит турар фақат шу Ватан,
Кулбаси ҳам кенглик қадар чулғайди мени.
Туйғуларим фақатгина унга берар тан,
Юртим мен ҳам умрим қадар севгайман сени. [ЙА,131]

Изтиробга тўлиқ ижтимоий-руҳий изланишлари натижасида бир маҳаллар шоир онгу шуурини эгаллаган ўй-туйғулар йўқолди, собит қолгани биргина Ватанга муҳаббат бўлди. Ватанга муҳаббат эса, юқорида кўрдик, халққа муҳаббатдан келиб чиқади. Халққа муҳаббат унинг бугуни ва эртаси ҳақида қайғуртиради, унинг истиқболи ёруғ бўлиши ҳақидаги орзуларни туғдиради. Идеалнинг конкретлашиши деганда биз шуни назарда тутган эдик. Яъни шоир мавҳум ғояни идеал билиб унинг қобиғида ўралиб қолмади, ҳаётдан келиб чиққан ҳолда иқтидор кучи билан уни ўзи учун аниқлаштириб олди. Ва унинг идеали ВАТАН – ХАЛҚ, ИСТИҚБОЛ отлиқ бир-бирига чамбарчас боғлиқ учта асосга қурилди. Шу маънода, А.Орипов коммунизм ғоясининг ёхуд мафкуранинг куйчиси деб бўлмайди, зеро, шоир луғатидаги “коммунизм” сўзида Ватан, халқ ва истиқбол маънолари доминантлик касб этгандир. Бошқа ҳолатлар, масалан, турли саналар муносабати билан ёзилган кутлов типидagi шеърлар эса муроса қабилидан саналиши мумкин. Зеро, эл назарига тушиб улгурган шоир ҳатто ўзи истаса-да доим ҳам жим туrolмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Адабий турлар ва жанрлар. Лирика.* - Т., 1992.
2. *Борев Ю. Эстетика.* - М., 1988.
3. *XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Тўплам.* –Т., 1999.
4. *Афоқова Н. Абдулла Орипов лирикасида бadiий санъатлар: Филол. фанлари номзоди.. дис.. автореф.* – Т., 1997.
5. *Орипов А. Ўиллар армони.* –Т.: Адабиёт ва санъат, 1987.
6. *Ложувард осмон. Тўплам. М.Мирзо таржимаси.* - Т., 2008.

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA HAYOT VA O'LIMGA MUNOSABAT

Afoqova Nodira Maxmudovna
Filologiya fanlari doktori, dotsent,
“Tafakkur” jurnali
afokova66@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Oripov she'rlarida hayot va o'limga munosabat muammosining badiiy talqini masalasi o'rganilgan. A.Oripov

fenomenining falsafiy, ijtimoiy qirralari hayotsevarlik, umrning qadriga etish, tiriklikni ulug'lash motivlari tadqiqi asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: lirika, absurdizm, hayot, o'lim, ijtimoiy pafos, qadar, jabar.

The article examines the issue of artistic interpretation of the problem of attitude to life and death in Aripov's poems. The philosophical and social aspects of the Aripov's phenomenon, the motives of love of life, appreciation of life, glorification of life are revealed on the basis of research.

Key words: lyrics, absurdism, life, death, social pathos, qadar, jabar.

Abdulla Oripov ijodida mung, mahzunlik, tevarak borliqqa tanqidiy nuqtai nazar kuchli. Zohiran qaraganda, bu badbinlik, hayotdan bezish, norozilikday bo'lib ko'rinishi mumkin. Ammo faqat yuzaki qaraganda shunday. Aslida shoir ijodining, faylasuf sifatida dunyoga qarashining ichki qavatlarida butunlay boshqa mazmun-mohiyat barq urib yotganini ko'ramiz. Bu – hayotparastlik, tiriklikni tarannum etish, taqdir bergan ne'matlarga shukronalik tuyg'usi bilan bog'langan mohiyat-mazmundir. Hayotsevarlik – chin mo'minning fazilatidir.

Ayrim bir shoirlar, xususan, yosh ijodkorlarda o'limni sog'inish, hayotni rad etish, yo'qlikni chorlash motivini kuzatish mumkin. Albatta, inson qaysidir lahzalarda turmushning tubsiz tashvishlaridan charchaydi; kim yoki nimalardir sabab hayotdan bezadi; qismatning kutilmaganday tuyuladigan kulfat va zarbalaridan gangib qoladi – shunday choqlarda bu dunyodan bosh olib ketgisi keladi, o'lmoq istaydi. Hatto hazrat Navoiyday vaziri kabir, sultonning muqarribi (yaqin kishisi), jahoniy shuhrat sohibi bo'lgan bir shaxs ham ma'lum kayfiyatlarda *“Parim bo'lsa, uchib qochsam ulustin, to qanotim bor, Qanotim kuysa uchmakdin, yugursam to hayotim bor”* [Navoiy, 1987: 121], *“Olame xohamki, nabvad odami olam dar o'”* (shunday olamni istaymanki, unda bu dunyo odamlari bo'lmasalar), *“Gar budur olam, kishiga mumkin ermas anda kom, Haq magarkim, kom uchun boshdan yaratqay olame”* kabi misralarni bitganlar.

Professor Bahodir Sarimsoqov insonning hayotdan bezishi bilan bog'liq bu holatni absurdizm tushunchasi bilan bog'lab, bunday tushkun kayfiyat inson qalbining doimiy holati bo'lishi, uzluksiz davom etishi mumkin emas, degan edi [Sarimsoqov, 2002]. Absurdizm – o'tkinchi kayfiyat, holatdir. Insonning asl fitrati hayotni sevish, hayotparastlik bilan ziynatlangan. SHuning uchun ham komil musulmon bo'lmish Hazrat Navoiyning hayotiy dasturi ikki dunyo saodati, binobarin, berilgan umrni ne'mat, inoyat deb bilish, uni qadrlashdan iborat edi.

Abdulla Oripov she'rlarida hayot voqea-hodisalarining ijodkor qalbda jarang bergan aksi-sadosi tufayli tug'ilgan qayg'u va kadam; xiyonatkor do'stdan, hasadgo'ydan, manfaatparast birodardan, noqobil farzanddan va yana shu kabi

ko'pgina narsa-hodisalardan hasrat; dunyoning turli burchaklarida sodir bo'layotgan adolatsizlik, tengsizlik, birodarkushlikdan tug'ilgan alam va afsus, ehtimol, kengroq o'rin tutar. Bu hasrat, bu mung nuqul shaxsiy kechmishlar bilan, tor hududiy makon bilan bog'langan bo'lmay, umuminsoniy dard bilan yo'g'rilgan. Bu mung dunyoni mukammal, hayotni farovon, insonni komil ko'rish istagidan; Odam Otaga berilgan ilohiy rutba va Odam Ota avlodlarining ro'yi zamindagi qilmishlari o'rtasidagi nomutanosiblikdan tug'ilgan. Insonlik hayoti, ma'naviy yuksalish jabhalariga butun dunyo miqyosida nazar tashlagan shoirni o'ksinish, armon qamrab oladi. U bundan 34 yil muqaddam – 1977 yilda:

*Koinot gultoji insondir azal,
Undadir eng oliy tafakkur, amal.
Hatto u tubanlik ichra ham tanho,
YO falak, ijoding buncha mukammal, - deb [Oripov, 2000: 279];*

oradan 26 yil o'tib – 2003 yilda:

*Mening hasratlarim,
Sizlar buncha ko'p,
Inon-ixtiyorim qo'lga olgansiz.
Gohi yolg'iz-yolg'iz, gohida to'p-to'p,
Go'yo tug'ishganim bo'lib qolgansiz, -*

deb yozgan esa-da, juda ko'p asarlarida mutafakkir sifatida, faylasuf sifatida hayotni ulug'laydi, tiriklikni insonga berilgan inoyat o'laroq tarannum qiladi. Bu xil qarash shoirida turmush tajribalari zaminida, hayotni qadrlash tuyg'usining yosh o'tgan sari kuchayishi – dunyoga qattiqroq bog'lanish tufayli paydo bo'lgan emas. Chunki uning dastlabki she'rlaridayoq hayotsevarlik motivi yarqirab ko'rinadi. Hayotsevarlik – insonning asl mohiyati shu. SHoirning butun ijodida – ilk she'rlaridan boshlab shu ruh ustivor.

Bir paytlar buvilarimiz aytar edilarki, Yaratgan Egam insonning fitratiga ikki xil xususiyatni joylaydi – ularning birisi iblisdagi noshukurlik, kibr bo'lsa, ikkinchisi farishtalarga xos shukrona va ixlosdir. Er yuzidagi faoliyat va amalimiz, shuningdek, ruhlar mamlakatidagi o'rnimiz qalbimizda shulardan qay birini jilovlab, qay birini parvarish etishimizga bog'liq ekan. Umuminsoniyat misolida esa bu hol Er yuzidagi hayot maromini, ijtimoiy muhitni belgilaydi.

Tiriklik uchun shukronalik tuyg'usi Abdulla Oripovning ilk she'rlaridayoq namoyon bo'ladi. U akademik shoir, ustoz G'afur G'ulom vafotining bir yilligi munosabati bilan (1967) yozgan she'rini shunday yakunlaydi:

*Mangulikka ketayotir shoir shoshgancha,
Moviy ko'kka sha'n quyoshi o'rlamoqda, bas.
G'afur G'ulom tiriklikni istasa qancha,*

Biz ham unga o'shanchalik qilgaymiz havas [Oripov, 2000: 135].

YA'ni biz tiriklar G'afur G'ulomning shuhratiga, manguligiga havas qilamiz – bu tushunarli, bu – ulug' odamlarga bag'ishlab yozilgan she'rlarda takror-takror aytiladigan fikr. Ammo yosh shoir holat-hodisaning kutilmagan jihatidan so'z ochadi: “*G'afur G'ulom tiriklikni istasa qancha...*” Voajabo!

G'afur G'ulom – shunchaki shoir emas, chunki “*bu asrdan mangulikka yorliq olmoqqa Etmas ekan faqatgina she'riy iste'dod*”. SHunga ko'ra G'afur G'ulom – “*buyuk shoir, faylasuf, hakam*”, “*adib, notiq va sohib surur*”, “*xalq timsoli, o'zbek timsoli*”, “*kamalakdek necha rangli daryolarni o'zida jam qilgan dengiz*”... YA'ni hech bir istisnosiz mangulikka daxldor shaxs! Ammo shularning barchasi bir tomonu, hayot bo'lmoqlik bir tomon! G'afur G'ulom shularning barchasi bilan bir vaqtda tiriklikni istaydi... Undagi hayot bo'lmoq istagi bizdagi shoir shon-sharafi va manguligiga havas darajasiga teng. Bu – Abdulla Oripov o'ylab topgan lutf emas, bu – barchamizga hech istisnosiz taalluqli bo'lgan ziddiyatli bir holat. YA'niki hayot o'zining jamiyki ne'matlarini peshvozimizga qo'ysa va “*dunyoning bor quvonchini ko'rdim*” degandan keyin ham tiriklikdan to'yamaymiz. Bil'aks, bizni ming kuylarga solsa ham, boshimizga balo toshlarini tinsiz yog'dirsa ham, ertadan umidvor bo'lamiz, hech birimiz bu dunyoni tark etishni istamaymiz...

Abdulla Oripov boshqa bir she'rida yozganiday:

YUz yil yashasa ham bechora bir zot,

To'ymadim hech, debdi, bu nechuk hikmat?

Oh, qandoq shirindir shu taxir hayot,

Oh, qandoq go'zaldir shu juldur qismat!

Binobarin, G'afur G'ulomga bag'ishlangan she'rning oxirgi misrasida hayot, tiriklik eng ulug'; hatto mangulikdan ham, shon-shuhratdan ham yuksakroq qadriyat o'laroq idrok etiladi.

Inson chorasiz qolganda, o'z muammolari echimini real hayotda mavjud imkoniyatlar doirasidan topolmaganda ruhlar dunyosidan imdod so'raydi, kutilmagan ilohiy bir imkoniyatning ochilishidan umidvor bo'ladi. Abdulla Oripovning ham shu ruhdagi bir she'ri bor. Bu – “*Pahlavon Mahmud qabri qoshida*” deb nomlangan she'r. Lirik qahramon qayg'uga botganda ham, charchaganda ham, ziddiyatlar ichida qolganda ham – 3 band davomida Pahlavon Mahmuddan madad so'raydi. She'r shu taxlit cheksiz davom etishi mumkin. Ammo Abdulla Oripov she'rni, ta'bir joiz bo'lsa, noan'anaviy yakunlaydi:

Men uchun xilxona bo'lganda olam,

Gumbazlar ostidan chiqdi bir alam:

- *Hayotsan, bunchalar faryod aylama,*

Men o'zim madadga zorman-ku, bolam [Oripov, 2000: 142].

Ajabki, bu oxirgi to'rtlik dastlabki uch bandda bayon qilingan fikrni butunlay rad qiladi. YUzaki qarasak, bu xulosada Pahlavon Mahmudday buyuk bobomizning ulug'ligiga soya tushganday bo'ladi. Ammo aynan mana shu oxirgi bandda falsafiy va islomiy, ayni paytda hayot o'zi tasdiqlab turgan real mantiq bor. Bu mantiq shundan iboratki, tiriklik – insonga xayrli amallar qilish uchun berilgan bebaho imkoniyat. Bu dunyodan o'tganlar uchun esa, har qancha alamli bo'lmasin, bu imkoniyat tugaydi. Faqat tiriklarga YAratganning inson zimmasiga yuklagan vazifalarini bajarishga, binobarin, yo'l qo'ygan gunoh va xatolari uchun tavba qilish, uni tuzatish imkoniyatiga egadirlar. Tiriklik – shukur va tavba qilmoqlikning birinchi shartidir. Demak, barhayot insonning faryod qilishi noo'rin. CHindan ham tirik inson emas, bu dunyoni tark etganlar madadga, tiriklarning duosiga, yodlashiga muhtojdirlar. SHE'ning oxirgi ikki misrasida katta falsafiy mazmun yuklangan, binobarin, she'rni yozishdan muddao ham shu. Ayni paytda bu xulosada faoliyatsizlikni rad etish; faolikka, qurishga, yaratishga, bunyodkorlikka da'vat bor.

Hayot va o'limni mana shunday idrok etgan shoir keyingi she'rlaridan birida tiriklikni to'g'ridan-to'g'ri “omad” deya baholaydi:

*Omad degan narsa dunyoda bor gap,
Bu erda har qanday xurofot bekor.
Hozir sen she'rimni turibsan tinglab,
Demak, sen – hayotsan, omad senga yor.
Boshqacha qismat ham mavjud-ku, axir,
Baloyi qazodan asrasin zinhor.
Men senga she'r o'qib turibman hozir,
Demak, men – hayotman, omad menga yor.
Qolgan o'rtadagi gaplarni endi
Nima deb atasang senda ixtiyor.
Falakda hattoki quyosh bekindi,
Bizlar barhayotmiz, omad bizga yor!*

Hayotni bebaho inoyat deb bilish, umrni bandasiga berilgan imkoniyat o'laroq idrok etish shukronalik motivini Abdulla Oripov she'larining markaziga olib chiqdi. U g'amgin she'rlar yozadimi, shodlik yallalarini kuylaydimi – barchasida hayotdan rizolik ruhi balqib turadi. SHoirning turli yillarda, turli mavzularda, turli kayfiyat va maqsadlarda yozilgan she'rlariga diqqat qarataylik:

*SHukrona ayt avval parcha non uchun,
So'ng qultum suv uchun shukrona takror.*

....

*Buyuklar baxtiga havas qil, ammo
Insonliging uchun shukr aytgil zinhor.*

(“SHukrona”, 1975.)

*Sokin ko'chalarda kezaman shodon,
Xushbaxtmen, bilmayman kimdan? Va nega?
Oh, nechog' farahli ekan bu osmon!
Insonmen, rahmatim ayturman Senga...*

(“Murabbiy”, 1990.)

*Jannat seni ilhaq kutib turganmas,
Do'zax ham sen bilan, albatta, to'lmas,
Bitta seni yutib er ham to'ymagay,
Endi shukr qilu yashayvergin, bas.*

(“SHukr”, 2003.)

*Mayli, sinovlarga duch kelay har on,
Roziman, baxsh etding hayot nusratin.*

(“Mening hasratlarim”, 2003.)

*Zo'r qudrat emasmi hayot o'zi ham,
YAshil novdada ham uning kuchi bor!*

(“YAshil novda”, 2004.)

SHoir yana bir she'rida esa hayotday buyuk ne'matning qadriga etmay, yo'qlikni sog'ingan badbin kimsalarni to'g'ridan-to'g'ri nodon deya ataydi:

*Dunyoga yashay deb keladi inson,
YAshamoqlik uchun axtarar imkon.
Sen-ku bu dunyodan to'ygan ekansan,
Boshqalarni nega qiynaysan, nodon?!*

Hayotga mana shunday nekbinlik bilan boqqan, tiriklikning yaxshi-yomon har bir lahzasida yuragini shukronaday muazzam bir yorug'lik to'ldirgan shoirni badbin yo tushkun shoir deydigan bo'lsak, qay darajada haqli bo'lamiz? SHoir ijodidagi olam go'zalliklaridan zavqlanish, ulug' bobolar shonidan iftixor, Vatanning bugungi iqbolidan shodlanish tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan she'rlar, bayt va misralarning barchasi hayotparastlik, tiriklikni ulug'lash hosilasi o'laroq idrok etiladi. Insoniy hayotga loyiq ko'rilganlikdan shukronalik tuyg'usi – falsafiy mazmun pirovardida shoir she'rlarida kuchli ijtimoiy pafos – Vatan istiqlolidan g'urur, istiqbolidan umidvorlik ruhi bilan uyg'unlashib ketadi.

Zukko navoiyshunos olim YOqubjon Ishoqov ulug' Navoiy ijodida qadar (*inson irodasining erkinligi va o'z faoliyati oqibati uchun mas'ul ekanligi*) va jabar (*inson taqdirining azaldan belgilab qo'yilganligi va va uning o'z faoliyatida ixtiyorsiz ijrochi ekanligi*) muammosini tadqiq eta turib, mutafakkir shoirning turli janrdagi asarlarida to'la-tugal ifoda topgan dunyoqarashida qadar g'oyasining ustivorligini, ammo bu g'oya Navoiyda to'g'ridan-to'g'ri berilmay, balki shoir asarlarining ichki qavatlarida, qalin obrazlilik pardasida, odamlarni ezgu

amallarga, ya'ni o'z taqdirini o'z yaratishga da'vat etish shaklida ifoda topganini aytgan edi [Ishoqov, 2002: 68].

Islomiy haqiqatlarga ko'ra hidoyat yoki zalolatga borish – insonning o'z ixtiyoridadir. Abdulla Oripovning hayot va o'limga munosabatida ham xuddi shu holni ko'rish mumkin. SHoir she'rlari zohiran qaraganda tushkun, g'amgin she'rlar kabi tuyulsa-da, ularning tub-tubida tiriklikni ulug'lash, uni YAratganning inoyati o'laroq qabul qilish; ongli hayot borliq mavjudotlari ichida faqat Insongagina berilgan nodir imkoniyat ekanligidan iftixor, bu hayot yo'lini munosib tarzda bosib o'tishga da'vat ruhi etakchilik qiladi.

Qahramon shoir, Xalq shoiri so'nggi yillarda yozgan she'rlaridan birini “Anglash” deb atagan edi:

*Tonglarim tiyradir, oqshomlar purg'am,
Bir-bir ketayotir jo'ralarim ham.
Birovin yo'lini kasallik to'ssa,
Birovin yiqitdi g'am bilan g'ussa.
Boshiga tushsa ham qanchalik savdo,
Noshukur bo'lmadi ular, ajabo!
Bildimki, nolishni nainki zamon,
Alloh ham yoqtirmas ekan hech qachon.*

Qalbgga yaqin jonajon do'stlaridan biri vafoti munosabati bilan yozilgan ushbu she'rda shoir umrni, hayotni qay xil anglashini mana shu taxlit aniq-taniq ifoda etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. – 121 б.
2. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1987. – 689 б.
3. Орипов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.
4. Саримсоқов Б. Абсурд – маънисизликдир // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2002 йил 28 июнь.

METAFORIKLIK VA ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI METAPHORISM IN ABDULLA ORIPOVA POEMS

Obidjon KARIMOV, NamDU dotsenti

Dilorom BOBOXANOVA, NamDU dotsenti

Annotatsiya. Maqolada she'r-metaforaning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi misolida tahlil qilingan. Unda she'rning tasvir predmeti inson his-tuyg'ulari ekanligi, inson qalbini tadqiq etishiligi aytiladi. Mashhur Aristotelning poetik obraz yaratish mahorati ham tilga olingan. Poetik metafora bilan lingvistik metafora misollar bilan solishtirilgan. A. Oripovning metaforik obraz yaratish mahorati misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:obraz (timsol), glossalar, metafora, poetik metafora, lingvistik (lisoniy) metafora, kompozitsion kontrast, kompozitsiya, she'r-o'xshatish, so'z, so'z birikmasi, obrazlilik, estetika, gulliver, burgut, allegoriya, tushuncha, badiiy hukm (predikat)

Annotation. The article analyzes the peculiarities of poetry and metaphor with the example of the work of the famous poet of Uzbekistan Abdulla Aripov. It says that the subject of the poem is a human emotion and study of the human heart. The poetic image of the famous Aristotle is also mentioned. There is a comparison of poetic metaphor with the examples of linguistic metaphor. A. Aripov's metaphorical skills are analyzed with examples.

Key words: image, gloss, metaphor, poetic metaphor, linguistic metaphor, compositional contrast, composition, simulation of a poem, word, phrase, image, aesthetics, Gulliver, eagle, allegory, concept, artistic judgment (predicate)

Xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov ijodini o'rganishda davom etarkanmiz, ijodkorning adabiyot, she'riyat haqida aytgan quyidagi fikrlarini eslab o'tishni joiz deb bildim: *“Adabiyot, she'riyat obrazlilik bilan tirikdir. She'riyatda samimiyat ham bo'lishi kerak. Shundagina u bir umr esda qoladi”* [2]. Bundan ko'rinadiki, shoir she'riyat oldiga ikkita asosiy talabni qo'yadi: obrazlilik va samimiylik. Shubhasiz, g'oyat to'g'ri talablar. Lekin shunisi borki, ularning birinchisi poeziyaning tabiati bilan, ikkinchisi esa ijodkor shaxs – shoir tabiati bilan bog'liqdir. Albatta, samimiyat juda zarur, lekin obrazlilik birlamchi ekanligi shubhasiz. Adabiyot ilmi badiiy obraz poeziyaning voqelikni badiiy-estetik in'ikos qilishida eng asosiy, birlamchi vosita ekanligini beshak haqiqat deya e'tirof etadi. Zero, so'z san'ati insonning ichki olamini ham, undan tashqaridagi olamni ham badiiy obraz vositasida idrok etib, ularga estetik ideal nuqtai nazaridan munosbatda bo'lgan holda umumlashtiradi va konkret his etiladigan tarzda aks ettiradi. Ya'ni badiiy obraz san'atdagi ham tafakkur, ham ifoda shaklidirki, shuning uchun obrazlilik san'atning belgilovchi xususiyati sanaladi.

Estetika va adabiyotshunoslikka oid ishlarda badiiy obrazning materiali bir tomondan real voqelik, ikkinchi tomondan ijodkor shaxsi ekanligi ta'kidlanadi[3]. Agar metafora (hatto uning eng oddiy ko'chim darajasidagi ko'rinishi ham) obraz ekanligini e'tiborda tutsak, bu gap unga ham to'la tegishli degan xulosa kelib

chiqadi. Aslida, buni Arastu yaxshi metafora yarata olish, o'xshashlikni ko'ra olish iste'dodning belgisi deb hisoblaganidayoq e'tirof etgan. Chunki o'xshashlik voqelikda mavjud bo'lsa, uni ko'ra olish ijodkor shaxsi bilan bog'liq, yaxshi metafora esa shu ikkisining birligida yaratiladi. Arastu metafora yaratishni o'zgalardan o'rganib, o'zlashtirib bo'lmasligini, ya'ni buning tug'ma qobiliyat bilan ekanligini ta'kidlaydi [4]. Demak, metafora (umuman obraz) yarata olish uchun kishi alohida sifatlarga ega bo'lishi lozim. Xo'sh, bu qanday sifatlari? Bizningcha, ushbu savolga javobni boshlab Abdulla Oripovning o'zidan izlash kerak. Abdulla Oripovning "Gulliver" she'ri jahon xalqlari mulkiga aylangan asarga tayanib yozilgan. She'rning quyidagi misralariga e'tibor qarataylik:

Atrofin ulkanlar qurshagani choq,

Gulliver zarradir, u – yo'q, u – o'lgan.

Mitti odamchalar qoshida biroq

Gulliver buyukdir, Gulliver – ulkan [2, 326].

Bizningcha, shu bandning o'zi mustaqil holda ham metaforik ma'noni ifodalay oladi. Bu holda Gulliver metaforasi ulug'lar oyog'iga poyandoz bo'lgani holda o'zidan past maqomdagilar qarshisida "jajji napoleon"ga aylanuvchi kishini xarakterlaydi, shundaylarga qaratilgan epigramma bo'lib jaranglaydi. Balki, tushunuvchilar doirasi tor bo'lib qolishini o'ylagandir, har holda shoir birinchi badda Gulliverning ulkanlar va mittilar olamida bo'lganini, ya'ni asarning asosiy mazmunini eslatib o'tadi. Holbuki, mashhurligi bundan aslo ortiq bo'lmagan rivoyat bilan mazmunan bog'lanuvchi metaforik to'rtlikda esa izoh berilmaydi:

Bir yo'l chekkasida yotibman nolon,

Chorasiz bo'lsam-da, men ham tirik jon.

Ustimga otingning soyasi tushdi,

Jilovini nari tortsang-chi, nodon! [2, 250]

She'r Iskandar Maqduniy bilan faylasuf Diogenning uchrashuvi haqidagi antik rivoyatga bog'lanadi. Emishki, oftobda isinib yotgan Diogen yoniga otliq Iskandar kelganida, faylasuf zarra parvo qilmay yotaveradi. Jahli chiqqan jahongir "Mening kimligimni bilasanmi?" deb do'q uradi, faylasuf esa xotirjam "Kim bo'lsang ham, nari tur: oftobni to'syapsan!" deya javob qiladi. To'rtlikning metaforik ma'nosi shu rivoyat bilan bog'liq yuzaga chiqadi va bu faqir shoirning o'zini Iskandar misoli tutgan kishiga duch kelgan ondagi achchiq kinoyasi sifatida tushunilishi mumkin. Ya'ni bunda lirik sub'ektning oniy kayfiyati ifodalansa, "Gulliver"da inson fe'l-atvoriga oid falsafiy umumlashma chiqarish maqsadi ustuvor. Shuni e'tiborga olinsa, ikkala holda ham she'r qurilishi ifoda maqsadiga mos amalga oshirilgan degan xulosaga kelish mumkin.

A.Oripov yozuvchi Sh.Bo'tayev bilan suhbatida bunday deydi: "Tevarak atrofdagi narsalarga – daraxtlarga, gullarga, giyohlarga hammaning ham nigohi

tushadi. Siz ko'rgan-bilgan voqea-hodisalardan yoningizdagi o'rtog'ingiz ham voqif bo'ladi. Biroq, ulardan ta'sirlanish har xil. Birov yiqilgan daraxtga ko'zyoshsiz qaray olmasa, birov odamni bo'g'izlashsa ham loqaydgina kuzatadi..." [2,346] Ko'ryapmizki, bu yerda gap san'atkor uchun eng muhim sifat – ta'sirlanish haqida boryapti va uni ijodga turtki beruvchi ilk omil sanash kerak. Albatta, shoir to'g'ri ta'kidlayotganidek, ta'sirlanish darajasi har kimda har xil. SHu bilan birga, ta'sirlanish bilan ta'sirchanlikni ham farqlash kerak. Ta'sirchanlik ko'pchilikka xos, lekin hammada ham tashqi olamdan olingan taassurot badiiy mushohadaga yetaklamay, boshqa yo'llar bilan (yig'lab-siqdash, g'amga cho'kish, quvonish va hokazo) qondiriladi. Aksincha, taassurot ijodkorning qalbini hislarga to'ldiradi, ularni badiiy mushohada kuchi bilan idrok etish va ifodalash ehtiyojini tug'diradi. Yana A.Oripovning o'ziga murojaat etamiz: *"Men negaligini o'zim ham bilmagan holda to'kilayotgan yaproqlarga, yulduzlarga boqib xo'rsingan vaqtlarim bo'lgan... Nimalarnidir aytgim, to'lib turgan yuragimni qog'ozga tushirgim kelardi..."* (o'sha joyda).

Demak, biz oddiy haqiqat sifatida qabul qiladigan *"badiiy adabiyot so'z vositasida ish ko'radi, so'z vositasida ifodalaydi"* [5.25]. degan qarashni ham shundan kelib chiqqan holda tushunish kerak bo'ladi. Ya'ni so'z badiiy adabiyotda obraz yaratish vositasidirki, uning yordamida so'z san'atining ifoda vositasi bo'lmish obraz yaratiladi.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning *"Minorai Kalon tepasidagi laylak"* she'ri turli talqinlarga imkon beradigan, o'z vaqtida shoirga turli xil malomatlar keltirgan metaforik xarakterdagi she'rlardandir. SHu o'rinda aytish kerakki, biz sho'ro davrida adabiy asarlardan *"g'oyaviy xato"* izlashni go'yo yo'q yerdan ayb izlash, shunchaki tirnoq ostidan kir qidirish deb tushunamiz. Bu to'g'ri emas. Chunki haqiqatan ham sho'ro davrida yaratilgan ko'plab asarlarda, jumladan, A.Oripov asarlarida jamiyatdagi mavjud holatdan norozilik ohanglari bo'lgan. Norozilikni esa sho'ro davri ijodkorlari obraz qatiga yashirib ifodalashga majbur edilar. Demak, haqiqatda mafkura himoyasiga otlangan tanqidchilar obrazdagi ko'plab ma'nolardan birini ochishgan va uni mafkura nuqtai nazaridan qoralaganlar. Jumladan, *"Minorai Kalon tepasidagi laylak"* she'rini o'qisak, unda iyhom san'atidagi kabi yaqin va uzoq ma'nolar borligini ko'rish mumkin. Uch bandli she'rning birinchi bandida shoir bunday deydi:

Tashlab ketdi bu shaharni beklar, amirlar,

Tashlab ketdi bu shaharni islom shavkati.

Tashlab ketdi bu shaharni shayxlar, kabirlar,

Tashlab ketdi mahmadona Mang'it davlati. [2.266]

Ushbu satrlar sho'ro mafkurasiga mos, chunki undan *"Buxoroni "qora kuchlar, tekinox'r ekspluatatorlar tashlab ketdi"* degan ma'no chiqaveradi. Lekin

ikkinchi bandning dastlabki ikki misrasi ma'noni boshqa o'zanga burib yuborishi mumkin:

*Bulbullar ham ketdi bundan ko'zini yoshlab,
Tovuslar ham qaylargadir asta yo'qoldi...*

Adabiy an'anamizda bulbulning ijod, zavq-shavq, ishq-muhabbat, tovusning esa go'zallik ramzi sifatida o'rin olganini eslasak, birinchi band bilan semantik ziddiyat yuzaga kelganini ko'ramiz.

Ikkinchi badda laylakning sadoqati bo'rttirilgani sababli bundan "paxta ham yurtimizga shunday sadoqatli" degan mafkura nuqtai nazaridan "ijobiy" ma'noni ham eplab chiqarish (aniqrog'i, men shunday demoqchiman deya o'zni oqlash) mumkin. Ikinchi tomondan, qulog'i bor odam bulbul va tovus – zavq-shavq bilan yashash, ijod, go'zallik kabi ezguliklar o'rnida birgina paxta qoldi, paxtadan boshqa hech vaqomiz qolmayapti degan tashvishli bongni ham eshita oladi. She'ning bunday qurilishi, aslida, sho'ro davri sharoitida, ya'ni mafkura tazyiqi ostida turib ham yurakdagini aytish ehtiyojini qondirishga intilish tufayli shakllangan uslub xususiyatidir. Bunday uslubda yozilgan she'rlar sho'ro davrida ijod qilgan Cho'lpondan boshlab mustabid tuzumning so'nggi yillarida qo'liga qalam olgan shoirlar ijodida ham uchraydi. Zero, sho'ro sharoitida metafora, jumladan, she'r-metafora ko'ngildagini ifoda etishning ehtimol yagona yo'li bo'lib qolgan. Boshqacha aytsak, bu davrda she'r-metafora A.Oripov "Eski quduq" she'rida yetishmayotganidan noligan "quduq" vazifasini bajargan deyish mumkin.

A.Oripovning Sharq rivoyatlari yo'lida yozilgan "Hangoma", "Echki" kabi voqeaband she'rlari borki, ularda tasvirlangan voqea yaxlit holda metaforik ma'no ham kasb etadi. Ularda hikoya qilingan voqea bevosita ma'nosida ham tushunilaveradi, ya'ni ko'chma va o'z ma'nolar bir-biriga halaqit qilmaydi, shu jihatiga ko'ra ularni ham she'r-metaforalar deyish mumkin. "Hangoma" she'ri, albatta, shunchaki hangoma uchun yozilgan emas: uning asosida yotgan voqea shoir uchun qaysidir jihati bilan estetik qimmat kasb etgan. Yo'qsa u she'r qilinmagan bo'lardi. Axir, kishi hayotida eshitgan, ko'rgan-bilgan hangomadan ko'pi bormi? Estetik qimmat kasb etgan deganni qanday tushunish kerak? Aytmoqchimizki, o'sha voqea she'r yozilgan paytda shoirni o'ylatgan biron bir muammoga yechim, muayyan bir hayotiy holatga javob yoki munosabat ifodasi bo'lgan. Sezgan bo'lsangiz, biz bu yerda A.Potebnyaning masal haqidagi fikrlariga ergashmoqdamiz. A.Potebnya antik yunon masallarining ko'pi aniq bir ijtimoiy hodisa bilan bog'liq yaratilgan deydi[6]. Faqat vaqt o'tib masalning yaratilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy hodisani odamlar unutadilar. Natijada masalda tasvirlangan voqeadada umumlashirilganlik, universallik xususiyatlari kuchayadi va u metaforik tarzda boshqa hodisalarning mohiyatini ochishga xizmat qila boshlaydi. SHunga o'xshab, A.Oripov ham she'rni yozgan paytda voqeadada hikmat ko'rgan, lekin

she'rdagi hikmatni ifoda etmagan, voqeani tasvirlash bilan cheklangan. Lekin voqeaning o'zi, aniqrog'i, uning she'rdagi muayyan bir tartibda tasvirlanishi – she'rning ichki strukturasi faol o'quvchi ongida ko'chma ma'noni shakllantirish uchun yetarli. Qiziqarli, latifanamo bo'lgani uchun she'r voqeasi ko'pchilikning yodida qoladi va u shaxslararo muloqotda masal funksiyasini bajara boshlaydi. Masalan, mos hayotiy holatda kimdir “*Yo'lni eshak boshladi, Ot ergashdi lo'killab*” [2.207] desa bo'ldi, ko'pchilikning yodiga she'r keladi, she'r mazmuni holat bilan bog'lanadi va xayollardan “oxiri baxayr bo'lsin” degan o'y o'tadi. Ya'ni bu o'rinda obraz hayotiy holatga munosabatni ifodalashga, uni mushohada qilish va to'g'ri yo'lni belgilashga xizmat qiladi. Ko'ramizki, “Hangoma”da A.Oripovning ko'plab she'rlarida kuzatiluvchi sharqona donishmandlik voqeada mujassam ifodasini topgan.

O'zining qurilishi, ifoda tarziga ko'ra shoirning “Sharq hikoyati”, “Echki” kabi she'rlari ham “Hangoma”ga o'xshashki, yuqoridagi gaplarni ularga nisbatan ham bemalol aytish mumkin. Faqat “Sharq hikoyati” she'rida ko'chma ma'no muallif tomonidan shakllantirilgan bo'lib, unda she'r-allegoriya xususiyatlari ustunroq. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida “Sharq hikoyati” she'ridagi voqeaning turli variantlari mavjud. Lekin bu shoir o'sha variantlardan birini yoki umumlashtirgan holda she'rga soldi degani emas. Shoir uni ijodiy qayta ishlaydi, voqeaning yangi ma'no qirralarini ochadiki, bu she'rning yakunlovchi bandida aks etadi:

Qondoshlikning million yillik

Rishtalari uzildi.

O'rtaga bir eshak tushib

Oralari buzildi [2.327].

Agar rivoyatning xalq ijodidagi variantlarida: 1) “*el og'ziga elak tutib bo'larmidi, nimaiki qilma, undan o'yan qidiruvchilar hamisha topiladi*” va 2) “*odam o'zgalarning nima deyishiga qarab emas, aql-farosati bilan ish qilmog'i kerak*” degan ma'nolar kelib chiqsa, A.Oripov ma'no urg'usini kishilar orasini buzuvchilarga ko'chiradi, ularni eshakka mengzaydi. Shoirning kashfi tufayli rivoyat o'zining yangi umrini boshlasa ajab emas. Chunki endi “*o'rtaga bir eshak tushib...*” deyilsayoq ko'pchilik yodiga shu she'r keladi, demak, u endi “masal”, ya'ni mos hayotiy holatlarning yechimi sifatida muloqotda faol yashayveradi. Ko'ryapimizki, “Hangoma” bilan “Sharq hikoyati” she'rlari ko'p jihatdan o'xshash, ularning orasidagi farq keyingisida ko'chma ma'noga ochiq ishora borligi bilan belgilanadi.

A.Oripov ijodida 80-yillarga tomon allegoriya xarakteridagi she'rlar va she'r-allegoriyalar salmoqliroq o'rin tuta boshlaydiki, bu ijtimoiy sharoitning o'zgarib borishi, ya'ni so'z aytish imkonining kengayib borishi va adabiyot

zimmasidagi tashviqiy funktsiyaning dolzarblashuvi bilan bog'liqdir. Aksincha, shoirning she'r-metaforalari ko'proq so'z-fikr erkinligi bo'lmagan davr mahsulidir. Keyingi yillarda yaratgan she'rlarini tahlil qilish, o'rganish galdagi vazifamiz bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Риторика. Поэтика.- М. Лабиринт, 2000 С.264
2. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-4-жилд. – Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. 346 б.
3. Борев Ю. Эстетика.- М.,1987.- С.212
4. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент, 2018.224 б.
5. А. Потебня. Эстетика и поэтика. – М., 1976. С.429

Inson ruhiyatining kuychisi

Abdulla Oripov ijodmaktabi

oliy toifali ona tili va adabiyot fani

o'qituvchisi Abdujabborova Muqaddas Yo'ldoshevna

Annotatsiya

Haqiqiy iste'dod har qanday davrda ham, har qanday sharoitda ham cheklovlarni, to'siqlarni yengib o'tadi. Abdulla Oripov ana shunday asl iste'dod sohibi edi. Chunki Abdulla Oripov she'r mavzu uchun xizmat qilayotgan bir davrda o'zbek millati tuyg'ularining quruqshab qolishidan saqlab qolishi bilan birga o'zbek she'riyatida yangi davr yaratdi, inson va uning dardlari, orzu va armonlari haqida o'yga botdi hamda bu sezimlarni san'atkorona, shoirona qalamga oldi, hech kimga, hech bir shoirga o'xshamagan tarzda kuyladi. Adabiyotning qadr-qimmatini uning zamonaviyligi bilan ham belgilanadi. Abdulla Oripov o'zbek she'riyatida butunlay yangi bir davrni ochdi. O'zbek adabiyotida aks ettirish usuli hukmronlik qilayotgan bir paytda Abdulla Oripov ifodalash davrini boshlab berdi.

Kalit so'zlar:*iztirob manzarasi, san'atkorona, cheklov, she'riyat, xalqchilik, yaltiroq so'z, tafakkur, iste'dod, daholik, ijod jo'shqinligi, o'ylar samimiyligi, quruqshagan tuyg'ular, yangi davr, ifoda usuli, iztiroblar silsilasi, ruhiy poklanish, nursiz kechinmalar.*

Abdulla Oripov chinakkam rassom chinakam san'atkor, chinakam faylasuf edi. U mana shu uchlikni birlashtira oldi, falsafiy fikrlarni san'atkorona mahorat bilan, rassom chizgilarida aks etgandek so'zda aks ettirdi va haqiqiy shoir ekanligini isbotladi.

Abdulla Oripov she'riyati xalqchilligi, tuyg'u va o'ylarning samimiyligi hamda chinligi, ruhiy iztiroblar manzarasi, ko'ngil dardlarining haqiqiyliigi, she'rxonlarning tafakkurida muayyan kayfiyat yarata olishi bilan ajratib turadi. Shoir she'rlarida qalamga olingan satrlarda yolg'on yo'qligi, sun'iylikdan yiroqligi, yaltiroq so'zlardan holiligi she'rni yanada yoqimli, yanada ta'sirchan qilgan.

Haqiqiy iste'dod har qanday davrda ham, har qanday sharoitda ham cheklovlarni, to'siqlarni yengib o'tadi. Abdulla Oripov ana shunday asl iste'dod sohibi edi. Chunki Abdulla Oripov she'r mavzu uchun xizmat qilayotgan bir davrda o'zbek millati tuyg'ularining quruqshab qolishidan saqlab qolishi bilan birga o'zbek she'riyatida yangi davr yaratdi, inson va uning dardlari, orzu va armonlari haqida o'yga botdi hamda bu sezimlarni san'atkorona, shoirona qalamga oldi, hech kimga, hech bir shoirga o'xshamagan tarzda kuyladi.

Adabiyotning qadr-qimmatini uning zamonaviyligi bilan ham belgilanadi. Abdulla Oripov o'zbek she'riyatida butunlay yangi bir davrni ochdi. O'zbek adabiyotida aks ettirish usuli hukmronlik qilayotgan bir paytda Abdulla Oripov ifodalash davrini boshlab berdi.

Bir shapaloq urdi gadoni gado,

- Men xudoman,- dedi,- qilaver da'vo.

Davogar qoziga arz qilib bordi,

-Meni xudo urdi, urdi-ku xudo.

Haqiqiy she'r she'rxonni fikrlashga undaydi. Chunki shoir o'z fikrini aytib o'tirmaydi, unga ishora qilib ketadi. Tasvirning bunday usuli esa kitobxonni fikrlashga, she'r zamirida yotgan chiroyli ma'nolarni mustaqil kashf etishga undaydi. Abdulla Oripov she'rlarida Vatanga, o'z xalqiga bo'lgan muhabbat ufurib turadi. Qahramon shoir shu darajada jasoratli ijodkor ediki, hamma SSSR bizning vatanimiz deb bong urayotgan bir paytda "O'zbekiston-Vatanim manim" deb baralla ayta oldi, o'zbekligidan faxrlandi.

Bobolardan so'zladim, ammo

Bir zot borkim, baridan suyuk:

Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o‘zingsan buyuk.
Sen o‘zingsan, eng so‘nggi nonin
O‘zi yemay o‘g‘liga tutgan.
Sen o‘zingsan, farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o‘tgan.
Ona xalqim - jon-tanim manim,
O‘zbekiston- Vatanim manim.

Abdula Oripov she‘riyati ham mardona, ham o‘zbekona she‘riyat. Shoirning har bir she‘ri ijodkor shaxsi va ijodi yaxlit bir mag‘iz kabi tugal qiyofa kasb etkanida ta‘sirchan kuchga aylanishini namoyon etadi. Shu bilan birga shoir ijodining yana bir maftunkor xususiyati — bu soddalik, xalqonalik, samimiylik. Bir qarashda uning satrlari juda oddiy ko‘rinadi. Ammo teran obrazli mushohadalarga yug‘rilgan. Biror bir she‘rida nursiz kechinma va tuyg‘ularni uchratmaysiz. Har bir she‘rida fikr—salmoqli, ifoda—ohorli, tuyg‘u—yorqin. Hayotni haqqoniyat buyoqlari bilan tasvirlash, insoniy istiroblarni, dardchil kechinmalarni, qalb og‘riqlarini kuyga solish, barkamol jamiyatni izlash shoirning she‘rlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Abdulla Oripov she‘rlarida lirik qahramon zamon, tarix va kelajak bilan yuzma-yuz keladi. O‘quvchi shoirning yetuk ruhiy tafakkuri, dardli qalb istiroblarining iskanjasi silsilasi og‘ushida qoladi.

Yetar mayda-chuyda gina endi bas,
Ko‘kda yuribdi-ku quyosh muzaffar.

Avlodlar, siz meni tinglang bir nafas.

Sizga bir sehrdan berurman xabar.

Chin so‘z, chin tuyg‘u, chin amallarga intiqlik, chin insoniylik va chin shoirlik belgisidir. Asil she‘rlar muhabbat yoki nafratdan tug‘uladi. Abdulla Oripov she‘rlarining tili o‘quvchi tanlamaydi, aksincha, hamma uchun birdek tushunarli, birdek sevimli. Muhabbat ko‘hna tuyg‘u, ammo ijodkor bu tuyg‘uga qayta jon, ruh baxsh etadi. Shoirning “Birinci muhabbatim” she‘ri mana shunday she‘rlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham bu she‘r kitobxon qalbini larzaga solidi, shu jumbush ta‘sirida beixtiyor ko‘zlar yoshlanadi, ruhiyat poklanadi, lirik qahramon dardi qablarga ko‘chadi, ruhiy dard uyg‘onadi, endi bu dard qablarda jaranglaydi.

Yo‘lin yo‘qotsa odam-muhabbatga suyangay.

G‘ussaga botsa odam- muhabbatga suyangay.

Chorasiz qotsa odam-muhabbatga suyangay.

Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim,

Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.

Shoirning “Sen bahorni sog‘inmadingmi ” she’rida ham lirik qahramon bahor husnidan zavqlana turib, bu zavqni mahbubasiga ham ilinadi.

Uygonguchi bog‘larni kezdin

Topay dedim qirdan izingni

Yanog‘ingdan rang olgan dedim

Lolazorga burdim yuzimni

Uchratmadim ammo o‘zingni

Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Bahor go‘zalligi oshiq yodiga mashuqasini soladi, ammo uni hech yerdan topolmaydi. Mahbubasi yonida bo‘lmagan oshiqqa bahor nashidasi ham tatimaydi. Zavq va armon qorishib ketadi. Bahor haqida yozmagan shoir yo‘q, lekin A.Oripov qalamida hech kimnikiga o‘xshamagan chizgilarni ko‘rasiz. Masalan,

Avval yuraginga muralaydi u,

So‘ngra ko‘rtaklarga o‘rgatadi so‘z

Zaminning ko‘zidan qochadi uyqu

Demak, bahor keldi, kelmoqda Navro‘z!

Ushbu satrlar orqali oshiq o‘z dardini kitobxon qalbiga ko‘chiradi. Fikr aslida ongda shakllanadi, ammo shoir fikri qalbda tug‘uladi. Ongda shakllangan manidan ko‘ra qalbda shakllangan manining umri uzoq bo‘ladi. Chunki bu mani ilohiy ilhom bilan yug‘riladi. Ilohiy ilhom bilan yozilgan she’rlarning esa umri boqiydir. Samimiy tuyg‘ular ifodasidan hayratga tusha oladigan chinakkam she’riy satrlar noyob go‘zallikni his qilishga qodir kishilarning ma’naviy olamini shakllantirishga xizmat qiladi. Abdulla Oripov she’rlari yasama ko‘tarinkilikdan holi, tong hafasidek yoqimli, quyosh nuridek tafti issiq. A.Oripov chinakam insoniy tuyg‘ular kuychisi, uning she’rlarida shoirning o‘tli armon-hislar samimiyligi va tuyg‘ulari teranligidan she’rxon qalbini larzaga soladi.

Abdulla Oripovning darslikka kiritilgan mashhur “O‘zbekiston” qasidasini har safar o‘quvchilarimga o‘rgatayotganimda beixtiyor yuragim to‘lqinlanib ketadi.

Kech kuz edi, men seni ko‘rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding o, dehqon yurtim,
Turar eding yalanto‘sh, yayov.
Tashqarida izillar yomg‘ir,
Kir,bobojon,yayragin bir oz.
Deding: “Paxtam, qoldi-ku axir,
Yig‘ishtiray kelmasdan ayoz.
Ketding, umri mahnazim manim,
O‘zbekiston-Vatanim manim!

She’rda meni to‘lqinlantirgan hissiyot nima edi? Dunyoni kiyintirib o‘zi yalangto‘sh qolgan bobodehqonmi? Yoki izg‘irinda ham dalasining yumushi tugamagan, paxtasini boladek azizlagan, ammo mehnati beqadr zahmatkash xalqimizmi? Ko‘ryapsizmi, qasidani shunchaki o‘qib bo‘lmaydi. She’rda shoir hissiyotga yo‘g‘rilgan hayotiy hikmat ifodasini mohirona aks ettirib, voqealar tasvirini chizadi. Shoir she’rlarini o‘qigan she’rxon ko‘z o‘ngida ona-yurtimizning bor go‘zalligi namoyon bo‘ladi, bo‘y ko‘rsatadi. Abdulla Oripov she’rlari tuyg‘ularga boy, fayzli va serbarakadir. Jumladan, «Haj daftari» (1992) turkumiga kirgan she’rlarida shoir ma’naviyatimiz manbalarini kashf etish yo‘lidan boradi. Qur’oni Karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma’nolar izlaydi va topadi.

Dasti qisqalarni kamsitma zinhor,
Savobning katta-yu kichigi bo‘lmas.
Kimningdir davlati behad-u bisyor,
Va lekin baxildir, toleyi kulmas.

Och qolgan go‘dakka saxovatli zot,
Yarimta xurmoni dildan ilindi.
Bilgilki, bu himmat shu zum, shu zahot,
Bus-butun savob deb qabul qilindi.

Demishlar, savob ish ofatni to‘sib,
Ezgulik yo‘liga shaylagusidir.
Eng kichik himmat ham toychoqdek o‘sib,
Tulpordek savobga aylangusidir.

Shoirning “Jannatga yo‘l” dramatik dostoni mifologik mavzuda yozilgan. Bu dostonida olam va odam munosabatlari eng asosiy va hal qiluvchi masala qilib

qo'yiladi. Sezgi a'zolariga buysinmas tushunchalarni payqash va tasvirlash, inson tafakkuri bilan izohlanishi mumkin bo'lmagan ilm haqida so'zlash Abdulla Oripov ijodini yuksaklikka ko'taradi.

Parvardigor shafqatini

Ixtiyor etdi.

O'n sakkiz ming olamni

Yo'qdan bor etdi.

Bandasiga bildirib

Ko'ngillarini.

Tayin etdi payg'ambar –

Rasullarini.

Hazrat Odam shu taxlit

Fasona bo'ldi.

Maloyiklar Odamga

Parvona bo'ldi.

To'lsin boqiy farog'at

Ushbu xonaga.

Rahmat nuri dastavval

Mushfiq onaga.

Дунёда шоирман деган зот борки,уларнинг энг самимий, энг жозибали сатрлари оналарига бағишланган. Бу сатрлар юракларга ҳаяжон солади, инсоннинг энг азиз хотираларини уйғотади. Ўзбек шеърлятида она ҳақида ёзилган шеърлар кўп. Уларнинг энг ҳаяжонлисини устоз Абдулла Орипов ёзган, десам хато қилмайман.

Мақонда ломаконсан,энди қайдан излагайдурман,
Фигоним кимга айтиб,кимга сендан сўзлагайдурман.
Бировлар мотамида оху фарёд айлаган эрдим,
Сенинг-чун,эй ғарибим,ич-ичимдан бўзлагайдурман.

Ilmda badiiy asar iste'dod va daho ijodining mahsuli , deb baholanadi.Insonda ong bilan iste'dod birlashganda malaka hosil bo'ladi. Daholik ham, iste'dod ham bir qismatdir. Daholik va iste'dodni mehnat hamda shart-sharoit o'stiradi.Hayot ziddiyatlardan iborat. Shunday bo'lsa-da, iste'dodda kechadigan ilhom jo'shqinligi ziddiyatlardan ustun keladi. Abdulla Oripov lirik qahramon tilidan shunday deydi:

Har qismatga har kimning

Davroni sabab bo'lgay,

She'r un cheksa shoirning

Armoni sabab bo'lgay.

Men faxr etsam umrimning

Har oni sabab bo'lgay,

Eng oliy baxtim mening,

Onajonim she'riyat,

Topgan toj-taxtim mening,

Jonajonim she'riyat.

A.Oripovo'zbek she'riyatiga o'zgacha ifoda usuli, o'zgacha ohang, o'zgacha ovoz, inson ruhiy olamiga o'zgacha qarashlar bilan kirib kelgan shoir sifatida e'tirof etiladi.

O'zbek kitobxonlari ichida Abdulla Oripov ismini tilga olmagan, bir marta bo'lsa ham o'tli misralarini o'qimagan, gohida hayqirib, gohida pichirlab aytmagan kitobxon bo'lmas kerak. Bu Abdulla Oripov she'rlari xalqimiz qalbidan joy olganini ko'rsatadi.

Shoir nafaqat barmoqda , balki aruzda ham betakror g'azallar yozgan.Masalan:

Bu ishq sirin kitob etding , kitobing ichra men borman,

O'qurman deb xitob etding,xitobing ichra men borman...

Umid uzgil,deding,oshiq,muhabbat rishtasin uzgum,

Uzurman,deb azob etding, azobing ichra men borman...

kabi go‘zal misralar ham Abdulla Oripov qalamiga mansub. Shoirning shu singario‘tli g‘azallari aruz qonuniyatlari va an‘analariga mos hamda bu she‘rlarda yangilanish, o‘ziga xoslik, toza ruh bor.

Chindan ham, Abdulla Oripovning she‘rlari mohiyat e‘tibori bilan voqe bo‘lgan she‘rlardir. Biz uchun shoir ham, uning she‘rlari ham hamisha aziz va ardoqlidir. Xalqimizning ongiga insoniylik, xalqparvarlik, yurtga muhabbat tuyg‘ularini singdirgan shoir xotirasi qalbimizda abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev. Q. va boshqalar. 9-sinf uchun Adabiyot darsligi. Toshkent. O‘zbekiston-2014. B.97-99, 115-117.
2. To‘xliyev. B. va boshqalar. 10-sinf uchun Adabiyot darsligi. Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi -2017. B. 103-105, 109-111.
3. A. Oripov. Saylanma. Toshkent. “Sharq” nashriyoti-1996. B.108-119-122.
4. A. Oripov. Tanlangan asarlar. Toshkent. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti -2001. B. 349-353.

МИЛЛИЙ РУХ ПОСБОНИ

Қозокбой ЙЎЛДОШ

*педагогика фанлари доктори, профессор.
Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти
университети. qashqirli@mail.ru*

АННОТАЦИЯ

Мақолада буюк шоир Абдулла Орифнинг миллий руҳият ва ўзбек шеърини ривождаги тенгсиз ўрни унинг асарлари таҳлили орқали кўрсатиб беришга уринилган. Даҳо ижодкорнинг миллий руҳни нақадар теран ҳис қилиши унинг шеъринидаги образлар тизими, тасвир воситаларидан фойдаланишда яққол намоён бўлгани мисоллар билан асосланган.

Калит сўзлар:

Адабий феномен, миллий руҳ, миллий қиёфа, ижодий самимият, поэтик бетакрорлик, ингичка тасвир, эскирмас қадрият, порлоқ тимсоллар.

Одатдаги ўлчовларга бўй бермайдиган улкан адабий ҳодисаларнинг моҳиятини англаш ва изоҳлаш жуда қийин. Адабиёттанув илми учун Абдулла Ориф феномени – тушунтириш мушкул бўлган шундай муаммо. Бу феноменга хос бир кўп жиҳатлар ҳали етарлича ўрганилган эмас. Балки бу адабий шахсиятга хос жиҳатларни тўлиқ ўрганмоқ ҳеч қачон мумкин бўлмас ҳам. Бунга сабаб бетакрор талантнинг моҳиятини тушуниш, унинг фақат ўзига хос бадииятидаги кўз илғамас соҳирликни мантиқнинг универсал тилига кўчириш ўта оғирлигидир. Чунки мантиқ қонуниятга таянади, қонуният эса такрорни тақозо қилади. Илм санъат ҳодисасининг қолипда намоён бўлган моҳиятинигина изоҳлай олади. Абдулла Ориф шеърляти қолипларга сиғмас бетакрор ҳодиса ўлароқ қонуниятга тўлиқ бўй бермайди.

Бундай бетакрор ҳодисани тўлиқ изоҳлаш осмонни қучмоқ, уммонни челакка, тоғни қопга жойламоқ сингариимконсиз юмушдир. Бироқ кўкка учиш, уммонда сузиш, тоғни кезиш зарур бўлганидек, қайтарилмас поэтик ҳодисани ҳам текшириш, уни бир қадар бўлсада, тушунишу изоҳлашга улкан ҳаётий эҳтиёж бор. Ушбу мақола ана шу эҳтиёж йўлидаги бир уринишгинадир.

Одатда ҳар бир давр пайдо бўлган улкан муаммоларни ҳал қиладиган даҳоларни яратади. Абдулла Ориф деган бетакрор поэтик ҳодисани эса у яшаган давр яратмади. Негаки, у яшаган давр бу сингари феномен яралишига мутлақо зид эди. Абдулла Ориф чоғдошларнинг руҳий олами ва туйғулар тизимига қудратли таъсир кўрсатиш орқали ўзининг янги бир даврини яратди. Тўғри, шоирнинг ижоди сабаб ижтимоий тузум, одамларнинг яшаш йўсини ўзгариб кетмади. Лекин унинг шеърляти миллат руҳиятига хос асл жиҳатларнинг назокатли поэтик тасвири орқали одамни мафқуранинг сохта кутқуларига тўла берилиб миллий руҳни йўқотишдан, ота тил жозибасини ҳис этмасликдан, улусга хос сезимларни ажралиб қолишдан сақлаб қолди. Шоирнинг дилбар ва самимий шеърлари расмий идораларларда тўла ҳукмрон бўлган ёлғоннинг миллат руҳиятига ҳам эгаллаб олишига йўл қўймади.

Чин истеъдодга даврнинг тазйику чекловлари тўсиқ бўлолмайди. Истеъдод даврдан, вазиятдан марҳамат кутмаслиги, ҳар қандай тўсиқни енга олиши билан истеъдоддир. Ўта ноқулай шароитда ҳам кўнглидагисини юзага чиқара олиш истеъдоднинг асл белгиси саналади. Абдулла Ориф шеърляти ҳар битта ўзбекнинг ички оламига теран кириб боргани учун ҳам эгаманликкача бўлган даврда яшаган фикрловчи ўзбекнинг маънавий оламини шакллантирган, деб айтса бўлади. Шунинг учун ҳам ўша вақтда кўнгил кўзи очик ўзбекки бор истисносиз бу шеърлар билан ошно эди.

Абдулла Орифнинг барча асарларида даврнинг изи яққол кўришиб турсада, бу изларнинг нима учун айнан шу тарзда поэтик ифодалангани сабабини изоҳлаш ўта қийин. Унинг ҳеч кимга ўхшамайдиган йўсинда фикрлайдиган, ҳаёт ҳодисаларидан ўзга замондошларига қараганда бошқача таъсирланадиган ва уни бўлакча тасвирлайдиган шоир экани бу юмушни янада мушкуллаштиради.

А. Орифнинг шеърияти озод ва покиза кўнгилнинг гоҳ майин, гоҳ нолакор, гоҳ ўтли, гоҳ мунгли манзараларини, баъзан бу ҳолатларнинг барчасини бирваракайига оҳангдор ва мусиқий ўзбек сўзи орқали ифодалаш натижаси ўлароқ дунёга келади. Шеър ёзиш сиёсий юмуш саналган даврда шоир одамнинг руҳиятини тадқиқ этди, туйғулар жилвасини тасвирлади. Абдулла Ориф шеърият майдонига қадам қўйган даврда одамнинг кимлиги унинг ижтимоий мавқеи билан ўлчаниб, қандайлиги синфий мансублигига қараб баҳоланарди. Алоҳида шахс жамиятга қарши қўйилар, омманинг истак ва манфаатлари алоҳида одамниқидан солиштириб бўлмайдиган даражада юқори баҳоланарди. Конкрет шахснинг кўнгли манзараларини тасвирлаш айб саналарди. Шундай бир шароитда Абдулла Ориф оммани эмас, алоҳида одамнинг руҳий оламини бадиий тадқиқ этишга тутинди. У янги ўзбек шеърияти учун бир одамнинг кўнгил ҳолатини туйиш, тушуниш ва тасвирлаш ўта муҳим эканини туйган илк ижодкор бўлди. Конкрет одамга яқинлашиб, унинг кўнгил ҳолатларини бориचा ифодалаш шоир шеъриятига ўзгача самимийлик, дардчиллик бахш этди. Маълумки, алоҳида одам доим дардманд, серташвиш ва тушунилишга муҳтождир. Оломонни эса дардсизлик бирлаштиради.

Шеър кўпинча дард ифодасидир. У камдан кам ҳолларда қувончдан туғилади. Шеър – қайғунинг ўз, қувончнинг эса ўғай боласи. Ҳукмрон коммунистик мафкура ижодкордан фақат ўғай болага эътибор қаратиб, социалистик турмушнинг хушёқар жиҳатларини акс эттиришни талаб қиларди. Шундай шароитда мафкуравий шеърият қобиқларини ёриб чиқиб, алоҳида одамнинг кўнгил ҳолатини тасвирлайдиган, лирикани қулоққа эмас, юракка яқинлаштирадиган ижодкорга улкан эҳтиёж бор эди. Акс ҳолда халқ руҳиятига зўрлик ва зуғум билан сингдирилаётган ноинсоний сифатлар миллатнинг маънавиятини мажруҳ қилиб, ўзлигидан айириши мумкин эди.

Абдулла Ориф шеърияти ўзбек лирикасига кўнгил дардлари сувратлари, руҳий изтироблар манзарасини олиб кирди. Шоир ўтмишда шонли боболари дунё билан бўйлашган, бугун олам ва одамни тоза кўрмоқ қайғусида яшаётган ўзбекнинг ўтли нолаларини шеърга солди. У қуруқшаган ўзбек шеъриятига ўйчил ғам ва ғамчил ўй олиб кириб, одамнинг ички дардлари, чигал руҳияти манзарасини чизди. Шу сабаб шоир шеърларига ҳайқирик

эмас, ҳазинлик ва мунг хос эди. Аёнки, ҳайқириқ одамларни бир-биридан узоқлаштиради, у дардлашиш воситаси эмас. Абдулла Ориф эса ўта ингичка туйғулар, исмсиз дардларни шеърга солди. Ҳасратзада, озурдажон кўнгил мавжлари, комилликдан “юлдузлар қадар йироқ” кишилар борлигидан таъсирчан юракда қолган озорлар бу шеърининг манбаси эди.

А. Орифнинг аламангиз ва мунгли сатрлари ўзбекнинг кўнгли тўридан жой олди. Совет даврида ғоят кенг ёйилган даъваткор шеърининг кулоқ пардаларини зўриқтирган бўлса, шоирнинг сокин ва самимий шеърлари кўнгил кўзига тушган пардаларни йиртиб, дилдаги зангларни кўчирди. Бу битиклар билан ошно бўлган шеърхон бехосдан ўзида ҳам нозик ҳислар, ингичка сезимлар борлигини, руҳиятининг қай бир пучмоқларида тоза туйғулар мавж ураётганини пайқаб қолди. Ярадор қалбнинг нидолари бўлмиш ўша майин шеърлар туйғули миллий руҳият тугал инқироздан сақлаб қолинди.

Коммунистик мафкура ёлғонни жамиятнинг ахлоқи даражасига кўтариб, одамларнинг сезимларигада тазйиқ ўтказётган бир пайтда А. Орифнинг дардчил шеърининг ўзбекни сезимларнинг қуруқшаб қолиши ва туйғулар таназзулидан сақлаб қолди. Ўз туйғуларини **“Қайдадир гулишандан ахтариб висол Ел кезар тоғларнинг гўзал арвоҳи. Шоирнинг дилрабо байтлари мисол Оҳ тортиб тизилар турналар гоҳи”** тарзида ўта таъсирли, майин ва ўзбекча ифодадай олган шоир миллатнинг ички дунёсига теран кириб бориши табиий эди. Олдин ишлатилмайдиган йўсинда қўлланган том ўзбекча самимий, майин ва назокатли сўзлар руҳиятни осон забт этди. Ушбу поэтик ифодалар шеърхонлар қалбини, демакки, ундаги инсоний моҳиятни эзгулаштириб, гўзал сезимлар ҳосил қилди.

Абдулла Ориф шеърларидаги беадад самимият, туйғулар чинлиги, ифода инжалиги кишини ўзига асир қилади. Шоирнинг битганлари ўй, ҳиссиёт ва кайфиятнинг қуйма манзараларидир. Инсон туйғулари товланишини ўта чуқур билган ҳамда таъсирли ифода эта олган шоир шеърларидаги айрим чизгиларнинг ўзиёқ шеърхонда поэтик кайфият ҳосил қилади: **“Сонсиз эгатларга сочилмиш, ана, Менинг орзуларим, менинг ўйларим”** ённки **“Асаблар тупроққа чўккан эди тиз”** ёки **“Йироқ-йироқлардан мунгли ва узун Турналар товушин тинглардим фақат”** ёхуд **“Шабнам шовуллайди боғлар кўйнида Салқин туман ичра бўзарар тонглар, Кўёшнинг эринчак ёғдуларида Нафис ялтирайди барги хазонлар”** ё бўлмаса **“Қаро сочларингда оппоқ аланга”** сингари сатрлар чин инсоний сезимлар ва ҳолатларнинг яхлит, таъсирчан ва ўхшашсиз ифодаси экани билан дилни ром этади.

Абдулла Ориф шеърияти ёмонликка мурасисиз шахснинг ёлқинли иқрорларидир. Инсонга улкан муҳаббат туйган шоир уни комил кўрмоқ истади. Одамда эса нуқсону иллатлар кўплиги ва унинг бу иллатлардан кутулишга ошиқмаётгани шоир руҳиятини қиймалайди. Шу боис у коинот сарвари дейилмиш ҳазрати одамдан ёзгиради. Шоир шеърларида мурасисизлик кучли экани сабаби инсонни нуқсонлардан холи кўриш истагидан. Шоир одамни эмас, ундаги иллатларни ёмон кўриши: **“Йўқ, маймундан тарқаман дердим одамзод”**,- мисрасидан билинади.

Абдулла Ориф шеърияти самимият ифодаси экани сабаб кўнгилларни ром этиб, юракларга сингиб кетади. Шоир самимияти унинг ўз дунёси, руҳияти, кайфияти, ҳиссиётини тафтиш қилиши ва ўзини англашга астойдил уринишида намоён бўлади. Саратондаги эпкиндай сезилмас ҳодисалардан кучли даражада таъсирланган безовта қалб эгаси бўлган шоир ўзини руҳий мувозанатдан чиқарган ҳолатларни ўта таъсирли тасвирлайди. Атроф жавонибда оммавий бахт ҳақида тинимсиз жағ урилаётган бир вақтда у ҳар бир алоҳида одамнинг қалбидаги дардни туйиб, акс эттирарди.

Образларнинг теран халқчил томирларга эгалиги Абдулла Ориф шеъриятини миллат руҳининг сувратларига айлантди. Энг чигал руҳий ҳолатларни ҳам ғоят улкан назокат ва юксак жозиба билан аниқ ва таъсирли ифодалай билиш шоир шеърларига ўзгача тароват бахш этади. Санъаткор учкунда аланга, қатим нурда куёш, томчида уммонни кўра биладиган кудратли ижодий тасаввур ва туйганларини сўзда моддийлаштира билиш кудратига эга эди.

Поэтик ифоданинг аниқ ва туйғуларни безовта қиладиган даражада кўримли ва миллий бўлиши жиҳатидан Абдулла Ориф шеърияти миллий адабиётдаги тенгсиз ҳодисадир. Шоирнинг: **“Оёқланган кўзидай довдирар елда майса, Кўм-кўк мовий осмонда кезиб юрар оқ булут”** сатрларидаги ташбиҳлар пухта ҳаётини асосга эгалиги ҳамда чексиз ҳиссий ва мантикий кудрати билан кишини ҳайратга солади. Елда силкинаётган кўкламий майса ҳолатининг эндигина оёқ босмоқчи бўлиб довдираётган кўзичоққа ўхшатилиши халқ турмушини билгангина эмас, ичдан туйган кишининг кўлидан келадиган ишдир. Айни вақтда биргина чизги билан кўклам осмони ҳолатини ҳам ёрқин суратлантира олиш учун эса улкан истеъдод керак бўлади.

Кўз олдида келтириш мушкул, ифодалаш деярли мумкин бўлмаган мавҳум сезимларни моддийлаштириш борасида Абдулла Ориф тенгсиз маҳоратга эгадир: **“Ёрилмаган ярадай севги!”**- дейди бир шеърида. Қулоққа чалинишидан бўлак моддийлиги йўқ туйғуни бундан ортиқ туйимли қилиб тасвирлаш мумкин эмас.

А. Ориф оламнинг ҳолати ва одамнинг кайфиятини манзаралаштириш жиҳатидан тенгсиз қудратга эга:

Қалдиروق гумбурулар юксақ тоғларда,
Чилтор қилларидай таралар ёмғир.
Шамол шовуллаиди қадим боғларда,
Буюк кўхна дунё кўпчиди оғир.

Жаҳон шеърини хазиначидан ҳам тоғлардаги қалдиروق гумбури, ёмғирнинг чилтор қилларидай таралиши, шамолнинг қадим боғлардаги шовури, эртанги кунни туғмоққа шайланаётган оғироёқ дунёнинг хамир каби кўпчиши каби миқёсли ва серқатлам ҳолатларни мантиқий изчилликни сақлаган ҳолда шу қадар таъсирли чизиб бера оладиган бошқа бир шеърни топиш қийин. Ифода изчиллиги, тасвир кетма-кетлиги нафақат маъно жиҳатидан, балки ҳаракат ва оҳанг жиҳатидан ҳам уйғунлаштирилгани шеърнинг бадиий таъсир даражасини неча баравар оширган.

Абдулла Ориф ўз шеърларида чуқур инсоний изтироблар, самимий туйғулар, ҳиссиётнинг камалақдай товланишларини акс эттириш орқали миллатнинг кўнгил дардларини ифода қилади. Жумладан, атрофидаги иллатга ботган ва хиёнаткор кимсалар боис кўзига олам нурсиз кўриниб, олти ойдан буён шеър ёзишга қўли бормаётган ижод кишининг ҳасратли туйғулари акс этган машҳур “Сароб” шеърида одамларни тушунмоқчи, ҳаётнинг маъносини англамоқчи бўлган шахс кечинмалари улкан дард билан тасвирланади:

Олти ойким, шеър ёзмайман, юрагим зада,
Олти ойким ўзгаларга тилайман омад.
Олти ойким, дўстларим ҳам пана-панада
Истеъдодим сўнганидан қилар каромат.
Ниманидир ахтараман — шеърдан ҳам улуғ,
Ниманидир ахтараман — нондан азизроқ.
Дунё ўзи бепоён-ку, рангларга тўлуғ,
Бироқ менинг кўзларимдан ранглар ҳам йироқ.

Одам атроф оламни ўз кайфиятига мутаносиб кўради. Кўзига оламнинг ҳар бир жилваси шеър бўлиб туюладиган шоир учун олти ойдан буён шеър ёзмаслик – оғир кўргулик. Бундай ҳолга тушган одамга дунёнинг ёқимли кўриниши мумкин эмас. Шоир шундай аҳволдаги шахс руҳий ҳолатини тенгсиз маҳорат билан акс эттиради. Зеро, дўстман деб юрганлар истеъдоди “сўнганидан каромат” қиладиган шароитда кишининг кўзига олам рангсиз ва совуқ кўриниб, унда бирор ёқимли чизги кўзга ташланмаслиги табиийдир.

Одамлар учун минг оташда куйган шоир, ўз навбатида, одамлардан ҳам таъмасиз муҳаббат кутади:

Таъна қилмай ахир севгим мукофотини
Инсон учун минг оташда куяр эдим мен
О, қанчалар севар эдим инсон зотини,
Қандай буюк муҳаббат-ла севар эдим мен.
Бугун тўниб, атрофимга қарайман секин,
Ўт беролмас қалбга энди у ёшлик дамлар.
Мен инсонни бир инсондай севардим, лекин
Нечун кўпдир ҳалигача разил одамлар.

Шоирнинг аччиқ иқрори замиридаги самимият ўқирман ҳиссиётини безовта қилиб, ўзига ром этади. Шеърдаги безовталиқ, қоникмаслик шеърхоннида ўзини тафтиш қилишга ундайди. Тафтиш эса покланиш йўлидаги илк қадамдир.

Дунёдан эзгулик, одамлардан тозалик излаган шоир қидирганларининг болалиқда қолиб кетган армонларгина эканидан изтиробга тушади: *“Кўз олдимда киприкдайин тизилар йиллар, Ҳар бирига маржон бўлар аччиқ унларим. Хира туман орасида чўғдай милтиллар Жайрон қувиб жайрон янглиғ ўтган кунларим”*. Бу мисралардан адоқсиз ғам уфуриб турибди. Ўтган умри ҳақидаги хаёлга ғарқ бўлган ўйчан йигитнинг оламга сиғмас дардли туйғулари теран акс этган бу шеър яралганида шоир бор-йўғи йигирма беш ёшда эди. Аммо у ўтган умри ҳақида жуда узоқ яшаган оқсоқолдай фикр юритиб, “киприкдайин тизилган йиллар”га “аччиқ унлари” маржон бўлганини ёдга олади.

Ҳаётни фаровон, инсонни комил кўришни истагани шоирда одамзотнинг разолатга ботиб бораётгани адоқсиз ғам пайдо қилади. Шоир дунёнинг кемтиклиги, одамларда иллат кўплигидан дард чекади. Шеърнинг кейинги мисраларидан шоир дардларининг илдизлари теран, кўлами катта экани англашилади. Барчага муҳаббат у оқибат кўрсатган лирик қаҳрамон бошқалардан ҳам поклик, мусаффолик, меҳру муҳаббат кутади. Кўнгил дарвозасини ҳаммага очиб қўйган шоир садоқатига хиёнат, ишончига алдов, муҳаббатига нафрат билан тўлов қайтарган кимсалар сабаб кўкайида пайдо бўлган аччиқ армонларни: *“Кўюндайин чарх урардик доим тўзонда, Чанг нелигин билмас эдик ўшанда ҳали. Онамизни ўйлар эдик инсон деганда, Аммо она танҳолигин билмасдик ҳали”*,- дея ифода этади. Шеъринг парчанинг дастлабки мисраларида болалиқнинг беғубор онлари, оламини ғуборсиз санаб, “чанг нелигин билмай” кечирилган болалиқ акс этган бўлса, *“Онамизни ўйлар эдик инсон деганда”* сатрида шоирнинг одамларга бўлган беғараз ишончи ифодаланади. Сўнгги қаторда эса дунёга ишонч тўла кўз билан боққан лирик қаҳрамоннинг она каби беғараз эзгу зот йўқлигини билмаслиги тасвирланади.

Шеърда нафақат ўзгалар, балки ўзини ҳам тушунмоқчи бўлган инсон руҳияти акс этади. Одамларда эзгулик кўрмаётгани боис шоир назарига ёруғ ранглар ташланавермайди. Юксак ғоялар сароб, нурли келажак ҳақидаги гаплар пуч эканини англаш уни умидсизликка туширгандай бўлади. Лекин лирик қаҳрамоннинг тоза кўнгли оламда халқ, Ватан сингари юксак ва мангу тушунчалару улар олдида ўталиши керак бўлган бурч каби ўлмас туйғулар борлигини ҳис этади. Шоир ёшликдаги тоза туйғуларидан айрилсада, умидсизланиб дунёдан кўл силтамайди. Лекин шеърнинг энг умидбахш ўринларида ҳам дунёнинг кемтиклиги, одамнинг нокомиллиги туфайли шоирни ўраб олган мунг сезилиб туради:

Хазон тўла боғчаларга бораман тагин,
Яна ўзни хаёл ила шеърга ташлайман.
Тўниб қолган юрагимга бериб бир таскин,
Яна қувноқ кўшиқларни куйлай бошлайман.

“*Кувноқ кўшиқларни куйлай бошла*”ган одам кайфиятидаги эзгинлик ўқирман эътиборини тортади. Шеърда қўлланган “*Хазон тўла боғчаларга бор*”иш, “*Тўниб қолган юраги*”га таскин бериш каби ташбиҳларда фикрчан одамнинг самимий туйғулари акс этган. Бу шеър тоза ҳиссиётли одамнинг покиза кўнглидаги оташин туйғулар ифодасидир: “*Инжиқ руҳим май истайди гоҳи-гоҳида, Фақат унинг оғушида топаман ором. Хаёлларим сархуш бўлиб кезган чоғида У беармон кунларимга қайтаман тамом*”. Улкан дард ифодаси бўлмиш бу самимий шеърда қаҳрамонни майга ошно қилаётган сабабларга эътибор қилинса, муаллифнинг поэтик нияти англаб етилади. Бетакрор маҳорат билан ёзилган ушбу шеърда одам деган ҳодисанинг ўта сирли экани, одамлар ўртасидаги муносабатларнинг чигал ҳамда тушунарсизлиги таъсирчан ифода этилган. Шоирнинг санъаткорлиги шундаки, у ҳодисаларнинг бошқалар ҳам кўриб турган, аммо пайқамаган жиҳатларини ўзига хос тарзда акс эттиради.

Асл поэтик истеъдод нигоҳнинг ўткирлиги, туйғунинг нозиклиги, ҳиссиётнинг теранлиги, ифоданинг аниқлигида намоён бўлади. Кўкламда ўрик ғўраларини барча кўрган, аммо фақат чин шоиргина унда ҳам ҳаёт бардавомлиги нишонасини, ҳам ўзбек аёлига хос тенгсиз андишани кўра ва кўрсата билади: “*Дилбар келинчакнинг кўксига ғулу Зардоли шохига ташлар кўз қирин*”. Шоирнинг маҳорати бу ўринда мим даражасига кўтарилади: у айтмайди, ишора билан англатади. У имлаб кўрсатган жойда ўзбек қизининг туғма андишаси, минглаб йиллик миллий маданияти бўй кўрсатади. Қанчалик ғўра егиси келмасин, буни бошқаларга билдирмаслик учун фикру зикрини банд қилган ўриқка очиқ қарамай, кўз қирини ташлаш фақат ўзбек келинчагига хос миллий хусусият бўлганидек, бу ҳолатда умр

давомийлиги борлигини кўра ва кўрсата билиш ҳам фақат Абдулла Ориф эплайдиган юмушдир.

Шеърятга қайғунинг йўлдошлиги ҳақида кўп ёзилган, лекин уни ўқирман кўз олдига яққол келтириб қўйиш жуда кам шоирнинг қўлидан келади. Қувонч тўғрисида ҳам кам битилмаган, бироқ шодликни моддийлаштириш ҳам камдан кам ижодкорга насиб этган. Абдулла Орифнинг бетакрор истеъдоди айна шу қийиндан-қийин икки юмушни биргина байтда қилолганида яққол кўринади: **“Қизғалдоқ баргидек учар дилдан зам Тошқинлар киради қалбимга маним”**. Ғамни кўз олдига келтириб бўлмайди, лекин қизғалдоқнинг гулбаргини ҳамма билади. Уни энгил бир ҳаракат билан учириб юбориш мумкинлиги ҳам маълум. Шоир қалбидан қизғалдоқ япроғидек учириб юборилган ғам ўрнига **тошқин** кирмоқда. Шодлик тилга олингани йўқ, лекин шоир кўнглига кирган тошқин унга улкан қувонч ёр бўлгани белгисидир. Чинакам улкан санъаткоргина буни шу йўсин ифодалай билади.

Абдулла Ориф – ўхшаши йўқ бадий манзаралар шуурига яхлит ҳолда қўйилиб келадиган ижодкор. Унинг кўпчилик шеърларида поэтик манзаралар тасвирининг чоки мутлақо билинмаслиги кишида шоир тасвир учун сўз изламай, осонгина ёзаверадигандай таассурот қолдиради. Бу ҳолат шоир тасвир имкониятининг чексизлигидан далолатдир:

Еллар ҳам уйғонди ишқалаб кафтин,
Офтоб ҳам юксалди – тик келар қуёш.
Тоғлар ҳам юк ташлаб кўтарди кифтин,
Безавол майса ҳам силкитади бош.
Тарновлар бўғзида лола ҳам кўркам,
Тераклар учида изғир мавжудот.
Ҳаттоки, туйғусиз чирик хазон ҳам
Яшил пўпанақдан боғлабди қанот.
Ҳовлиқма жилғалар чопар беэга,
Қушлар қий-чувига тўлмиш дала, боғ...

Бу мисралардаги ҳар бир тамсил ўз ўрнида, ҳар бир ташбих образнинг моҳиятини тўлиқ очишга йўналтирилган, ҳар бир ифода моҳиятни яққолроқ англантишга хизмат қилади. Бу қадар ҳаётий ва соддаваш, бунчалар батафсил ва юксак эстетик энергияси бор пластик тасвирга эришмоқ учун шоир шеърӣ маҳоратнинг чўққиларини забт этган бўлиши керак.

Эгаманликдан сўнг миллат ўз тарихининг шахслашиш босқичига кирди. Бу даврда дид ва қизиқишлар хилма-хиллашди. Ахборот олинадиган манбалар кўпайиб, одамнинг хабардорлик имконияти ортгани сари бадий адабиёт жамият аъзоларининг диққат марказидаги ҳодиса бўлмай қолди.

Жамият адабиётдан йироқлашиб, одамлар унга лоқайд муносабатда бўла бошлади. Тўғри, одамлар адабиётдан юз ўгирмади, ўқишнинг бошқа усул ва кўринишларига юз бурди. Дидлар ҳар хиллашди, эндиликда бировга жуда ёққан асар бошқа бировга мутлақо ёқмаслиги оддий ҳолга айланди. Ҳозир ҳам давом этаётган бу босқич адабиёт учун чинакам синов даври бўлди. Абдулла Ориф шеърляти мана шу синовлардан ҳам шараф билан ўтиб, улус руҳият ва тафаккурига сезиларли таъсир кўрсатмоқда.

Инсон руҳиятининг буюк меъмори бўлган шоир тўдага, оломонга айланган одамларга ҳадик билан қарайди. Тўдада одам ўз шахслик кифасини йўқотиб, бошвоқсиз йиртқичга айланиши мумкинлигидан хавотирини шоир: *“Бир ҳисни яшириб ахир нетаман, Тўдани кўрганда кўрқиб кетаман”*, - дея ғоят эсда қоладиган йўсинда тасвирлайди.

Қадриятлардаги кутилмаган эврилишлар, ахлоқдаги ўзгаришлар шоирни ўйга ботиради. Теран афсус туйғуси шоирнинг етти бандлик *“Ўқинч”* шеърда ғоят таъсирли ифода этилган. Шеърнинг *“Бир вақтлар туғилган жойим бор эди, Учасам кўнадиган ишончли ошён. Мен учун ҳамиша ифтихор эди, Бугун бегонадир менга у макон”* тарзидаги илк бандиёқ улкан ҳасрат ифодаси ўлароқ шеърхон руҳиятини безовта қилади. Айни вақтда у ўқирманда қатор саволлар пайдо қилади. Бир вақтлар туғилган жойнинг бугун лирик қаҳрамонга бегона бўлиб қолиши дафъатан тушунарли эмас. Буни англаш учун шеърхон ақлан ва руҳан зўриқиши лозим бўлади. Маълумки, ҳар қандай макон, ҳатто ватан ҳам одам билан муқаррам. Бир вақтлар, яъни ота-она ва бошқа яқинлар ҳаёт бўлиб, шоир ўзини кўкдаги бургутдай ҳис этиб юрган дамларда туғилган макон ишончли ошён эди. Бугун у – шоирга бегона. Бу бегоналикка сабаб “муҳаббат, ҳурмат, оқибат” улашгучи яқинларнинг дунёдан ўтиб, мунғайган қабрларигина қолгани. Ота-онанинг ўтиши улардан мерос эзгу туйғуларнингда йитишига олиб келгани шеърда таъсирли ифода этилади:

Меҳр ила муҳаббат, ҳурмат, оқибат,
Билмадим, қайгадир бўлмишлар ғойиб.
Тепалик бағрида кўринар фақат,
Отам ва онамининг қабри мунғайиб.

Шоирнинг мақсади – дардини айтиб ҳасрат қилиш эмас. Мустамлака ўлкада ҳавас қилиб бўлмайдиган йўсинда ҳаёт кечирришга мажбур бўлган лирик қаҳрамон бугунги озод юрт эгаси бўлмиш ёш чоғдошига катта ёшдагилар номидан: *“Мен узоқ даврлар қароқчи бўлдим, Шу йўлда тобланди, ақл ва юрак. Ўзимдан ўтганин мен ўзим билдим, Сен нега қароқчи бўлмогинг керак?”*- дея савол қўйиб, уни одамийликка имкон бор шароитда одам

бўлишга чақиради. Шеърнинг бир қадар автобиографик характерга эга бўлган кейинги бандида тасвир ўзгача таранглик ва таъсир касб этади:

Мен ёпиқ кўрғонда яшадим кўркиб,
Нажот деворига тирмашдим узоқ.
Сен нега дунёга қарайсан хуркиб,
Нега сен бўлишинг керакдир кўрқоқ?

Ушбу банддаги “ёпиқ кўрғон”, “нажот девори” сингари тафсиллар рамзий маънога эга бўлиб, совет тузуми ва унинг мафкураси шоир ҳаёти ва ижодига ўтказган зуғумни ҳам англатади. Шоир риторик сўроқлар орқали ёш замондошини иллатлардан қутулишга чорлайди.

Шеърнинг кейинги бандида лирик қаҳрамонга қаратилган танқид тиғи яна ўткирлашиб: *“Қасамхўр дунёда кун кўрмоқ учун, Айтмаган ёлғоним қолмади бирор”*, - дейилади. Навбатдаги бандда эса иқрорнинг аччиғи юқори нуқтага етгандай бўлади: *“Дуч келган кимсага қилдим хушомад, Оёгин яладим мушукдай ҳатто. Эгилди бир замон тик бўлган қомат, Бу ҳолни сенга ҳеч кўрмасман раво”*. Шеърнинг моҳияти сўнгги мисрада яққол намоён бўлади. Лирик қаҳрамон эгаман юртда яшаётган ёш замондошининг ўзига қисматдош бўлишини истамайди. Бу истак ифодаси битикнинг яқунловчи аккордида ҳадди аълосига этади: *“Мен ҳаёт кўлида бўлдим ўйинчоқ, Бахтсиз яшаб ўтдим, сен бахтсиз бўлма”*. Шоир чоғдошини замонга мослашишга эмас, балки замонни ўзига мослаб эркин яшашга чорлайди.

Абдулла Орифнинг шеърияти ўзининг бадиий-эстетик таъсир қудрати билан миллатнинг кўзи олдингидан ўткирроқ, туйғулари бой ва нозикроқ бўлишига хизмат қилади. Бу шеърлар ўқирманни оламга шоир назари билан қарайдиган, олдинлари илғамаган, илғасада англамаган ҳолату туйғуларни туйишга хизмат қилади.

Абдулла Ориф ижодининг дастлабки босқичидаёқ: *“Мени чорлаётир олий бир жамол”*, - дея хитоб қилганди. Эҳтимол, ёш шоир ўша маҳалдаёқ Аллоҳ жамолини кўзда тутгандир. Балки, шеъриятнинг гўзал чўққиларини забт этмоқни истагандир. Энди бу тўғрида қатъий фикр айтиш қийин. Аммо унинг ўзбек бадиий сўзининг ифода имкониятларини орттиргани, исмсиз туйғуларга ном кўя билгани, ифодалаш мушкул руҳий ҳолатлар манзарасини чиза олгани билан нафақат миллий шеърият, балки миллий турмушимизда ҳам ўхшаши йўқ ҳодиса бўлиб қолганига шубҳа йўқ. Бундан буён наинки барча ўзбек шоирлари, балки бутун ўзбек миллати Абдулла Ориф таъсиридан холи бўлолмайди. Негаки, унинг ижоди миллий шеъриятнинг йўналишини белгилабгина қолмай, миллий руҳиятнинг таркибини ҳам тайин этди. Ўзбекнинг руҳиятини тасвирламоққа жазм қилган ижодкорки бор Абдулла

Ориф феноменига дуч келавергани, ундан таъсирланавергани янглиғ ўзбек сифатида шаклланаётган одамки бор, улуғ шоир булоқларидан сувланаверади. Чунки унинг битикларида акс этган туйғулар миллий руҳиятимизнинг таркибий унсурларига айланган.

Буюк шоирнинг вафоти билан унинг иккинчи – адабий умри бошланди. Адабий умрининг мангу давом этишига ишонамиз. То ўзбек деган миллат бор экан, Абдулла Ориф шеърларига эҳтиёж бўлаверади.

АБДУЛЛА ОРИПОВ ИЖОДИДА АДАБИЙ ТАНҚИД ВА БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ТАФАККУР ЯХЛИТЛИГИ

LITERARY CRITICISM AND THE UNITY OF ARTISTIC-AESTHETIC THINKING IN THE WORK OF ABDULLA ORIPOV

Бойназар Йўлдошев,

Филология фанлари доктори, профессор

Қарши давлат университети

Аннотация

Ушбу мақолада Абдулла Орипов адабиётшунослик тарихимизда муносиб ўринга эга бўлган адабий танқид ва бадиий-эстетик қарашлари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: адабий танқид, бадиий-эстетик қарашлар, ижод, тақлид, шеърят.

Annotation

This article examines Abdulla Aripov's literary criticism and artistic-aesthetic views, which have a worthy place in the history of literature.

Keywords: literary criticism, artistic-aesthetic views, creativity, imitation, poetry.

Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Абдулла Орипов адабий танқид ва бадиий-эстетик қарашлари билан ҳам адабиётшунослик тарихимизда муносиб ўринга эга. Абдулла Ориповнинг «Ёзувчи ва давр» рукнида 1988 йилда чоп этилган «Эҳтиёж фарзанди» китоби унинг турли йилларда ёзган адабий-танқидий мақолалари, адабий ўйлари, суҳбат-бахслари ҳамда бадиий публицистикасини қамраб олган.

Маълумки, Абдулла Орипов бутун ижоди давомида ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг долзарб масалаларига фаол муносабатда бўлган ҳозиржавоб санъаткор. Унинг адабий-танқидий қарашлари ифода этилган «Эҳтиёж фарзанди» китобидан жой олган бадиий ижод ва унинг табиати, сир-асрори, устозлар сабоғи, тенгдошлар ва шогирдлар изланишлари ҳақидаги қайдлари, ёзувчи ва танқидчи мулоқотлари ниҳоятда салмоқли бўлиб, ижодкор

авлодлар учун маҳорат мактаби вазифасини ўтаб келмоқда. Ушбу китобнинг «Эҳтиёж фарзанди» деб номланиши ҳам бежиз эмас. Чунки унда, энг аввало, хассос шоирнинг салоҳиятидан ҳикоя қилувчи ва ўқувчини ўз ижод устахонасига етакловчи бадиий маҳорат сирлари тўғрисидаги сеҳрли ва бағоят қизиқарли ва илмий мушоҳадалар баён этилади. Абдулла Орипов етук шоир сифатида «наسر тили»да сўзлашга ва ўқувчи билан ижод сирлари устида баҳслашишга ўзида ҳеч тўхтатиб бўлмайдиган ички бир эҳтиёж сезган. Қолаверса, шоирнинг ҳар бир асари эҳтиёж фарзанди сифатида майдонга келган ва ҳар бирининг ёзилиш, дунёга келиш тарихи бор. Абдулла Орипов мазкур китобда назм бобидаги узоқ йиллик кузатишлари ва бой тажрибаларини умумлаштириб, маҳорат сирлари ҳақида ўқувчига сабоқлар беради: «Шеърят киши қалбига, энг аввало, руҳий ташналик, чексиз эҳтиёж, ажиб бир сеҳр тариқасида кириб келади... шеър инсон руҳининг бир мунча ғайритабиий, айрича ҳолатидан туғилади... Армонга, гўзал изтиробга қондирилиши ниҳоятда зарур бўлган эҳтиёжга айланади. Бу эҳтиёж чинакам шоирни умр бўйи таъқиб этади» [Орипов, 1988: 9].

Мазкур китобда, биринчидан, Абдулла Ориповнинг насрий маҳорати, эстетик ва танқидчилик савияси ниҳоятда баландлиги намоён бўлса, иккинчи томондан, шоир ижод сирларининг моҳияти очилади, унинг етук адабий-танқидий ва бадиий-эстетик қарашлари кенг намоён бўлади. Абдулла Орипов адабий-танқидий мақолаларида баён этилган адабиётшунослик ва адабий танқидга оид муҳим муаммоларга муносабатини билдирган, ўз фикр ва мулоҳазаларини чуқур илмий хулосалар билан бойитади: «Кейинги йилларда ўзбек шеърлятида жуда кўплаб саккизликлар ёзилди, – деб ёзади Абдулла Орипов. – Албатта, бу шаклни биз учун янгилик деб бўлмайди. Аммо унинг ўзбек шоирлари томонидан жадал ишланишида, мен шеърятнинг қадимий бу шаклини янги мазмун билан бойитган авар шоири Расул Ҳамзатовнинг таъсирини ҳам кўраман. Ёки бўлмаса ўзбек классик шеърятининг энг қадимги шаклларида бири бўлмиш рубоийни учратар эканман, бунда яна анъаналарнинг ўзаро таъсири ва алоқаси жараёнларининг намоён бўлишини англайман. Гап шеърлий шаклларни бир-бировидан олишдагина эмаслиги тушунарлидир. Ҳар бир шоирнинг ижоди ўз халқининг миллий характерига ёки унинг ўзига хос бўлган теран специфик хусусиятларига эгадир» [Орипов, 1988: 89]. Абдулла Орипов бадиий ижоддаги тақлид, адабий таъсир масалаларига ҳам адабиётшунос олим сифатида жиддий ёндашади. У тақлид масаласини образли қилиб шундай тушунтиради: «Тақлид – бутун маҳалла биладиган оқсоқолнинг чопонини бошқа биров кийиб юргандай гап. Таъсир эса бошқа нарса. Таъсир – Абдулла Қаҳҳор таъбири билан айтганда, устоз кўзойнагини тақиб олиб ўз материалингни текшира бошлашингдир.

Буларнинг барчасидан фаркли ўлароқ таъсирланиш ҳам борки, у номунтазам бўлиб, турли-туман воқеа ва ҳодисаларга киши қалбининг акс-садо беришидир». Кўринадики, Абдулла Орипов тақлид ва таъсир масалаларини ёритишда ёзувчи-танқидчи сифатида унинг ўзига хос моҳияти ва муаммоларини чуқур ҳис қилади, масалага ҳар томонлама жиддий ёндашади. Маълумки, бундан олти асрча муқаддам ёзилган Данте Алигерининг «Илоҳий комедияси» инсон кўли билан яратилган буюк асарлардан бири ҳисобланади. Бу асар инсоният барпо этган улкан маънавий хазинадир. Абдулла Ориповнинг таъкидлашича, шоир мазкур асар таржимасига ҳадиксираб, аммо қалб даъвати билан киришади, ўзбек тилининг сўз бойлигини намойиш этади. Шу билан бирга, Абдулла Ориповни аксарият сўзларимиз луғатлар «қабри»га кўмилиб қолаётганлиги ҳам ташвишлантиради. Унинг фикрича, меъёр билан луғатимиздан аллақачон ўз ўрнини топган форсча, арабча сўзлардан, албатта, фойдаланиш зарур. Умуман, ижодкор ўз мақолаларида тилнинг бойлигига бадиий адабиётнинг равнақини белгилаб берувчи омиллардан бири деб қараш лозимлигини доимо таъкидлаб келади.

Муаллифнинг ўз адабий-танқидий ва эстетик қарашларини ижод уйғунлиги билан омукта қилиб юборишини «Безовта ўйлар сеҳрида...» деб номланган мақоласидан олинган қуйидаги мисол ҳам тўлиқ исботлайди. «Она сайёра» шеъримни ёзиб бўлгач, роса олти ойдан сўнг чоп эттирдим, – деб хотирлайди Абдулла Орипов, – Нега? Унда «Бир зумлик безовта ўйлар сўнгида, яна рухсорингга термуламан жим» деган сатрлар бор. Унинг дастлабки нусхаларида «безовта» сўзи ўрнига «ташвишли», «ғамгин» ва шунга ўхшаган сўзларни ишлатгандим. Аммо, назаримда, улар жойига тушмагандек туюлаверди. «Қанақа сўз топсам экан?» деб анча бош котирдим. Бир куни менинг ҳолимни кўриб, ўртоқларимдан бири «Нега бунчалик безовтасиз?» деб қолувдики, ўша мен хуноб бўлиб излаган сўзим ана шу «безовта» эканини ҳис этиб, суюниб кетдим-у, дўстимга: «Раҳмат! Энди безовта бўлмайман» дедим». Кўринадики, Абдулла Орипов бадиий сўз танлаш ва ишлатишга ўта масъулият, юксак эстетик дид асосида ёндашади, ўз олдида ниҳоягда катта талаблар кўяди. Шу боисдан унинг шеърларида ортиқча сўзлар учрамайди. Француз ёзувчиси Анатолий Франс айтганидек, «сўз сеҳридан кучлироқ сеҳр йўқ» экан, ижодкор ҳар бир сўз, ҳар бир жумлани ўз ўрнида муносиб тарзда ишлатмоғи лозим.

Абдулла Орипов «Инсон қалби билан ҳазиллашманг...» деган мақоласида адабиётимиздаги юксак ижодий равнақни эътироф этади ва уни халқимиз адабиёти учун ҳазилакам ютуқ эмас, деб баҳолайди. Табиат сингари адабиёт ҳам ҳамиша янгиланиб боришини, лекин у ўзининг асосий

принципларини сақлаб қолишини таъкидларкан, хўш, Қодирий ва Ойбек давридан буён роман қурилишида қандай ўзгаришлар юз берди? Шекспир давридан буён, режиссёрлар минг хил мақомга солиб кўришмасин, сахна қоидаларида қандай ўзгаришлар содир бўлди? Шеърятда-чи? деган савол кўяди ва бадий асарнинг инсонпарварлик, жаҳонни уйғотиш борасидаги юксак ғоялари доимо ўзгармас эканлигини уқтиради.

Маълумки, наср хусусиятлари (ёки саж) халқимиз дostonларида қадимдан мавжуд бўлиб, унинг яхши намуналари бор. 70-йилларда шоирларнинг шеърятга наср хусусиятларини олиб кириши тез-тез кўзга ташлана бошланди. Хусусан, Омон Матжон, Усмон Азим ва бошқа ижодкорларнинг бу борадаги изланишларини ижобий баҳолаш мумкин. Аммо насрнинг ҳам ўзига хос хусусиятлари борки, уни ёддан чиқармаслик керак. Ижодда бунга риоя қилинмаса, муваффақиятсизликка юз бурилади. Шу боис, Абдулла Орипов таъкидлайди: «Мен насрда муаллифнинг дирижёр бўлишини эътироф қилмайман. Наср насихатни кўтармайди: халқ қандай гапирса, шундай гапириш керак, Шолохов, Қодирий, Ойбек, Қаҳҳор шу жиҳати билан халққа ёқади. Айрим ёзувчиларимиз ижобий қаҳрамоннинг кайфиятига кўшилиб, салбий қаҳрамонни сўкиб кетади. Муаллиф холис бўлиши шарт. Шукур Холмирзаев ижодида бошда шу яхши хусусият бор эди. Насрга қандай юк ортиш керак – буни Асқад Мухтор яхши эгаллаган. Муаллиф қаҳрамонни ёмон кўрса, унга ёмон номлар кўймаслиги керак. Чунки ёмон одам онасидан ёмон бўлиб туғилмайди-ку? Ота-онаси ҳам унга яхши номлар кўйган бўлади. Ҳаққонийлик шуни талаб этади. Йўқса, ўқувчи унинг номига қараб, салбий қаҳрамон эканлигини, бундан кейинги қилмишлари салбий эканлигини сезиб қолади».

Шу нарсани алоҳида таъкидлаш лозимки, Абдулла Орипов ўз адабий-танқидий ва эстетик қарашларида халқ оғзаки ижоди ва бахши шоирлар репертуари хусусида ҳам ўз нуқтаи-назарига эга. Шоирнинг эътироф этишича, ҳозир Алпомишнинг борлигига биров ишонмайди. Лекин турли ёлғон-яшиқлар яшаб турганда, нега ҳалол, мард, танти Алпомиш яшамаслиги керак?! Биз Регистонни қуриб қанчалик ҳайратга тушсак, бахши шоирлардан ҳам шунчалик ҳайратга тушамиз. Улар ҳам қадим замонлардан келаётир.

Халқ оғзаки ижодида баён ишонтирмаслиги мумкин. Лекин хулоса ишонтиради. Унда миллатлар талашмайдилар, фақат умуминсоний туйғулар улуғланади. Халқ оғзаки ижодига беписандлик адабиётдан йироқликдир. Абдулла Ориповнинг адабий мақолаларида, суҳбат ва бадий публицистикасида халқ оғзаки ижодига фаол муносабат билдирилади, шу билан бирга ўзининг шоир-ижодкор сифатида халқ оғзаки ижодидан қандай фойдалангани ҳақида китобхон билан сезиларли илмий мулоқот қилади.

Абдулла Ориповнинг яна бир туркум адабий-танқидий мақолалари борки, уларда муаллиф ёш ижодкорлар билан қизғин суҳбат қилади, уларга ижод, бадиий маҳорат сирларига адабиётшуносликдаги долзарб муаммоларни омухта қилиб юбориб, муҳим сабоқлар беради. Абдулла Орипов адабиёт бўстонида ёшларнинг аксарияти ўз овозига эга бўлиб кириб келаётганлигидан қувониб адабий-танқидий мақолалар ёзган. Абдулла Орипов инсон ички руҳияти ва қалбининг энг нозик ва мураккаб томонларини чуқур англаб етган шоирдир. Шунинг учун ҳам унинг ёш ижодкорлар ҳақидаги фикр-мулоҳазалари ҳам ниҳоятда сермаъно ва ибратлидир. «Ёш талант биз учун янада кадрлироқ янгиликдир, зеро, бугунги ёшлар келажакда адабиётимизнинг асосий кучи бўлиб қолади, – деб қайд этган эди Абдулла Орипов. – Ёш ўзбек шеърининг китобхонни нимаси билан қувонтиради? «Янгилик, менинг билишимча, шеърнинг мазмундорлигида, – деган эди Қайсин Кулиев, – шунингдек, шоир ички оламининг мустақиллиги, услубининг такрорланмаслиги ҳамдир. Янги образлилик системаси янги шакллар топилмаси, айтилса, ёшлар ижодига хосдир. Уларнинг ҳар бири ўз ҳолича қизиқиш уйғотади, ижодида қутилмаган ўхшатишлар, метафоралар учрайди, ҳиссиётлар самимияти ҳам мавжуд. Шунга қарамай, уларни юксак мезонлар билан ўлчайдиган бўлсак, шу ўринда новаторлик ниқобидаги такрорни ва баъзан қаҳрамон характерида оғишларни сезиб қоламиз, баъзи ўринларда сўз ишлатишда бирёқламалик ҳам йўқ эмас».

Абдулла Орипов адабий-танқидий мақолаларида ёш ижодкорларга ижодий муваффақиятларга эришиш учун, энг аввало, реал ҳаёт воқелигини чуқур ўрганиш, яхши анъаналарни бадиий умумлаштириш зарурлиги ҳақида маслаҳатлар беради.

Шу нарсани алоҳида қайд этиш керакки, Абдулла Орипов шеърининг ҳақида, адабий-танқидий қарашларида ҳам тез-тез ўзбек халқи ўтмишига, тарихга муурожаат қилиб туради. Аксарият асарларида тарихийлик билан замонавийликни бир-бири билан мустаҳкам боғлаб, ҳайратли хулосалар чиқаради. Масалан, шоирнинг биргина «Ўзбекистон» шеърининг икки-уч минг йиллик тарих сиғдирилган. Шеърни ўқир экансиз, кўз олдингизда Беруний, Амир Темур, Улуғбек, Навоий каби буюк сиймолар ва уларнинг улуғ ишлари жонланади. Шеърда бошидан охиригача драматик таранглик мавжуд бўлиб, эзулик ва олижаноблик, тенглик ва адолат учун кураш ғояси баланд пардада қуйланади. Юксак бадиият ва жозибали фикр салмоғига эга бўлган сатрлар ўқувчи қалбининг туб-тубигача етиб боради. Қуйма ташбеҳлар, ноёб топилмалар шеърни ҳар томонлама безаган, сўзларга янгилик жило берган. Таъбир жоиз бўлса, «Ўзбекистон» шеъри Ватан ҳақидаги гўзал ва бетакрор

сабоқ. Ёшлар бу шеърни ўқиб она юртга нисбатан чексиз муҳаббат ҳис қилсалар не ажаб.

Маълумки, ёзувчи-танқидчининг эстетик ва адабий-танқидий қарашлари қанчалик чуқур илмийлик касб этса, у ёзувчи-санъаткор сифатида ҳам бадиий жиҳатдан пишиқ асарлар ёзганлиги маълум. Демак, ҳар бир ёзувчи ўз истеъдоди доирасида адабий-танқидий фикрлар билдириб, ҳеч бўлмаганда ўз асарларининг ёзилиш тарихини ва ўз эстетик қарашларини баён этиши билан бадиий маҳорат ҳақида баҳслашиши ҳам табиий ҳолатдир. Биргина ёзувчи ва ўқувчи мулоқоти ёки ёзувчи ва танқидчи баҳсининг ўзи ҳам бадиий маҳорат ва танқидий-эстетик тафаккур ривожига салмоқли улуш бўлиб қўшилиши мумкин.

Хуллас, ёзувчи-танқидчининг ҳам профессионал танқидчи билан бир сафда турадиган илмий-назарий фикр ва хулосалари бадиий ижод ва адабий жараён оламида алоҳида аҳамият касб этишини инкор қилиб бўлмайди. Демак, ёзувчи-танқидчининг образли, таъсирчан ва эҳтиросли услубдаги адабий-танқидий қарашлари ўқувчига тез етиб боради, бадиий ижоднинг равнақи ва китобхон дидини ўстиришга муносиб хизмат қилиб, адабий танқидий жараёнга ҳам ижобий таъсир ўтказади.

Адабиётлар:

1. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. // Адабий мадолалар, суҳбатлар, бадиий публицистика. – Тошкент: 1988.

Абдулла УЛУГОВ

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети доценти, филология фанлари номзоди

e-mail: ulugovabdulla05121960@gmail.com

(Ўзбекистон)

Донишманд шоир

Аннотация: Абдулла Орипов (1941–2016) – ўзбек шеърлятини янги босқичга кўтарган шоир. Унинг илк шеърлар тўплами “Митти юлдуз” 1965 йилда босилиб чиққан ва ўзбек адабиётидаги ўзига хос воқелик сифатида эътибор қозонган. Шоирнинг шеърлари ҳаёт ҳодисаларини теран бадиий таҳлил қилишга асосланган. Уларда турмуш воқелиги кенг кўламда қамраб олинган ва ундаги зиддиятлар диққат марказига қўйилган. Ўтган даврда Абдулла

Ориповнинг олтмишдан ортиқ китоби босилиб чиққан. У Ўзбекистон давлат мадҳияси шеъри муаллифидир. Абдулла Ориповнинг шеър, дostonлари фалсафий шеъриятнинг мукамал намунаси сифатида эътибор қозонган. Уларда эзгулик ва ёвузлик ўртасидаги кураш кўрсатилиб, чуқур фалсафий мазмунга эга теран умумлашма хулоса чиқарилади. Шоирнинг шеърлари ижтимоий воқеликка ўзига хос ёндашилиши ва инсон қалби сир-синуотларининг янги қирраларини очиб бериши билан диққатни жалб этади.

Абдулла Орипов жаҳон адабиёти хазинасидан ўрин олган улуғ италян шоири Алигъери Дантенинг “Илохий комедия” асарини, А.Пушкин, Н.Некрасов, Т.Шевченко, Л.Украинка, Р.Ҳамзатов, Қ.Қулиев каби машҳур шоирлар шеърларидан намуналарни ўзбек тилига таржима қилган. Абдулла Ориповнинг шеърий тўпламлари рус, турк, тожик, уйғур тилида босилиб чиққан. Унинг ижоди замонавий ўзбек адабиётида алоҳида ўрин тутди.

Калит сўзлар: Абдулла Орипов, ўзбек шеърияти, ижтимоий ҳаёт, инсон қалби, эзгулик ва ёвузлик кураши, қиёслаш, бадий таҳлил, фалсафа, хулоса.

Абдулла Орипов фалсафий фикр ҳамиша эътибор топиши, бу жиҳатдан чин шоирнинг сўзи алоҳида салмоқ касб этиши, шу боис шон-шухрат бобида ҳеч ким шоирга тенг келолмаслиги, бу ҳодиса ўтмиш замонларда қолиб кетмагани, у ҳозирги илмий-техника даврида ҳам шундай эканини амалда намоён қилиб яшади. У мамлакатимизда эмас, қардош ўлкаларда ҳам ғоят машҳур эди. Кўпчилик ўзи яшаётган туман ёки вилоят ҳокимининг, вазирнинг исмини, фамилиясини билмасдан юраверади. Лекин ҳамма Абдулла Ориповни танир эди, “шоир” деганда барча дастлаб уни тасаввур қилар эди, миллионлаб кишилар унинг мухлиси, шеъриятининг шайдоси эди, минг-минглаб одамлар унинг шеърларини ёддан биларди, мамлакат миқёсидаги расмий тадбирларда, Мустақиллик байрами, Наврўз тантаналарида, муассасалар, корхоналар, хонадонлардаги йиғинларда, албатта, унинг шеърлари ўқиларди, ҳозир ҳам халқаро спорт мусобақалари, Олимпия ўйинларида, давлат раҳбарларининг расмий ташрифи чоғида Ўзбекистон мадҳияси янграганида ҳамма беихтиёр ҳаяжонга тушади. Мамлакатимиз мадҳиясининг сўзларини Абдулла Орипов ёзганини эса боғча болалари ҳам билади. Ўзбекистон мадҳияси дунёдаги энг маънодор, энг жарангдор, энг таъсирчан мадҳия эканини хорижликлар ҳам эътироф этишади.

Абдулла Орипов файласуф шоир сифатида эл эътиборини қозонди. У Фитрат, Чўлпон, Ҳамза, Ғафур Ғулом, Ойбек, Ҳамид Олимжон, Мақсуд Шайхзода, Миртемир сингари салафларникидан бошқачароқ, уларникидан баландроқ шеърят тақдим этиб, ҳақиқий шоир файласуф, донишманд бўлишини намоён қилди. У адабиётга “Митти юлдуз” деб номланган юпқагина шеърӣ тўплами билан кириб келди ва бирданига ўзбек адабиётининг порлоқ юлдузига айланди. У ҳар бир шеърӣда бошқаларнинг гапи, ҳар қанча мазмундор бўлмасин, шоирнинг сўзига тенг келмаслиги, уникидек таъсир кучига эга бўлмаслигига барчани ишонтирди. “Митти юлдуз” муаллифининг шеърлари асл шоирнинг сўзлари таъсири ҳеч қачон сўнмаслиги, унинг юксак шеърӣяти учун макон ва замон чегаралари аҳамиятсиз эканлиги далил бўлиб турибди. Ўтган давр мобайнида Абдулла Орипов шеърлари ҳеч кимни эътиборсиз қолдирмади. Улар дарҳол барчанинг диққатини жалб қилди, баҳс-мунозара қўзғатди, шоирнинг шеърларига тош отганлар бирданига бадном бўлиб, уларнинг ҳасадгўйлиги, нияти бузуқлиги яққол сезилиб қолди. Шоирнинг ҳар бир шеърӣ ўқувчиларга сўзларнинг аввал сезилмаган тароватини очиб, унинг янги маъно қирраларини тақдим қилди. Шунинг учун ҳамма – мамлакат раҳбарлари ҳам, турли даражадаги амалдорлар ҳам, оддий одамлар ҳам, дунёни кезганлар ҳам, кишлоғи, овулидан нарига чиқмаганлар ҳам унинг ижодига, шахсий ҳаётига қизиқиш, алоҳида эътибор билан қаради. Шу боис кўпчиликнинг ғам-ташвиши билан яшайдиган тадбиркорлар, шахсий манфаати йўлида дунёга ўт қўйишдан тоймайдиган худбин шуҳратпарастлар, имон-эътиқод, қиёмат, жаннат ва дўзах, ҳақиқат ва адолат тўғрисида ваъз айтгани ҳолда, масжиднинг пулини еб кетган қаллоблар, порахўрлик, таъмагирлик қилишдан уялмайдиган очкўзлар, турли тоифадаги хулқи бузуқлар шоирнинг шон-шуҳрати соясига ўзини урди. Шоир эса атрофида ўралашганларнинг гап-сўзи, ҳолатини шеърӣ учун мавзу қилиб олди. Бу унинг шеърӣятига ҳаётӣлик ва ранг-баранглик бағишлади. “Митти юлдуз” муаллифининг ҳар бир шеърӣ чуқур ҳаётӣ асосга эга экани аён кўриниб туради. У турмушдаги ҳар қандай воқеа-ҳодисадан, кўриб кузатганларидан, қулоғига чалинган биргина сўз, ўз ўрнида айтилган жумлаю луқмадан теран маъно чиқара билишнинг ҳадисини олган сўз санъаткори эканини кўрсатиб, шеър битиш унинг учун нафас олишдек табиий эҳтиёжга айлангани очик-ошкор қилади ва шеърларида одамларнинг қалбидаги ҳис-туйғу, кечинмаларни жуда содда, тушунарли ва таъсирчан ифода этди. Шу боис Абдулла Орипов шеърӣятининг эшиклари барча учун ҳамиша очик туради. Унинг шеърлари мумтоз адабиёт ихлосмандларини ҳам, Ғарб адабиёти шайдоларини ҳам, модерн мухлисларини ҳам бирдай қизиқтиради, ҳамманинг талаби, эҳтиёжини тўла-тўқис қондиради.

Шоирнинг шеърларига мурожаат қилган ҳар бир киши, албатта, маънавий озиқ олади. Унинг шеърляти таровати турли тоифадаги одамларнинг қалбига сизиб кириб, руҳини ғуборлардан фориг қилади. Чунки бу шеърлят дунёдаги барча халқларга хос умуминсоний туйғуларни ўзида мужассамлаштиради.

Абдулла Ориповнинг исталган шеъри у файласуф шоир эканига исбот, далил бўла олади. Масалан, унинг “Қисмат” шеърида: “Қисматни нарироқ суриб бўлмайди, // Билмайсан, йўлингни қай вақт тўсишин. // Кўз билан ҳеч қачон кўриб бўлмайди // Дарахт ва тирноқнинг қандай ўсишин. // Нафрат ҳам улғаяр секин қатма-қат, // Эзгу ҳисларингга бермай кўяр эрк. // Болам, сен уни ҳам этгин назорат, // Дарахт ва тирноқни қайчилагандек” дейилади (Орипов А. Қуёш бекати: Шеърлар, мақолалар, суҳбатлар, таржималар. – Тошкент: “Sharq”, 2010. – 384 б. – 95-бет).

Абдулла Ориповнинг шеърлари шакл ва мазмуни, фалсафий маънодорлиги, ҳаёт воқелигини ҳаққоний акс эттириши, бадий бўёқдорлиги каби қатор хусусиятларига кўра жаҳон шеърлятининг юксак мезонларига тўла-тўқис жавоб бера олади. Дунёнинг энг машҳур шоирлари шеърлари аслиятини бу ўзбек шоири шеърлари билан ёнма-ён кўйиб ўқиб кўрганлар, албатта, бунга ишонч ҳосил қилади. “Митти юлдуз” шеърлар тўплами муаллифи ҳаёт ҳодисаларига ҳамиша донишмандларга хос теран нигоҳ билан қарайди. Унинг шеърларида лирик қаҳрамоннинг ҳис-туйғу, ўй-кечинмалари жуда таъсирчан ифодаланади, сатрларда сўзлар турфа рангларда жилоланиб, қалбнинг қатларига етиб борадиган оҳанг таратиб жаранглайди. Шоир кўпчилик эътибор бермайдиган нарса-ҳодисалар орасида узвий алоқадорлик мавжудлигига эътибор қаратиб, улардан ҳеч кимнинг ҳаёлига келмаган фалсафий теран маъно чиқаради. Бу унинг ижодига хос хусусиятлардан бири саналади. Шоир бошқа ижодкорлардан фарқли ҳолда, ғайритабий бир зукколик билан инсон табиати жумбоқлари, кишилараро муносабатлар мураккаблигини очиб беради. У шу мақсадда ҳеч кимнинг ҳаёлига келмаган нарсаларни бир-бирига қиёслайди. Масалан, “Қисмат” шеъридагидек: “Кўз билан ҳеч қачон кўриб бўлмайди // Дарахт ва тирноқнинг қандай ўсишин” дейди. Бир қарашда, дарахт билан тирноқ орасида ҳеч қандай ўхшашлик, яқинлик йўқдай кўринади. Лекин дарахт ҳам, тирноқ ҳам ўсади. Демак, улар ўртасида яқинлик, ўхшашлик кузатилади. Шоирнинг синчков нигоҳи, ундаги ғайритабий зукколик барчани бу ҳақиқатдан хабардор қилади. “Қисмат” донишманд шоирнинг сўзи, маслаҳат ва ўгити бўлиб жаранглайди ва кишиларнинг онгини бойитади, ундаги сўзларнинг оҳанги қалбларни бирданига ром етиб, кишини беихтиёр ўйлантириб кўяди. Чунки шеърнинг сайқалланган сатрларида ифодаланган теран фикрлар дабдурустдан

кишининг онгу шуурини ўз гирдобига тортиб кетади. Бу пайтда ҳар бир одам ўзининг алланималар ҳақида ўйлай бошлаганини, қандайдир туйғулар уни безовта қилаётганини, руҳида аллақандай ўзгариш рўй бераётганини сезади. Абдулла Орипов шеърларини ўқиган киши нафақат шоир яшаган, балки ўзи яшаётган нотинч, ғалаёнли давр нафасини ҳам аниқ сезади ва бу дунёда яйраб-яшнаб юрганлардан кўра азобланиб, изтироб чекиб кун кечираётганлар кўплиги, ўзи ҳам ўшалардан бири экани тўғрисида ўйлаб қолади. Ҳамда беихтиёр шоир шеърларига қизиқиб қолади, мутолаа қилаётганида улар маънолар хазинаси эканини англаб етади. Чунки донишманд шоир теварак-атрофдаги оддий нарса-ҳодисаларда ҳам қат-қат маъно мавжудлиги, ҳар бир тирик жон минг бир ташвиш, ғам, шодлик, қувонч гирдобиде яшашини кўрсатади. Шоирнинг “Ўзбекистон”, “Баҳор”, “Юртим шамоли” сингари ҳажман катта шеърларида ҳам, жажжи тўртликларида ҳам теран мазмун балқиб туради. Ҳар гал ўқилганида улардан янги маънолар англашилади. Ўтаётган йиллар, шиддат билан эсадиган вақт шамоли, ижтимоий турмуш тўфонлари, мафкура, сиёсат ўзгариши шоир шеърлари мазмунини йўққа чиқаролмайди. Аксинча ҳар бир авлод шоир шеърларидан ўзини қийнаган саволларга жавоб олиб, руҳи таскин топади. Чунки шоир ўзининг ғайритабиий сезгиси билан барча давр одамларининг ҳолати, кайфиятини, уларнинг қалбини нима безовта қилаётгани, ташвишлантираётганини донишмандларга хос зийраклик билан ҳис этади. Асрларнинг тарихи, ҳозирги кун ҳодисалари донишманд шоирнинг сезгир қалбидан сизиб ўтиб, унинг шеърларига маъно-мазмун бергани яққол сезилади. Шоир ўз шеърларида инсон қалби сирлар хазинаси экани, у тушуниб, англаб бўлмас жумбоқлигини таъкидлаб, Сўзнинг бағридаги яширин маъно қуввати, унинг таъсир қудрати донишманд шоирларнинг шеърида юзага чиқишини исботлайди. Бундай шеърларда эса барча замон кишиларининг ҳам дунёвий, ҳам руҳоний олами очилади. Шу боис Шайх Низомий Ганжавий: “Аҳли қалам чекса-да сўз ранжини, // Сўзда очур икки дунё ганжини” дейди (Шайх Низомий Ганжавий. Махзан ул асрор: Достон. – Тошкент: “Kamalak” нашриёти, 2016. – 216 б. – 67-бет). Абдулла Орипов шеърларида сўзлар турли луғатлардаги изоҳи, шарҳи кўпроқ ва кенгроқ маъно англатади. Сўзнинг кундалик турмушда қўлланганидан кўра чуқур маъно англатиб, ҳикмат даражасига кўтарилиши эса “нукта дейилади.

Зўравонлар, шуҳратпарастлар, иззаталаб кимсалар дўқлаб, дағдаға қилиб, сўзини ўтказмоқчи бўлади. Чунки уларнинг хулқи, табиатига телбаларга хос қаҳр-ғазаб, шафқатсизлик, шошма-шошарлик, такаббурлик, кучини кўз-кўз қилишга мойиллик устунлик қилади. Донишмандлар эса ҳамма билиши зарур

хақиқатни вазминлик, босиқлик билан оҳиста, майин, мулойим тарзда уқтиради. Абдулла Ориповнинг шеърларида майин, мулойим кинояли оҳанг устувор бўлиб туради. Бу шоирнинг ҳикматга йўғрилган шеърларини ўқиган, тинглаган ҳар бир киши бадиий сўз инсоннинг руҳи учун зарур озуқа эканини, албатта, сезади ҳамда шоирнинг қалби энг кучли оҳанрабо экани, табиатдаги ва жамиятдаги ҳар бир ўзгариш унга урилиб, акс садо бериши, ҳеч бир нарса шоирнинг ўткир нигоҳидан четда қолмаслиги ва у энг оддий, арзимас нарса-ҳодисаларга қараб ҳам янги фикр айта олишига, чинакам шоир донишманд бўлишига, энг таъсирчан сўзларни танлаб, фикрини тушунарли тарзда ифодалаш истеъдод белгиси эканига яна бир бор ишонч ҳосил қилади.

Абдулла Орипов шеърлари мавзуларининг ранг-баранглиги билан ҳам эътиборни тортади ва улар истеъдодли инсонлар аввало шоирлар табиат ва жамият ҳодисалари, олис ўтмиш ва бугунги кун воқеаларига ҳеч қачон бефарқ қарамаслигига ёрқин далил бўла олади. Шоир шеърларида мавзуларнинг хилма-хиллиги адабиёт, жумладан, шеърият учун ҳаётнинг ҳамма ҳодисаси, одамларнинг феъл-атвори, хулқи, ўзгарувчанликка мойил табиати ва уларнинг ўзаро муносабати манба, материал, объект бўла олишини билдиради. “Қишлоқ оқшомлари” (2009) шеърларида: “Терак учларида офтобнинг юқи, // Сўнгги чўғларини ташлар ўчоққа. // Қайдандир келади кафгир тақ-туқи, // Урилар пиёздоғ ҳиди димоққа” (Орипов А. Қуёш бекати: Шеърлар, мақолалар, суҳбатлар, таржималар. – Тошкент: “Sharq”, 2010. – 384 б. – 152-бет) каби сатрлар эса шоирнинг сўзлари таъсирчан ўхшатиш, бир-биридан чиройли сифатлаш, диққатни жалб этадиган муболағаларга асосланишини исботлайди. Абдулла Ориповнинг шеърлари ўзбек тили бой тил экани, у ҳаётнинг ҳамма ҳодисаларини, инсоннинг турфа хил кечинма, ҳиссиётларини таъсирчан тарзда ифодалаш имконига эга эканини намоён этади. Айни чоғда улар сўз санъати, хусусан, шеърият ўзига хос ритмик нутқ сифатида бағрида турфа хил мусиқа оҳанглари жамланганини, асл шеър қалб ҳодисаси эканини, у шоир қалбида жўш урган, эҳтиросли туйғу, кечинмалардан туғилишини, унда барчага таниш ҳиссиёт, ўй-фикрлар таъсирчан тарзда акс этишини эсга солади. Шоирнинг шеърлари сўзлар қатида хилма-хил маъно мужассамлиги, ўз ўрнида қўлланганида уларнинг маъно жилолари очилиб, таъсир қуввати ортиши, ҳар бир сўз ҳар хил ҳолатни ифодалашга мослангани тўғрисида тасаввур уйғотади. Абдулла Ориповнинг шеърлари бошқа шоирларнинг шеърларидан нафақат маънодорлиги, балки шеърий нутқнинг мукаммал кўриниши эканлиги, сўзларининг мусиқийлиги, қофияларининг жарангдорлиги жиҳатидан ҳам устун туради. Ҳар бир қаламкаш донишманд шоирнинг бу борадаги юксак

маҳоратига ҳамиша ҳавас билан қарайди. Абдулла Ориповнинг қофия кўллашдаги санъаткорлиги барча шоирлар учун ибрат намунаси бўла олади. Унинг кичкина тўртликлари, бошқа шоирлар ижодидан қилган таржималари ҳам шеърнинг бутун бадиий гўзаллиги, жарангдорлиги қофия таъсирида юзага келишига ёрқин исбот бўла олади. Кўпгина шоирларнинг шеърлари қофияларининг заифлиги, мажруҳлиги боис оддий гапларнинг шунчаки тизмасидай жуда жўн бир нарса бўлиб туюлади. Абдулла Ориповнинг шеърлари эса улардан фаркли ҳолда, пишиқ-пухта, таъсирчан ва жарангдор, тўқ, тўлиқ қофияларга асосланади. Бу хил қофиялар шеърнинг мазмунини бўрттириб, уларнинг таъсирчанлигини оширади. Шеърда қофияга алоҳида эҳтибор қаратиш бу шоир ижодига хос муҳим хусусиятлардан бири экани аниқ билиниб туради. Шоир кишига хуш ёқадиган, мағзи тўқ қофияларга асосланган шеърларида эътибор қаратилган мавзунинг янги қирраларини очиб, уларни кутилмаган тарзда талқин қилади. “Митти юлдуз” тўплами муаллифининг ҳар бир шеъри уч қисмдан ташкил топади. Яъни дастлаб муайян фикр ўртага ташланиб, унга эътибор қаратилади. Кейинги сатрларда шу фикр турли қиёслашлар асосида кенгайтириб, ривожлантириб борилади ва унинг асосида кутилмаган хулоса чиқарилади. Бунга “Баҳо” шеъри аниқ мисол бўла олади: “Одамзод қавмига ташласанг назар, // Ғоятда ўхшашдир уларнинг турқи. // Аммо сийратига разм солсанг гар, // Тамом бошқа эрур атвори, хулқи. // Бири оқил бўлса, ўзгаси нодон, // Бири маҳмадана, бири гиначи. // Бирови босиқдир мисоли карвон, // Бирови бетайин, гўё ниначи. // Одам сувратига ишонманг асло, // Учраган ҳар кимса бўлолмас ҳамдам. // Ажиб улфат эрур тунд киши гоҳо, // Балки қизиқчининг ичи тўла ғам. // Яшаймиз, кимнидир назарга илмай, // Ўтиб бораверар қувончлар, ғамлар. // Ҳаёт шу, кўпинча, аслини билмай, // Бир-бирин баҳолаб юрар одамлар” (Ўша манба. 183-бет).

Шоирнинг аксарият шеърларида зорланиш, нолиш оҳанги устунлик қилади. Аммо бу тушқунлик, умидсизликдан эмас, ҳаётсеварликдан, одамларни ёмон кўрганликдан эмас, балки шоирнинг айрим кимсалар ҳасадгўйлиги, такаббурлиги, носамимийлиги, феъл-атвори, хулқидаги яна бошқа иллатлардан тўйганлиги, азобланганидан келиб чиққани билиниб туради. Шоирнинг “Баҳо”га ўхшаган шеърлари диққатни инсон жумбоғига қаратиши, турмуш тўғрисида тўғри тасаввур уйғотиши, одамлараро муносабатлар байрам, тўй-тантаналаридан иборат эмаслигини англатиши, асл шоирлар кишиларни ҳаёт ҳақиқатидан огоҳ этадиган донишманд мураббий эканлигини билдириши билан аҳамият касб этади. Бу жиҳатдан Абдулла Орипов адабиёт мураббий эканлигини, истеъдодли шоир, адиблар

кишиларга ҳаёт ҳодисалари моҳиятини тушунтириб берадиган донишманд сифатида яшашини кўрсатадиган ижодкорлар сирасига киради. Чунки унинг шеърларида ҳаёт ҳодисаларининг теран мазмуни содда, тушунарли сўзлар орқали жуда таъсирчан ифодаланади. Ҳеч ким одамларнинг хулқи, феъл-атвори, ўзаро муносабатларини бу шоир сингари енгил ва жонли тилда равон, силлиқ ифода қилолмайди. Унинг шеърларида теран фалсафий фикр шеърӣ нутқ гўзалликлари билан ўзаро уйғунлашиб кетади. Шоирнинг шеърларигина эмас, мақола ва суҳбатларидаги мулоҳазалари ҳам у замонасининг зукко, донишманд кишиларидан бири бўлгани ва бундай одамлар ижтимоӣ ҳаётга танқидий қараб, ундаги ҳодисаларни бўлакча талқин қилишини кўрсатади. Абдулла Ориповнинг ижодига хронология бўйича қаралса, унинг шеърларидаги фалсафий мазмун муттасил тарзда кенгайиб, чуқурлашиб боргани, шунинг баробарида уларда ҳаётдан нолиш, зорланиш оҳанглари кучайганлиги сезилади. Асарларнинг бу каби хусусиятлари эса муаллифнинг дунёқараши, феъл-атвориға бевосита боғлиқ бўлади. Абдулла Ориповнинг “Бу дунёға келиб, ҳаётда кўп нарсадан кўнглим қолди. Сабаби, адолат деган нарсанинг нисбий эканлигини кўрдим. “Чархи кажрафторнинг бир шеваидан доғман” деган нарсаларни кўрдим. Ҳолбуки, мен бугунги кундан, Мустақилликни қўлга киритганимиздан жуда ҳам миннатдорман. Президентимиз, халқимиз мени қадрлади, Қаҳрамон даражасига чиқарди. Бу – жуда муҳим гаплар. Лекин маънавий жиҳатдан қараганингизда ёмғир атрофдан уриб ётган бўлса, мен зонтикнинг тагида бўлсам, бу ҳаммаёқ қуруқ дегани эмас-ку? Ҳали ҳам улуғ ишларимизга соя солиб турадиган, ўз халқига яхшилик тиламайдиган, ҳамиша ўзини ўйлайдиганлар бор-ку!.. Бирорта одамнинг иши бирор идорада порасиз битмаса, атрофда ошна-оғайнигарчилик, таниш-билишчилик, маҳаллийчилик... Шундоқ бўлгандан кейин қонингиз қайнайдими, йўқми? Қандай қилиб ундайларни халқим деб атайсиз?! Улар халқ эмас, халқнинг номидан мен халқман деб юрган кимсалардир. Халқининг куйдирги яралари булар. Мен буларни кўрсам, ёниб кетаман. “Халқим-халқим” дейди, амал курсисига ўтиргандан кейин ўша халқни талайди. Лицензияли ўғрига айланади. Халқ далада, халқ меҳнатда, лекин оломончилик кайфиятидагилар ҳануз пайкалнинг четида” деган сўзлари унинг шеърларидаги изтироб, дардга тўла оҳангларнинг сабаби изоҳи бўлиб туюлади (Ўша манба. 240-бет). Александр Сергеевич Пушкиннинг таржимаи ҳолини баён этиб, унинг феъл-атвори, шеърларининг хусусиятлари тўғрисида сўз юритган Н.Чернишевский эса бу улуғ рус шоири дастлабки шеърларини инглиз шоири Байрон ижоди таъсирида ёзганини таъкидлаб: “Ўша вақтларда бутун Европа шу Байрон асарлари билан завқланиб турган эди. Пушкин ўша вақтда жуда ёш

бўлганлиги туфайли, у ҳам шу Байрон асарларига берилиб кетганлиги ажабланарли эмас. Кишининг характери аста-секин, турмушдаги тажрибалари туфайли вужудга келади, шунинг учун ҳам Пушкин “Кавказ асири”дан кейин яна бир неча йил Байроннинг таъсири остида асар ёзди. Байрон – жуда ғамгин шоирдир. Пушкиннинг Байрон таъсири остида ёзган поэмаларида ҳам қисман шундай ғамгинлик акс этиб туради, лекин Пушкиндаги ғамгинлик инглиз шоиридаги ғамгинликдан анча сустроқ, чунки бу ғамгинлик аслини олганда, Пушкиннинг табиатига зид бир нарса эди, Пушкин кўпроқ беғам, ҳаётни яхши кўрадиган, унинг лаззатларидан завқланиб баҳра оладиган, очиқ кўнгил шоир эди” деган (Чернишевский Н.Г. Танланган адаби-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1956. – 452 б. – 65-бет). Бундан ҳар бир ижодкорнинг асари унинг кўриб-кечирганлари, ўй-кечинмалари асосида пайдо бўлиши, Абдулла Орипов шеърларида ҳам унинг ички дунёсидаги ғалаёнлар, у ҳаётда кузатган ҳодисалар акс этгани аёнлашади. Шеърларининг мазмуни, оҳанги, мақола ва суҳбатларидаги мулоҳазалари эл меҳрини, давлат раҳбарларининг ҳурмати қозониб, юксак шон-шуҳратга эришганига қарамасдан бу донишманд шоир барча иззатталаб одамлар сингари эътибору эътирофга бепарво бўлмагани, ўзининг қадрини беҳад баланд кўйганидан далолат беради. Масалан, “Баҳо” шеъридан шундай мазмун англашилади. Унинг бошқа шеърлари ҳам худди ушбу шеър сингари шаклан ихчам, мазмунан ниҳоятда қамровдордир. Шоир шеърларида у ўзининг таъсирчан қалбидаги дард-алам, изтиробларни, талаб ва истакларини изҳор қилгани яққол билинади. Ана шундай хусусият шоир ижодининг умумий мундарижасини белгилайди. “Ажабо” тўртлиги бунга бир мисол бўла олади: “Дейсан, майда гапга қилмагин парво, // Улардан баландда юргил доимо // Баланд бўлавериб бунинг баридан, // Айланиб кетди-ку бошим ажабо!” (Орипов А. Қуёш бекати. – 57-бет). “Суҳбатдош” шеъри ҳам мазкур фикрни янада мустаҳкамлайди: “Қанийди учраса шундай бир одам: // Сен ёқа бўлганда у ҳам енг бўлса. // Ёши, мартабаси тенг бўлмаса ҳам, // Албатта сен билан кўнгли тенг бўлса. // Қанийди учраса шундайин бир зот, // Гаплашсак жайдари ёронларга хос. // Дейлик: юлдузларда бормикин ҳаёт, // Қайси дармондори қайсимизга мос. // Қанийди учраса шундай суҳбатдош, // Бир-бирин асабин арралашмаса. // Бири кўз бўлганда, бири бўлса қош, // Суҳбатга ғийбат ҳеч аралашмаса” (Ўша манба. 99-бет).

Шуғулланадиган ишини меъёрига етказиб адо этиш ҳар бир кишига чексиз завқ бағишлайди. Абдулла Орипов эса шеърни қойилмақом қилиб ёзади. Бундай шоирлар адабиёт майдонида жуда кам учрайди. Уларнинг шеърлари шакл ва мазмун жиҳатидан ғоят пишиқ-пухталиги боис ҳеч ким улардан

камчилик, нуқсон тополмайди. Абдулла Ориповнинг шеърларидан камчилик, нуқсон, кемтиклик қидирган киши ўзини беҳуда қийнаб, азобда қолади. Аксарият қаламкашларнинг айрим асарлари анчайин дуруст бўлади ва бу уларнинг ижодидаги муваффақият саналади. Абдулла Ориповнинг шеърлари эса нафақат унинг, балки бутун адабиётнинг муваффақияти бўлиб ярқираб туради. “Митти юлдуз” тўплами муаллифининг “Она сайёра”, “Юзма-юз”, “Муножот”ни танглаб...”, “Йиллар армони”, “Юртим шамоли”, “Баҳор”, “Сароб” (“Ўйларим”) сингари шеърларини бошқа шоирларнинг шеърлари биан ёнма-ён қўйиб ўқиган киши, албатта, шундай хулоса чиқаради. Ажабланарлиси шундаки, “Митти юлдуз” тўплами муаллифининг шеърларидаги қайсидир сўзлар, иборалар кишига жуда ёқиб қолади, айниқса, яқунловчи сўнги сатр қутилмаган хулоса сифатида одамни хайратга солади. Бу шоирнинг шеърларидаги хулоса ўзга қаламкашларникидан фарқли ҳолда, худди дабдурустдан содир бўлган портлаш каби диққатни бирдан жалб қилади. Чунки бу сўнги сатрда шеърнинг барча мисраларидаги мулоҳазалар ажойиб тарзда мужассамлашади. Шу боис унда бўлакча бир тароват кўринади. Бу сатр мунг, изтиробга тўла бўлса-да, у негадир кишига хуш ёқади, одам ўзини аллақандай янгиликни топгандай ҳис қилади. Ўшанда беихтиёр кўнгилдан ўтган кунлар, ойлар, йиллардан нима қолди, деган савол кечади, ёдда қолган кунлар жуда ҳам кам эканлиги, умрнинг кўп қисми лоқайдлик домида маънисиз тушдек ўтгани кишига алам қилади. Чунки шоирнинг “Синов” каби шеърларида кўпчиликнинг кўнгил кечинмалари: “Ипак қуртининг ҳам бор ахир жони, // Лекин қурбон бўлиб кетгай у ғариб. // Хазон сипоҳига бўлолмай монёъ, // Қанча баҳорларим ўтди сарғариб. // Вафолар қилсам ҳам дилдан, юракдан, // Жафо бўлиб қайтди афсуски улар. // Ўқ еган турнадек осмон-фалақдан // Ерга қулаб тушди не-не туйғулар. // Эзгулик кимнингдир мулки эмасдир, // Қуёш ҳам барчага баробар бироқ. // Мени ёлғизлатди негадир тақдир, // Менга синовларин юборди кўпроқ. // Бир замон дунёни севардим тўлиб, // Ҳатто япроғига эгар эдим бош. // Энди ҳаммасидан пушаймон бўлиб, // Ўтган севгим учун тўкаман кўзёш” (Ўша манба. 126-бет) тарзида таъсирчан ифодаланади. Шоирнинг шеърларидаги кўнгилга ёққан бу каби фикрлар худди ҳикмат каби кишини ўйга толдириб, маҳзун қилиб қўяди. Масалан, ўқувчи “Синов”даги “Қанча баҳорларим ўтди сарғариб”, “Вафолар қилсам ҳам дилдан, юракдан, // Жафо бўлиб қайтди афсуски улар”, “Мени ёлғизлатди негадир тақдир, // Менга синовларин юборди кўпроқ” сатрларидан шоирнинг ҳаётсеварлигини, у ҳам худди Александр Пушкин каби “ҳаётнинг лаззатиларидан завқланиб, баҳра олишга интилгани”ни, лекин унинг бу тийиқсиз истаги тўла қаноатланмаганини англаб етади.

Абдулла Ориповнинг ижодий мероси, шеърлари мавзусининг ранг-баранглиги билан ҳамда шеър, шоир тўғрисида талай шеърлар мавжудлиги билан ҳам диққатни жалб этади. Айтиш мумкинки, шеър, шоир мавзуси ўзбек адабиётида ҳеч бир ижодкор Абдулла Ориповчалик кўп мурожаат қилмаган. Унинг бу хусусда ёзганлари шеър ёзиш унинг учун худди нафас олишдай табиий эҳтиёжга айлангани, у шеър ёзмаган пайтларида ҳолаватини йўқотиб қўйган, эсига тушган воқеаларни, эшитган, кўрган, кузатган ҳодисаларини қаламга олганида эса дили яйраб, ҳовуридан тушгани, бу донишманд шоир ҳаётнинг ҳар қандай манзарасини, кишиларнинг исталган ҳолати, гап-сўзини таъсирчан шеърга айлантира оладиган фавқулудда истеъдод соҳиби бўлганини билдиради. Шоир шеърларининг бениҳоя равонлиги, уларда кенг қамровли, теран мазмунли фикрлар жуда силлиқ ифодалангани, мулоҳазалар бир-бири билан мантиқан боғланиб, яхлит занжир ҳосил қилгани кишини ҳайратга солади. У аксарият қаламкашлардан фарқли ўлароқ, шеърга жон киргизадиган, фикрга таъсирчан тус берадиган сўз ва ибораларни топа билади. Бу шоирнинг сўзларга оро бериши кишини завқлантиради. Абдулла Ориповнинг шеърлари қаршида бошқа шоирларнинг тили камбағаллиги, фикри саёз, жўн экани аниқ билиниб қолади. Шоирнинг шеърларидаги “Вафолар қилсам ҳам дилдан, юракдан // Жафо бўлиб қайтди афсуски улар”, “Мени ёлғизлатди негадир тақдир, // Менга синовларин юборди кўпроқ” тарзидаги зорланишлар иззатталаб кишиларга хос хусусият экани, бу донишманд шоир эса ўз кадр-қимматини беҳад баланд тутгани, ҳаётида учраган ҳамма нарса унинг сезгир, нозик табиатига қаттиқ таъсир қилгани ҳар бир шеърда аниқ сезилади. Кишилар эса шеърлари ҳикматга йўғрилган Абдулла Ориповдек донишманд шоирнинг шахсига ҳамиша катта қизиқиш билан қарайди. Унинг феъл-атвори қанақа бўлганини билгиси келади. Чунки шоирнинг инсон табиати жумбоқлари, ижтимоий ҳаёт мураккабликлари ҳақидаги мулоҳазалари кишиларга мароқ бағишлайди, ўйлантиради. Бу шоирнинг шеърлари одамларни ҳеч қачон бефарқ қолдирмайди. Шоир шеърларининг бунчалик салмоқ касб этиши у сўзнинг илоҳийлигини, унинг сеҳри, жозибасини чуқур ҳис қилганини, ҳаёти, бутун борлигини шеъриятга бағишлаганини билдиради. “Абдулла Орипов – шеърият куйчиси” дейиш муболаға ҳисобланмайди. Негаки унинг шоир, шеър, шеърият тўғрисидаги шеърлари ҳам бошқа мавзудаги шеърлари сингари теран фикрга, бир-бири билан тутшиб кетган тиниқ ташбеҳларга асосланади. “Онажоним шеърият” ёки “ҳазил” дея изоҳланган “Шоирнинг яратилиши”ни шеъриятни чуқур ҳис қилган, шеърсиз ҳаётини тасаввур қилолмайдиган ижодкоргина ёза олади. Абдулла Орипов айни мавзудаги шеърларида шеърият учун жўшиб ёнишини жуда таъсирчан изҳор қилган. Бу

шеърларда шоир билан шеър орасида одамларнинг ақли етмайдиган, мантикий мушоҳада юритиш орқали тушунтириб бўлмайдиган боғлиқлик борлигига ишора этилган. Абдулла Орипов бошқа мавзудаги шеърларида ҳам бошқалар кўтарилолмайдиган юксак хаёлот эгаси бўлиб кўринади, шеърият билан илоҳий боғлиқлик унинг хаёлларига хурлик, фикрларига донишмандона теранлик бағишлагани ҳар бир шеърида сезилади. Унинг фалсафий мазмунга йўғрилган шеърлари кишиларни фикрлашга, мушоҳада юритишга томон етаклайди. Бу эса уларни ҳақиқатни англашга, яшашдан мақсад нималигини билиб олишга муяссар қилади. Шоирнинг ҳақиқат излаб зорланишлари, турмушда чуқур илдиз отган иллатлардан куюнишлари, бир зум бўлса-да, шеърхоннинг қалбига кўчади. Чунки у: “Бирлашса ёвузлик, турфа иллатлар, // Қочса бир-биридан эллар, миллатлар. // Қовушмаса инсоф, эзгулик, сабот, // Мен бунинг сабабин билмасман, хайҳот! // Тафаккур башарга гарчи яловдир, // Нечук одам қавми одамга ёвдир. // Жавоб берар бунга на ер, на осмон, // На Будда, на Зардўшт, на Инжил, Қуръон” дейди. Шоир ижодининг асосини ташкил этадиган бу каби шеърлардан Абдулла Орипов донишманд, файласуф шоир экани ойдинлашади. Унинг “Онажоним шеърият”, “Шоирнинг яратилиши” каби шеърларида унинг бу дунёга келиб, шоир бўлиб, эл эътиборини қозонганидан, одамлар қалбидан жой олган шеърлар битганидан ифтихор туйғуси сезилади. Шоир бошқа мавзудаги шеърларида ҳам Худо ҳар бир кишига умр, ризқ-насиба билан бирга, нимагадир қобилият, уқув ато этгани ва уни зое этиб увол қилмасликдек муқаддас бурчни ҳам барчанинг зиммасига юклаб қўйганини таъкидлайди.

Абдулла Ориповнинг шеърлари бошқа шоирларникидан теран фалсафий фикрга эга экани билан фарқ қилади ҳамда ўзининг шу жиҳати билан улардан устун туради. “Митти юлдуз” тўплами муаллифи фикрлари эзгулик ва ёвузлик, меҳр ва қаҳр, қувонч ва қайғу, ҳавас ва ҳасад каби бир-бирига зид нарсаларни ҳодисаларни чоғиштириш, улар ўртасидаги алоқадорликни кўрсатишга асосланади. Ушбу ўзига хос эстетик шакл унинг шеърлари таъсирчанлигини ошириш баробарида, улардаги фалсафий фикрни бўрттириб кўрсатади. Шоирнинг шеърга кўчган субъектив кечинмаларида кўпчиликнинг хаёлидан ўтган ўй-фикрлар ўз аксини топади. Абдулла Ориповнинг кўпгина шеърлари, тўртликлари фалсафий мазмундорлиги жиҳатидан улуғ мутафаккир Умар Хайём (1048–1122)нинг рубоийларига ўхшаб кетади. Шарқ мутафаккири Умар Хайём ҳаёт ҳақида ўзи англаган ҳақиқатларни: “Мени айладилар дунёда мавжуд, // Ҳаётда топганим хайрат, тараддуд. // Бу йўлни ўтдим-у, тушунолмадим, // Келмагу кетмакдин не эрур мақсуд?” (Умар Хайём. Рубоийлар. – Тошкент: Ўз КП МК нашриёти, 1981. – 152 б. – 97-бет) деган

бўлса, Абдулла Орипов бу хусусда “Туғилсанг бахт билан камол ўшади, // Тарк этсанг оламини завол ўшади. // Охир чоғ тупроқнинг устига келиб, // Кимдир ёд айласа, иқбол ўшади” дейди. “Митти юлдуз” тўплами муаллифининг ушбу тўртлиги Шарқ мутафаккирининг хайрат ва ажабланишдан иборат саволига энг муносиб жавоб бўлиб янграйди.

Умар Хайём, Мирзо Бедил сингари Шарқ донишмандлари шеърларидаги ҳаётдан зорланиш уларнинг умидсизликка тушгани ёки турмушда кўп азоб-укубат тортганидан эмас, балки файласуф шоирларнинг ҳаёт янада гўзал, одамлар бундан-да маънавий баркамол бўлишини исташидан келиб чиққан. Абдулла Ориповнинг ҳам таъсирчан қалби одамлараро муомала-муносабатлардаги ҳасадгўйлик, бахиллик, носамимийлик, субутсизлик, фирибгарлик, қаллоблик, алдамчилик каби иллатлардан кўп азият чеккан. У турмушда кенг илдиз отган бу каби ғайриинсоний хатти-харакатлардан қийналиб, кўп азоб тортганини: “Тингла, бу абадий садо бўлади, // Гадонинг душмани гадо бўлади. // Иккови бир-бирин егунича то // Ўртада бу дунё адо бўлади” деб ифодалаган. Донишманд шоир ушбу тўртлигида қадим замонлардан қолган “Гадонинг душмани гадо бўлади” деган мақолни бадий шаклга солиб, унинг мазмуни ва таъсирчанлигини кучайтирган. Ушбу тўртликда илгари сурилган фикр айна ҳақиқат эканини араблар, японлар, инглизлар ва немислар ҳам бирдай эътироф қилади. Чунки шоир гадонинг душмани гадо эканини шунчаки баён этмасдан бу ҳақиқатни ихчам, мухтасар таҳлил қилиб, теран хулоса чиқарган. Тўртликда, умуман, шоирнинг барча шеърларида хулоса жуда таъсирчан ифода қилинади. Бу эса Абдулла Орипов шеърлари мазмунан теран, поэтик мукамал эканини билдиради. Шоир эътибор қаратилган ҳодисани бошқа қаламкашларга қараганда пухта бадий таҳлил қилади. Унинг шеър ва дostonлари ўзбек адабиёти ҳаёт ҳодисаларини таҳлил этишда дадил одимлаганига ёрқин мисол бўла олади. Асарларидаги теран фалсафий хулосалар чуқур умумлашмага асослангани ҳам Абдулла Орипов ўзбек шеърятини янги босқичга кўтарганини билдиради. Ҳаёт ҳодисаларини бадий тадқиқ этиш, уларга ҳар томонлама ёндашиб, кутилмаган теран умумлашма фалсафий хулоса тақдим этиш донишманд шоир шеърятининг асосий хусусияти бўлиб кўринади. Шоир шеърларида ҳасрат, зорланиш ҳиссининг бўртиб туриши эса у ҳаёт ҳодисаларига юксак идеаллардан туриб қараши, мавжуд ижтимоий турмушдан қониқмаслиги, баъзи одамларни инсон деб атамоқ қийинлиги, айрим кишиларнинг хулқи, табиатида худбинлик, манфаатпарастлик ҳукмронлигини кўриб билиб турганидан келиб чиқади. Абдулла Орипов шеърларида одам ва олам тўғрисидаги ўйларини баён қилар экан, шеър сўнгида эътибор қаратилган

ходисага муносабатини кучли эҳтирос билан ифода этади. Бу жиҳатдан у барча қаламкашларга ибрат бўла олади, ҳамма шоирлардан олдинда юради.

Жуда кўп кишилар ўз табиатига кўра ҳамма вақт бошқаларга нафи тегадиган эзгу ишлар қилишга интилади. Барча замонда жамиятнинг ҳар бир табақасида бундай кишилар кўп бўлади. Ҳаёт эса ўзгаларга яхшилик қилишга, меҳр улашишга ҳаракат қиладиган кишилар борлиги туфайли ўсиб ўзгариб, гўзаллашади. Абдулла Ориповнинг шеърларида ҳаётда ҳукм сурадиган ана шу абадий жараён ва инсон табиатан эзгуликка интиладиган мавжудот қилиб яратилгани диққат марказига қўйилади. Масалан, шоирнинг “Талпиниш” шеърида бу хусусда: “Булутлар талпинар тоғларга, // Қушлар ҳам чаманзор боғларга. // Жилғалар дарёга талпинар, // Қуюнлар саҳрога талпинар. // Меҳрга талпинса гар инсон – // Савоб шу, тавоб шу, шу иймон” дейилади (Ўша манба. 45-бет). Чунки кимнингдир меҳрига талпинган, кимнидир соғинган кишининг қалбида эзгу истаклар жўш уради, у бошқаларга азият етказишдан, атайлаб бировга ёмонлик қилишдан истиҳола қилади, кимгадир нафи текканида, кимнингдир мушқулини осон этганида эса севинади. Шоир ушбу шеърида табиатида меҳр кўрсатиш, меҳр кўмсаш ҳисси мавжуд инсон имонли кишидир. Кимнинг хатти-ҳаракатлари меҳрга асосланган экан, у савобга эришади, бундай кишиларнинг кимгадир мурувват қилиши, кимнингдир меҳрига талпиниши худди тоат-ибодат сингари эзгу амал саналади. Чунки тоат-ибодатдан мақсад қалбдаги энг яхши ҳиссиёт, интилишларни кучайтиришдир, дейди. Абдулла Ориповнинг бу каби шеърлари мазмунини ҳар ким ўзича тақин қилиб, улардан ўзича маъно англайди. Лекин ҳаётдан нолиш, одамларнинг эътиборсизлигидан зорланиш шоир ижодида бўртиб туришини ҳар бир киши дарҳол пайқайди. Негаки “Ожиз банда” шеърида бундай дейди: “Менга раво кўрманг улуғлик отин, // Мен на донишмандман ва на ботирман. // Ёруғ бу оламнинг сир-синоатин, // Ҳануз билолмасдан кетаётирман. // Фалакда шубҳасиз дунёлар бисёр, // Балки биздан етук, бизлардан ёниқ. // Лекин у ёқда ҳам мен каби ночор // Ожиз бандаларнинг борлиги аниқ” (Ўша манба. 45-бет). Бундай оҳангдаги шеърлар эса шоирнинг тўпламларида талайгина. Ўз манфаати учун ҳар қандай қаллобликни қилишга тайёр кимсаларнинг кўплиги, порахўрлик, таъмағирликдан уялмайдиганларнинг урчиб кетгани, амалдорларнинг давлат маблағини талон-тарож этиб ўзлаштираётгани эса ҳар бир виждонли кишининг қонини қайнатиб ғазаблантиради. Шоирнинг зорланиши унинг ижтимоий турмушда илдиз отган бу каби иллатларни кўриб куйиниши, азобланишидан келиб чиқади. Абдулла Қодирий ҳам турмушдаги тубанликлардан куйиниб кетганидан “Ўткан кунлар” романида “инсон” деган

номга номуносиб малъунлар ўзларининг қотилликлари, ёвузликлари ҳақида мақтаниб гапиришни яхши кўриши изтироб ва ачиниш билан қаламга олади. Ҳомид Содиққа Отабекни ўлдириши кераклигини айтганида, “йигирма икки ёшлар чамасида бўлган, сариқ танли, уккининг кўзидек чақчайиб ўйнаб ва ёниб турган қизил кўзли, юзига парчинлангандек юза (пучук) бурунли, манглайи қанча ташқари ўсиб чиққан бўлса, юзи шунча ичкарига кириб кетган, қисқаси, вақтсизроқ яратилиб қолган бир махлуққа ўхшаш бу йигит” ҳеч ўйлаб ўтирмасдан: “Бу кунгача иккитасини жойлаштирдим, учинчисига ўтса нима қилади?” деб мақтанади (Қодирий А. Ўткан кунлар: Тарихий роман. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.– 400 б. – 184-бет). Содиқнинг ҳамтовоғи Муал эса сенинг бу ишларинг менинг ишларим олдида ҳеч нарсага арзимади, дегандай: “Эй-й, Содиқча, сен ҳали нимани кўрдинг-ку, ниманга ишондинг, бузоқ бўғизлагандек қилиб бир-иккитани сўйган билан одам бўлдинг-қўйдингми?” деб уни камситади (Ўша манба. 246-бет). Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор, Абдулла Орипов турмушдаги иллатларни кимнидир ёмон кўргани, кимдандир нафратланганидан эмас, балки улардан қутулишни мақсад қилганидан очиб ташлаган. Улар одамларнинг хулқи, феъл-атвори, ўзаро муносабатларида ҳукм сураётган салбий ҳолатларни тасвирлашда ватанпарвар, инсонпарвар ижодкор сифатида тўғри йўл тутган. Бу улуғ ижодкорларнинг асарларида илгари сурилган ғоялар илғор фикрли, виждонли кишилар ҳамиша ҳаёт бунда-да яхши бўлиши, одамлар бир-бирига меҳрибон, бир-бирига ҳамкор, ҳамнафас бўлиб яшашини исташидан дарак беради.

Шоирлар, адиблар, файласуфларнинг кишиларни йўлдан оздирувчи ҳолатларни бартараф қилишга чақириши одамларнинг дунёқараши, феъл-атворига таъсир ўтказиб, уларни эзгу амалларга ундайди. Уларнинг адолат, ҳақиқат учун кураш тўғрисида илгари сурган ғоялари жамиятдаги мавжуд ҳолатни бирданига ўзгартирмаса-да, кўплаб кишиларни ўзига ром этади. Эл эътиборидаги кишилар, хусусан, шоирлар, адибларнинг ҳақиқат, адолат, ҳалоллик тўғрисида ўзлари айтган гапларга амал қилиши бошқа одамларнинг қонунларни ҳурмат қилиши, инсон кадр-қимматини ҳис этиши, ҳақиқатга ишониши, ҳар бир ишга адолат билан ёндашиши сингари эзгу фазилатлари камол топишига замин яратади. Агар улар қонунларга хилоф иш тутса, одамларнинг ҳақиқат, адолатга ишончи, меҳнатсеварлик ҳисси ўз-ўзидан сўнади, жамиятга инсонпарварлик ғояларини татбиқ этиб бўлмайд қолади. Бундай жойда кўпчилик наф кўрадиган бирор бир ишни муддаодагидек эплаб бажарадиган одамлар анқонинг уруғига айланади. Ҳалоллик, ҳақиқат, диёнат, виждон тўғрисида гапирадиган шоир, адиблар хушомадгўйлик,

иззатталаблик, шуҳратпарастлик қилса, одамлар ҳеч тап тортмасдан “Улар гапи бошқа-ю, иши бошқа мунофиқ” деб очиқ айтади ва ҳурмат қилмай кўяди. Бу – жуда табиий. Абдулла Орипов шеърларида ижтимоий ҳаётнинг бу каби жумбоқларига жиддий эътибор қаратиб, умумнинг бахт-саодатини орзу қиладиган, турмушда илдиз отган турли иллатлардан кўп азият чеккан инсон сифатида кўринади. Шу боис шеърхон қандай кайфиятда, қандай аҳволда бўлмасин, бу шоирнинг шеърларида ўзининг ҳаётдаги норасоликларидан азобланган чоғдаги туйғу-кечинмаларини кўрганани ҳис қилади. Чунки шоир миллий турмушимиз манзараларини ҳаққоний гавдалантириб, кишиларимизнинг ҳалоллик, адолат тўғрисидаги тушунча, қарашларини: “Совчи дер: – Отахон, берингиз дуо, // Жуда тўғри йигит бўлғуси куёв. // Ота дер: – Тўғрилиқ яхши-ю, аммо // Бундайлар рўзгорин боқолмайди-ёв” дея ўткир киноя билан чизиб беради. (Орипов А. Қуёш бекати: Шеърлар, мақолалар, суҳбатлар, таржималар. – Тошкент: “Sharq”, 2010. – 384 б. – 96-бет). Абдулла Орипов ушбу “Тўғрилиқ” шеърида масалага ҳар бир киши ўзининг дунёқараши, нуқтаи назаридан ёндашишига диққатни жалб қилади: совчи қизнинг отасига “бўлғуси куёв – жуда тўғри йигит” деяпти. У йигитнинг бу фазилати қизнинг отасини, албатта, қувонтиради, деб турибди. Қизнинг отаси эса хурсанд бўлиш ўрнига: “Бундайлар рўзгорин боқолмайди-ёв” деб ташвишланаяпти. Чунки ота ҳаётда кўпчилик қонунларга амал қилмаслиги, ёлғон қасам ичиш, ёлғон гувоҳлик беришдан тоймайдиган, пул учун ҳар қандай қабихликдан қайтмайдиган қаллоб, фирибгарлар ҳалол кишиларнинг тўғри ишлашига йўл бермаслиги, уларга кўп азият етказишини яхши билади. Совчининг нияти – тўғри. Аммо ота масалага турмуш воқелигидан келиб чиқиб ёндашади. Шу боис уни айблаб бўлмайди. Донишманд шоирнинг бу каби тағ маъноли шеърлари кишини мана шундай мушкул вазиятга солиб, ўйлантириб қўяди. Чунки у турмуш ҳодисаларини кутилмаган томондан туриб таҳлил қилади. Шоир “Тўғрилиқ” шеърида совчи ёки отани қоралаб оқламайди. У турмуш тарзимиздаги мавжуд ҳолат хусусида қандай хулоса чиқаришни ҳар бир кишининг ўзига ҳавола қилади. Чунки юрист ҳар қанча порахўр, таъмагир, юлғич бўлса ҳам ҳеч вақт порахўрлик, таъмагирлик, босқинчилик, ўғрилиқни ҳимоя қиладиган қонунларни ёзмайди. Шоир, адиблар ҳам ҳар қанча пиёниста, субутсиз, қасамхўр, такаббур, иззатталаб бўлмасин, инсон қадрини керга урадиган бу каби иллатларни оқлаб ёқламайди. “Тўғрилиқ” ва шоирнинг бошқа шеърлари ўзга қаламкашларнинг шеърлари билан қиёсланса, ўзга ижодкорлар турмуш воқелигига анча юзаки қараши, “Митти юлдуз” тўплами муаллифи эса унга чуқур кириб бориши ойдинлашади. Ҳаёт ҳодисаларининг зимдан

сезилмайдиган мураккабликлари, жумбоқларини эса ҳамма эмас, донишмандлар кўра олади.

“Баҳор”, “Ўйларим” ёки Ўзбекистон мадҳиясидаги образли ифодалар фақат Абдулла Орипов бисотида бўлиши мумкин. Шоирнинг шеър, дostonлари чуқур мазмунли, ёрқин образли экани ҳар гал ўқилганда янада яққол билинади. Улар тоза, жонли тилда битилганини эса барча бирдай тан олади. Бу шеърларда шоирнинг турмушдаги иллатлардан, одамларнинг хулқи, табиатига ўрнашган худбинлик, манфаатпарастлик, иззатталаблик, шуҳратпарастлик, ўзаро муносабатдаги носамимийликдан куйиниши, изтиробга тушиши аниқ сезилади. Шоир ўзининг ҳис-туйғулари, кечинмаларини санъаткорона маҳорат билан ифодалагани йиллар ўтган сари янада ойдинлашиб бораверади. Чунки унинг шеърларида юксак идеаллардан келиб чиқиб, инсоннинг ибратга лойиқ покиза фазилатлари диққат марказига кўйилади. Мавжуд турмуш воқелиги ва лирик қаҳрамоннинг ички изтироблари шоир шеър, дostonларининг икки қаноти экани кўринади. Шу боис ўқувчи, тингловчи шоир шеърларидаги лирик қаҳрамоннинг бутун руҳий ҳолатини хаёлан тасаввур қилади. Чунки шоир катта ҳаётни кўриб-кечирган, ундаги ҳодисаларни таҳлил қилган одам сифатида шеърларига даврнинг аниқ белгиларини сингдириб юборади. Айтиш мумкинки, Абдулла Орипов шеър ва дostonлари XX аср сўнгги чораги – XXI аср биринчи чораги ўзбек шеърляти чўққиси саналади. Шунинг учун “Митти юлдуз” тўплами муаллифи ўзбек шеърлятини янги юксакликка кўтарган шоир эканлиги кўп эътироф этилади. Шундай экан, “Нажот қалъаси” ёки Наврўзга бағишланган шеърларини дастак қилиб, шоирни замонасозликда айблаш, унга тил теккизиш гуноҳ бўлади. Чунки ҳамма ҳам муайян даврда яшайди, ундаги ижтимоий шароитга бўйсунди, ҳукмрон сиёсат билан ҳисоблашади. Ҳар кимга ўзи яшаган замон ва маконнинг нуқси урмасдан қолмайди. Абдулла Ориповнинг шеър, дostonлари одам олами жумбоқлари, ижтимоий турмуш қарама-қаршиликлари рўй-рост кўрсатилган дурдона асарлардир. Шеър, дostonлари, мақола ва суҳбатларидан Абдулла Орипов донишмандона фикр юритиб, шеър битиш учун яратилганга ўхшайди. Шеърлари у ҳаётни шу мақсадда кузатиши, кўриб-кечирганлари, гувоҳи бўлиб, эшитганларини шу ниятда қаламга олиши, бир-бирига зид нарса-ҳодисаларни таққослаб таҳлил қилиш ва шу асосда хулоса чиқариш унинг хоббиси – энг сеvimли машғулоти эканини аён этади. Ҳар бир кишининг эса энг яхши кўрадиган нарсалари, ўзи хуш кўрадиган ишлаш услуби бўлади ва у ўрни бўлса-бўлмаса, ўзи ёқтирган нарсалар тўғрисида гапиришдан ўзини тия олмайди. Абдулла Орипов ҳаёт ҳодисаларини қиёслаб бадий таҳлил қилишга,

воқеликка ўзига хос тарзда ёндашиб, теран фалсафий хулоса чиқаришга интилади. Бу унинг ҳар бир шеърида яққол сезилади. Шоирнинг ҳаёт воқелиги зиддиятларини теран бадиий таҳлил қилишга асосланган бетакрор шеърияти у ўз ҳаётини адабиётга бағишлагани, инсон, унинг қалбини адабиётнинг асосий объекти, бош мавзуси деб қараганини билдиради. Шу боис бу донишманд шоирнинг ижоди халқимиз ҳаётидаги муҳим тарихий ҳодисалар сирасига киради. Ўзбек адабиёти Абдулла Орипов шеърияти билан узоқ замонлар фахрланади. Чунки унинг ҳикматга йўғрилган гўзал шеърияти шу пайтгача у ҳақида айтилган мақтов, эътирофлардан беҳад баланд туради.

Адабиёт

1. Ёқубов О. Сўз. – Тошкент: “Sharq”, 2019. – 496 б.
2. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Тошкент: “Маънавият”, 2010. – 392 б.
3. Мухтор А. Шеър – шоир виждони: мақолалар, суҳбатлар, кундалиқлар, қайдлар, жанрини топмаган сатрлар, библиография. – Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2011. – 444 б.
4. Низомий Ганжавий. Махзан ул асрор: Достон. – Тошкент: “Kamalak” нашриёти, 2016. – 216 б.
5. Орипов А. Қуёш бекати: Шеърлар, мақолалар, суҳбатлар, таржималар. – Тошкент: “Sharq”, 2010. – 384 б.
6. Орипов А. Танланган асарлар: тўрт жилдлик. 3-жилд. Таржималар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 384 б.
7. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди: Адабий мақолалар. Суҳбатлар. Бадиий публицистика. – Тошкент: “Ёш гвардия”, 1988. – 224 б.
8. XX аср ўзбек адабиёти тарихи: Университетлар ва педагогика институтлари бакалавр иқтисосини олувчилар учун дарслик / Н.Каримов, С.Мамажонов, Б.Назаров ва бошқалар / – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1999. – 544 б.
9. Чернишевский Н.Г. Танланган адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1956. – 452 б.

10. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: “Шарқ” 2004. 640 б.
11. Эшонқул Н. Мендан “мен”гача: адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Тошкент: “Akademnashr”, 2014. – 512 б.
12. Қаҳҳор А. Асарлар: Беш жилдлик. 5-жилд: Мақолалар, суҳбатлар, кайдлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, – 1989. – 272 б.
13. Қодирий А. Ўткун кунлар: Тарихий роман. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 400 б.
14. Қўшжонов М. Танланган асарлар: Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: “Sharq”, 2018. – 712 б.

ABDULLA ORIPOV SHE’RLARIDA FRAZELOGIZMLAR

Masutova Shaxlo Omonovna

I bosqich magistri
BuxDu filologiya fakulteti
Lingvistika (o'zbek tili)yo'nalishi
nodirbejrahmonov@gmail.com

Annotatsiya

Maqola Adulla Oripov she'rlaridagi frazeologizmlarga bag'ishlangan bo'lib, she'rlaridagi frazemalar qanday maqsadlarda qo'llanilishiga ko'ra tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ko'chma ma'no, emotsionallik, ekspressivlik, transformatsiya, so'z birikmasi shaklidagi ibora, gap shaklidagi ibora...

Bilamizki, shoir zoti inson ko'nglining tarjimoni sifatida qalam tebratadi. Ayniqsa, uning “meni”da milliy, umuminsoniy, ezgu tuyg'ular tajassum topishi lozim. Shu ma'noda : “Ijodkor umuminsoniy dardni shaxsiy darddek qabul qilishi yoki shaxsiy dardini umuminsoniy dard darajasiga o'tarishi lozim”,- deb yozadi Abdulla Oripov. Shoir ushbu talabni o'z ijodiga to'la – to'kis tatbiq ham qildi.

Abdulla Oripov she'riyati tilshunoslik uchun ham adabiyotshunoslik uchun ham muhim o'ringa, katta salmoqqa ega she'riyatdir. Shoir she'rlarining ta'sirchanligi, xalqona ifodasi, inson ruhiga chuqur ta'sir qilishida ko'plab til vositalari qatori frazeologizmlarning ham o'rni beqiyos. Avvalo, shuni aytish lozimki, frazeologizmlar narsa-hodisalar, voqealar, xarakterlarni obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji yuzasidan vujudga keladi. Ular deyarli ko'chma ma'noda qo'llanilib, badiiy tasvir vositasida emotsionallik, espressivlik xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababli frazeologizmlar insonlarning faqat ongiga emas, balki his-tuyg'ulariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Frazeologizmlar tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Shoirimiz Abdulla Oripov she'rlarida frazeologik birliklar , asosan quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

1)voqea-hodisani obrazli ifodalash uchun : ko'pgina frazeologik birliklar konkret, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs-predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo'lib keladi. Masalan,

1. Hanuz *biri ikki bo'lmagan* eldan,
Keldim, madad bergil, yo Kabatulloh.
Bag'ri xun, *tolei kulmagan* eldan,
Keldim, madad bergil, yo Kabatulloh.

(“Ka’batulloh” she’ridan)

2. Sirdagisin ko'rib turibsan har on,
Ichdagi olangdan ogoh bo'l inson.

- 3.Sayr etdim Kioto o'chalarida,
O'y surdim yomg'irli kechalarida.
Sira parvo qilmay o'tar umrga,
Jon berib turibsan toshga, temirga.

(“Yapon” she’ridan)

4. Men seni *esga oldim* birinchi muhabbatim,

Eslab *xayolga toldim*, birinchi muhabbatim.

(“Birinchi muhabbatim” she’ridan)

2) turli holatlarni baholash uchun: frazeologizmlarning turli strukturaltiplari uchun biror predmet, yoki voqea- hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish funksiyasi ham badiiy asarlarda o’zining salmoqliligi bilan ajralib turadi 1.*O’n gulingdan bir guling ochilmagan* derdilar,

Yo’llaringda soqchilar sochilmagan derdilar.

(“Vatan uchun yashaylik” she’ridan)

2. Shoir *kunlarini uladi tunga*,

Borliqni vasf etib ayladi xonish.

(“Yozgin, dedilar” she’ridan)

3)badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun : o’zbek tili frazeologik sistemasida mazkur birlikning katta qismi asosiy ma’no- mohiyatni ifodalabgina qolmay , balki so’zlovchining shodligi, g’azabi, nafrati, o’kinchi, qo’rquvi, kinoyasi , jirkanishi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi. Bunga quyidagi misralar misol bo’la oladi:

Bir qaragam bu dunyoda baxtim borday,

Bir qaragam *butun olam menga torday*.

5)badiiy matnda satira va yumor hosil qilish uchun :

Ota der:-Aldama sen meni bolam,

Barcha qilmishingni sezib yuraman.

Agar quyilmasang mendan keyin ham,

Bilib qo’y *go’rimda tikka turaman*.

Bola der:-Otajon, meni bilasiz,

Birga *davr-u davron sura bering-da*.

O’sha qora go’rda nima qilasiz

Mana uyda tikka turabering-da.

(“Yozgin, dedilar” she’ri)

Abdulla Oripov qalamiga mansub she'rlarda ba'zi iboralar sinonimlari bilan almashtirilgan. Ba'zan esa tarkibidagi ayrim so'zlarning ma'nolari tushirilib, qisqartirilib qo'llanish holati uchraydi. Bu holat frazeologizmlarning ma'nosini umumlashtirish, abstraklashtirish, kengaytirish uchun xizmat qiladi. Masalan :

Non, degan farzandning dardli xitobi,
Goh uni *tiriklay chohlarga tiqqan*
Bardoshli umrning zaqqum zardobi,
Sochlari qirovdek ko'pirib chiqqan.

(“Otalar ilgida zamon bilan vaqt” she'ri)

She'rda “Tiriklay go'rga tiqqoq” iborasi tarkibidagi go'r so'zi choh so'zi bilan almashtirib qo'llangan. Yoki yana bir misolda ko'ramiz;

Yaxshining keragi kamdir olamda,
Yomonlarning dasti uzun bo'lsa gar.

Ushbu misralarda ortiq darajada imkoniyatga ega ma'nosini beruvchi “qo'li uzun” ibrasidagi “qo'l” so'zi o'zining sinonimi bilan almashrirlangan. Ibora ma'nosi go'zal badiiyat kasb etgan. Yana bir she'rda:

Quloq soling menga, yaxshi qiz, biroz
Dilimni ochmoqchi bo'lyapman sizga
Tunov kun bir do'stim meni dab-durust
Aybladi sevgisizlikda.

(“Sevgisiz odam” she'ri)

Ushbu misralarda ikki ibora qo'llangan. Birinchisi “quloq solmoq” iborasi bo'lib, tinglamoq ma'nosini beradi ma'nodoshi “quloq bermoq”. Ikkinchi ibora “dilini ochmoq” iborasi “ko'nglini ochmoq”, “yuragini ochmoq” iboralariga variantdosh sifatida qo'llanilgan.

Tong yulduzi kulganda, yotog'ingga *yo'l oldim*,
O, uyqusiz ko'zlarda ne sirlarni o'roldim,
Yo'q uyqusiz ko'zlardan *so'z ochmadim*, men u tob,
O'sha bahor tunini kuyla deding umrbod

(“Suv parisi” she’ri)

She’rda qo’llanilgan “yo’l olmoq” iborasi “yo’nalmoq” ma’nosini bildiradi. Sinonimi “yo’l solmoq”. “So’z ochmoq” iborasi esa “gap ochmoq” iborasining varianti sifatida qo’llaniladi. Shoir she’r badiiyatini oshirish uchun “ko’z” so’ziga qofiyadosh sifatida “gap” so’zi o’rnida “so’z”ni qo’llaydi va go’zal ohangdorlikni yaratadi. Endi quyidagi to’rtlikka diqqatimizni qaratamiz:

Birodar *tushmadim men ham osmondan,*

Sen ham kelmagansan biror tomondan.

Bir yurtning farzandi ikkalamiz ham,

Zuvalamiz bitta, mehr bir jondan

(“Zuvala” she’ri)

Ushbu to’rtlikda “osmondan tushgani yo’q” iborasi poetik talab bilan inversiya hodisasiga uchraydi. Shuningdek, “Zuvalasi bir joydan olingan” iborasi “Zuvalamiz bitta” shaklida qo’llaniladi. Bunda ham shor iborani qayta ishlab poetic nutqqa mahorat bilan moslashtirgan.

Abdulla Oripov she’rlarida qo’llanilgan frazeologizmlarni morfologik shakli, tayanch komponentiga haqida shuni aytish mumkinki, ko’pchilik iboralarning tayanch komponenti fe’l va sifat so’z turkumlari bilan ifodalangan .

1. Tayanch komponenti fe’l bilan ifodalangan frazeologizmlar:

Tasalli topmassan na do’st, na maydan

Sekin ostonangdan o’tlar cho’zar bo’y.

(“Qadr” she’ri)

Magar bo’ri ekan, odamga odam,

Bir-birin boshini yegay damo-dam

(“Ka’batulloh” she’ridan)

Haq deb *nina bilan tog’larni qazdim,*

Bandman, *rost yo’ldan gohida ozdim.*

(“Payg’ambar” she’ridan)

Ka’ba qopqasida turgan, ey posbon,

Avval onalarning *ochgin yo’llarin.*

(“Ona” she’ridan)

Tayanch komponenti sifat bilan ifodalangan frazeologizmlarga quyidagi she’riy misralar misol bo’ka oladi:

Nomingni o’chirar endi har qaydan,

To’rtta *ichi qora*, yoki xasadgo’y

(“Qadr” she’ri)

Bir qarasam do’st-u yordan *ko’nnglim to’qday*,

Bir qarasam , atrofimda hech kim yo’qday.

Bir qarasam murodimga yetgandayman,

Bir qarasam *ko’zim ochiq ketgandayman*.

Shuni aytish kerakki, frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so’z turkumi bo’yicha tahlil qilinmagan.

Iboralarni tuzilishiga ko’ra tahlil qilsak, ular so’z birikmasi va gapga teng hollarda qo’llaniladi. Abdulla Oripov she’rlarida uchraydigan iboralarni ham tuzilishiga ko’ra quyidagicha tahlil qilamiz:

Shoir she’rlarida so’z birikmasi shaklida qo’llanilgan frazeologizmlar:

Mangu *yorug’ peshonang* sening,

Mangu *yorug’ maskanim* manim,

O’zbekiston, *Vatanim* manim.

(“O’zbekiston” qasidasi)

Kuni bitganida ul banda yana,

Bir parcha momiqqa o’ralib ketdi.

(“Hasad” she’ridan)

Hazratim, aslida Sizga ham qiyin,

Somelar ko’pincha qilishar o’yin.

Avval ortingizda namoz o’qishar,

Qatiqqa suv qo’shib sotishar keyin

(“Imom” she’ri)

Darvesh umr bo’yi *chekib g’am, zahmat*,

Dunyoda haqiqat axtardi faqat.

Bir kun o'rab dedi, uni olomon,
Haqiqat o'zing-ku, o'zing haqiqat
("Haqiqat" she'ri)

Aytish joizki, tarkibida ayrim so'zshakl bilan ifodalanfgan ega bo'lagi bo'lsa, shunday frazeologizm qurilishiga ko'ra gapga teng bo'ladi. Quyidagi iAbdulla Oripov she'rlarida gap shaklida qo'llangan iboralarga she'riy misralardan misollar keltiramiz:

Mavjiga nogahon kimdir *tosh otgay*,
Zarbi yuragimning tubiga botgay..
Gar sen daryo bo'lsang, irmog'ingdurman,
Lat yesang og'riqli barmog'ingdirman
("Shoir qalbi" she'ri)

Onam *erta ketdi dunyodan* nolon,
Yoshidan o'tganman men allaqachon.
Qartaygan o'g'lingni oxirat kuni,
Tanib olurmisan, bilmam, onajon.
("Diydor" she'ri)

.O'n gulingdan bir guling ochilmagan derdilar,
Yo'llaringda soqchilar sochilmagan derdilar.
("Vatan uchun yashaylik" she'ridan)

Sen-ku bu *dunyodan to'ygan* ekansan,
Boshqalarni nega qiynaysan, nodon?
("Nodon" she'ridan)

Birodar *tushmadim men ham osmondan*,
Sen ham kelmagansan biror tomondan.
Bir yurtning farzandi ikkalamiz ham,
Zuvalamiz bitta, mehr bir jondan
("Zuvala" she'ri)

Bir bola chinqirib yig'lardi chunon,
Uni yupatolmay ko'pchilik giryon.
U qaysar hech kimga *quloq solmadi*,
Boshini silashdi-tinchidi shu on

("Mehr" she'ri)

Odam quchdi bir kun shayton-jononni,
Bu hol quvontirdi har ikkovlonni.
Shayton der: Odamni *yo'ldan urdim*-ku,
Odam der: Ko'rmovdim faqat shaytonni.

Hasadgo'y kimsalar- Iblisga hamkor,
Momiqqa *cho'zdilar faqat qo'llarin*,
Egasin kafanga ayladilar zor,
Do'zaxga burmoqchi bo'ldi yo'llarin

("Hasad" she'ridan)

Qalami o'tkir shoirimiz Abdulla Oripov o'z she'rlarida frazeologizmlardan unumli foydalangan va mavzuga oid iboralarni mohirlik bilan tanlay olgan. Bu esa she'rlarning o'quvchi ruhiyatiga ta'sir kuchini oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Rahmatullayev Sh.O'zbek tilining frazeologik lug'ati.-Toshkent:Qomuslar bosh tahririyati,1992.-B.23- 311.
- 2.Oripov A.Talosh pallasi.-Toshkent:Ma'naviyat,2007-B. 3-9.
- 3.Oripov A.Ishonch ko'priklari.-Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1989-B. 7.
4. Oripov A.Ko'ztumor.-Toshkent:Ma'naviyat,2005-B. 3-36.
5. Oripov A.Birinchi muhabbatim.-Toshkent:O'zbekiston,2006-B. 5-12.

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, Zargaron mfy 36.

Ma'lumot uchun tel: 91-3117611, 91-2402877

E-mail: nodirbejrahmonov@gmail.com

ABDULLA ORIPOV IJODIGA BIR NAZAR

Mamiraliyev Quvonch Qurvonboy o'g'li

O'qituvchi

Alisher Navoiy nomidagi

O'zbek tili va adabiyoti universiteti

mamiraliyev@navoiy-uni.uz

mamiraliyevquvonchbek@gmail.com

Abstarkt

Ushbu maqolada Abdulla Oripovning she'rlarida Vatan obrazi talqinlari, ijtimoiy-siyosiy muhitning she'riyatga bo'lgan ta'siri tahlil etilgan. Shu bilan birga, Abdulla Oripov she'riyatida Vatan obrazi qanday yoritilgani haqida ham fikr yuritilgan. Bundan tashqari, shoir ijodini o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar ham berilgan. Oliy ta'lim va maktab ta'limida o'qitish uchun qator metodlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ichki "men", oliy ta'lim, dars, ijtimoiy-siyosiy she'riyat, Vatan obrazi, lirik qahramon, milliy kolorit, tarixiy yondashuv, ijtimoiy she'riyat, ta'lim, metod, interfaol metod.

Abstarct

In this article, Abdulla Oripov's poems analyze the image of the motherland and the impact of the socio-political environment on poetry. At the same time, in the poetry of Abdulla Oripov, the image of the motherland is reflected. There are also methodological recommendations for teaching the poet's work. A number of teaching methods in higher education and school education have been analyzed.

Key words: internal "I", high education, lesson, socio-political poetry, image of motherland, lyric hero, national colorit, historical approach, social poetry, education, method, interactive method.

Abstarkt

В этой статье стихи Абдулла Арипов анализируют образ Родины и влияние социально-политической среды на поэзию. В то же время в поэзии Абдулла Арипов отражается образ Родины. Существуют также методические рекомендации по обучению творчеству поэта. Был проанализирован ряд методов преподавания в высшем и школьном образовании.

Ключевые слова: внутреннее «я», высшее образование, курс, общественно-политическая поэзия, образ Родины, лирический герой, национальный колорит, исторический подход, социальная поэзия, образование, метод, интерактивный метод.

Qara-ya, o'tibdi qirq yil muttasil,

Yashabman yulduzlar ostida karaxt.

Oh, shoir umriga havas qilmagil,

U quyun ichida ungan bir daraxt.

(Abdulla Oripov)

Abdulla Oripov O'zbek adabiyotida o'z o'rnini chuqur egallagan ijodkorlardan biri. Mustaqillik davrida shoir Erk, Vatan, Ozodlikni tarannum etuvchi ko'plab she'rlar yozdi. Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz, uning yana bir xislati haqida to'xtalib o'tmog'imiz joizdir. Bu xislat shoir she'rlaridagibadiiyatdir. "Lirik poeziyani faqat muzika bilan solishtirish mumkin," — degan edi V.G. Belinskiy. Yana u so'z ma'nosi yo'qolib, his va musiqiy sadoga aylanishi haqida ham ajoyib fikr aytgan. Poeziyani "his va musiqiy sadoga" aylantiruvchi omil, bu- she'rning badiiyatidir.

Badiiyat – bu, go‘zallikdir, tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan she‘riy tafakkur go‘zalligidir. “Go‘zallikning o‘zi muhim g‘oya. Bu go‘zallikni bo‘lib-bo‘lib tahlil etish daryodagi erkin baliqni tutib, pichoqda kesib, a‘zolarini tekshirib, yana suvga qo‘yib yuborish bilan teng. Baliq faqat suvda yayragandagina odamning havasini keltiradi. To‘g‘ri, suvdagi baliqni tamosho qilishdan ko‘ra uni yeyishni afzal ko‘radigan odamlar ham oz emas. Bunday hissiz odamlar faqat san‘at go‘zalligini emas, hayot go‘zalligini ham ko‘rmaydilar. To‘g‘risi, kun kechiradilar”, — deb yozadi taniqli munaqqid Mahkam Mahmudov.

Uning falsafiy-didaktik she‘rlari quyoshday porladi. Shoir ijodida fidoyi insonlarni quvonch-u shodliklari, tashvish-u g‘amlarini kuylash birinchi o‘rinda turadi. Bunga yorqin misol qilib shoirning “Ayol” she‘rini olsak:

Yigitlar maktubin bitganda qondan,

Kelinlar firoqdan chekkanda yohu.

Uning ham panohi qaytmadi jangdan,

O‘n to‘qqiz yoshida beva qoldi u.

Bu she‘rni shoir amakilarining bevalariga bag‘ishlab yozgan. Shoir “men ularni iztiroblarini ko‘rib, kuzatib ulg‘ayganman”- deydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yosh kelinchaklarning endi baxtlarini topdim deganda, ularning boshiga qayg‘uli sinov tushadi, ular qahramon jangchini yillar davomida kutadi. Yosh kelinchaklarning murg‘ak qalblari o‘n to‘qqiz yoshida beva qolishi bu juda achinarli holat. Ularning yaralangan ko‘ngillari ustidan poymol bo‘lgan muhabbat, ular qanchalik istashmasin, yorlari ulardan yiroqda, ular uchun eng og‘ir bo‘lgan narsa bu sog‘inchlar ichida vafot etgan yorini sog‘inmoqlikdir. Chunki vafoli yorini qayta ko‘rmoqlikka umid ham o‘lgan bo‘ladi.

Ey nomard tabiat, bormu senda his,

Qaytadan baxt bersang bo‘lmasmu unga

Yolg'iz qolish qanchalar og'irligini shoir bizga his qildiradi, shoir shunchalar xohlaydiki, jangchining sodiq bevasi uchun yana qaytadan baxt so'raydi, buni so'zlar bilan ta'riflash naqadar mushkul va ming afsuslar bo'lsinki:

Sevgidan yetim-u umrdan yarim

Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.

Yosh qizlar o'z uylariga yuraklarining yarmi bo'lgan ota-onalarini tashlab kelishgandi va yorlari bilan bir butunlikka erishganda ular sevgisidan ham yetim qoladi. Bu go'dak bir qalb uchun juda ayanchli bo'lgan bir og'ir tuyg'u unga har kim ham bardosh bera olmaydi va u firoqni abadiy visol deb biladi. Yosh kelinchaklarning matonatlariga tahsinlar aytsak arziydi. Shoir ularga hatto haykal ham qo'yadi. "Abdulla qaysi bir temaga qo'l urmasin, nima haqda she'r yozmasin, uning ko'zi oldida Ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'lga qalam oladi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik", – deb yozadi Matyoqub Qo'shjonov. Adabiyotimizda Abdulla Oripovning "Mitti yulduz"i porlaguncha muhabbat mavzusi eski ohanglarda, siyqa obrazu tashbehlarda kuylanar edi. Birovlar yorning qoshu ko'zini maqtab ovora bo'lsalar, ba'zilar bevafo yorga ta'na toshlarini otib charchamas edilar. Abdulla Oripov she'riyatidagi oshiq obrazi esa armonli muhabbatga duchor bo'lib, bir umr "hayot barcha ne'matlarini ayamasa-da, muhabbat taqdiridan maqtan olmay" o'tishga mahkumdur.

Bugunga kelib xrestomatik she'rlarga aylangan, oltmishinchi yillarning birinchi yarmidan boshlab qoralana boshlangan "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "O'zbekistonda kuz" she'rlari va "O'zbekiston" qasidasidan boshlangan bu ruh yillar osha tobora tiniqlashib, o'tkirlashib, yangi joziba kasb etib, yaxlit katta bir turkumga aylandi.

Shoirning ushbu mavzudagi she'rlarini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin. Biri mustaqillikkacha yozilgan she'rlar, ikkinchisi istiqloq bergan ne'matdan kuch, bahra olib yozilgan she'rlar. Shoirning oltmishinchi,

yetmishinchi, saksoninchi yillarda yozilgan ushbu mavzudagi qay she'rini olmaylik, ularda O'zbekiston degan yurtga otashin bir muhabbat, uni ozod va ulug' mamlakat sifatida ko'rish orzusi ufurib turganligini ko'ramiz. Bu ruh qandaydir boshqa bir munosabat bilan yozilgandek bo'lib tuyuladigan "Minorai Kalon tepasidagi laylak", "Sovg'a", "Armaniston" kabi she'rlarga ham xosdir. "Sovg'a" she'rida bosqinchilar zulmi ostida Buxoroni "beklar, amirlar, bulbullar" ko'zda yosh bilan tashlab ketganligi, faqat laylak bu shaharni tashlab ketmaganligi haqida so'z boradi. Ajabkim, bu qushning "oyoqlari g'o'zaga o'xshar, qanotlari esa paxtadek oppoq". G'o'za, paxta deyilganda o'sha yillarda-O'zbekiston, o'zbek xalqi tushunilardi. Ya'ni zulm iskanjasi, totalitar tuzum zug'umlari qanchalik qattiq bo'lmasin, bu diyorda xalq mangu qolajagi, O'zbekiston yana o'z tug'i, o'z bayrog'iga ega bo'lgan mustaqil mamlakatga aylanishi orzusi poetiklashtiriladi.

Sobiq ittifoq davrida O'zbekistonning zabun, tushkun ahvoli, o'zgalar uning qonini so'rganligi "Sovg'a" she'rida ayniqsa kuchli ifodalab berilgan. O'sha mafkuraviy tazyiqlar davrida bunday fikrlarni yozishgina emas, o'ylashning o'zi ham jasoratdan boshqa yana qandaydir katta bir narsani talab qilganligi ayon bir holdir. O'zini jallodning kudasiga ro'para qilish bilan barobar "shakkoklik"ka undagan bu kun O'zbekistonni chinakam sevgan, unga jonini ham qurbon qilishga tayyor turgan shoirning qalb hayqirig'i, o'tli nidosi edi. Vatan tushunchasi Abdulla Oripov she'rlarida serma'no va rang-barang. Keng miqyosda qaraganda, shoir va uning lirik qahramoniga «shu buyuk sayyora – yagona Vatan» bo'lib ko'rinadi ("Genetika"). Biroq ona-Vatan deganda u faqat O'zbekistonni tushunadi. Bu mavzu shoir ijodining eng nurli va porloq sahifalarini tashkil etadi.

Tarixni yaratuvchi xalqdir. Lekin ba'zan uning bag'rida kechishi mumkin bo'lgan ayrim norasoliklar, noahilliklar ham borki, ular gohida shoir qalbida achchiq nido uyg'otadi. Mashrabni dordan, Qodiriyni tuhmatlardan asrab qololmaganlarga qarshi shoir o'ziga xos "ta'na" qiladi, faryod chekadi: [O'zbek adabiyoti tarxi III tom, 1978: 301]

Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?

Nechun tomoshaga bundayin o‘chsan?

Qarshingda hasratli o‘yga tolaman,

Qachon xalq bo‘lasan, ey, sen olomon?

Shoirning ushbu “Qachon xalq bo‘lasan, ey, sen olomon? ”, Cho‘lponning “Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir”, Muhammad Yusufning “Alpomishga alla aytgan momolarim, Ruhini shod etay desang — xalq bo‘l, elim, Moziyni yod etay desang, Xalq bo‘l elim” kabi misralarida ajib o‘xshashlikni ko‘ramiz. Hamma misralarda Xalqni birlikka chorlash turadi.

Abdulla Oripov lirikasida O‘zbekiston - xalq – tabiat obrazlari uyg‘unlikda ochiq bir kitobdek ko‘z o‘ngingda namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripov shoir ona yurtining yoniq she‘rlarini ehtiros bilan, mehr bilan o‘qitayotgandek tuyuladi. Darhaqiqat, Abdulla Oripov she‘rlarining asosiy mavzui – ona yurt, O‘zbekiston, Vatandir. Aslida Vatan, xalq, ona yurt, tabiat – bular bir zaminda yuzaga kelgan tushunchalar. Yolg‘iz Vatanni sevib xalqni, tabiatni sevmay bo‘lmaydi. Ona yurtga, so‘lim va dilbar go‘shalarga muhabbatdan ulkan va salobatli Vatan tushunchasi o‘sib chiqadi.

Ey aziz yurt, hurriyat-davron muborakdir senga,

O‘zbekiston – beg‘ubor osmon muborakdir senga.

Necha yuz yil sen kurashding mustaqillik oni deb,

Sen ani topding, ulug‘ imkon muborakdir senga...

“Abdulla Oripovning ijtimoiy she‘riyati bir vaqtning o‘zida ko‘ngil lirikasidek qabul qilinadi.” [Hamdamov, 2012: 67] Abdulla Oripov lirikasida ko‘pincha xalqimiz tarixiga murojaat etish, milliy xarakter asoslarini anglab etishga intilish, bolalik xotiralarini ko‘z o‘ngida jonlantirish, tiklash, ona yurt manzaralariga estetik munosabatda bo‘lish orqali Vatan obrazini bunyod etadi. “Xalq”, “Vatan”, “Turkiston bolalariga”, “O‘zbek qomusi”, “Fidoi” kabi she‘rlarida Vatan mavzusining yangi qirralarini falsafiy umumlashmalarda ochib

berdi. Yurtning koriga yaragan ezgu fazilatli insonlar obrazini yaratdi. Bu she'ning mazmun-mundarijasini Vatan va xalq sha'niga madhiya aytish, mavjud reallikni shunchaki ta'kidlash tashkil etmaydi. She'rlaridagi milliy ruh qalbingizga ko'chganini sezmay ham qolasiz. "Maydanak" she'ridagi mana bu misralar buning isbotidir:

Endi jiddiy turib bu yonga qara,

Falakda ko'rinar ikkita oq qand.

Biri "O'zbekiston" degan sayyora,

Birovining esa nomi – "Samarqand".

She'ning poetik xulosasida ham milliy ifoda, milliy ruh, milliy talqin mujassam. "Agar mag'iz bo'lsang, olam bir danak" tashbehi ana shu milliylikka yorqin bir dalildir. Vatan haqida gap borar ekan, Abdulla Orpov shoirning burchini faqat madhiyabozlikdan, yurtni faqat ulug'lushu ko'klarga ko'tarishdan iborat, deb tushunmaydi. To'g'ri, u Vatan dardlarini go'zalligini, iqbolini kuylaydi, biroq uning sermashaqqat tarixi va taqdirini haqqoniy gavgalantirish maqsadida ko'proq Vatan dardlarini kuylaydi, bir fidoyi farzand kabi uning dardlariga malham bo'lgisi keladi. Bu Vatan tarixda ko'pdan-ko'p buyuk farzandlarga, ulug' kashfiyotlarga, insonparvar g'oyalarga doya bo'lganini dunyoga ko'z-ko'z qiladi, hozir ham uning o'shal tarixga munosib bo'lishini istab, o'zini tug'yonlar bag'riga uradi.

Abdulla Oripovning Vatan timsolini yaratishga bag'ishlangan she'rlaridagi poetik obrazlar, ayniqsa, falsafiy, xalqchil va ohorli bo'lib, bu yo'nalishdagi she'rlar ichida "Men nechun sevaman O'zbekistonni" hamda "O'zbekiston" she'rlari alohida ajralib turadi.

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,

Derazamdan boqardi birov.

U sen eding, o, dehqon yurtim,

Turar eding yalangto‘sh yayov.

-Tashqarida izillar yomg‘ir,

Kir, bobojon, yayragil bir oz.

Deding:-Paxtam qoldi-ku, axir,

Yig‘ishtiray kelmasdan ayoq.

Ketding, umri mahzanim manim,

O‘zbekiston, Vatanim manim. [Oripov, 2001: 89]

Shoir, ayniqsa, “O‘zbekiston” qasidasida ayni Vatan, yurt, xalq dardini mohirona tasvirlab bergan. Bu she‘r 1968-yilda yozilgan. O‘sha kezlari “SSSR — bizning yagona Vatanimiz” degan soxta shior ko‘plab insonlar ongiga singdirilgan edi. Abdulla Oripov ana shunday bir sharoitda “O‘zbekiston —Vatanim manim” deb chiqdi. Shoir Vatanni obrazini tarixiy shaxslar orqali tasvirlash yo‘lidan bordi. Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Navoiy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk bobolarimizni madh etar ekan, shunday buyuk ajdodlari bor, “Amudaryodan sakrab o‘tgan Jaloliddinlari”, “Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher”lari bor yurtidan faxr hissini tuyadi va ona xalqim o‘zing baridan buyuksan deydi:

Bobolardan so‘zladim, ammo

Bir zot borkim, baridan suyuk:

Buyuklarga baxsh etgan daho,

Ona xalqim, o‘zingsan buyuk.

Bu buyuk shaxsiyatlarning yaratuvchisi “baridan buyuk”, “baridan suyuk” xalqdir. Shoir keyingi bandlarda mana shu buyuk va suyuk ona xalqining timsolini yaratadi. bunday buyuk farzandlarni jahonga yetkazib bergan, ularning

shon-sharafini asrlardan asrlarga olib o'tgan mana shu xalqdir. Shu tariqa Vatan va millat tushunchasi bir-biriga o'tib, bir-birini to'ldirib boraveradi. darhaqiqat, o'zbek degani bu o'zbekis tondir, O'zbekiston deganda esa o'zbek ko'z oldimizga keladi. bu she'r yana bir mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi bilan deyarli bir vaqtda yozildi va ikkala asar xalqimizning o'zligini anglashida sezilarli rol o'ynadi. Adabiyot darslari shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchilar butun dars davomida o'quv faoliyatining ichida bo'lsin, biror daqiqa bo'lsin ijodiy ishlash imkoniyatidan tashqarida qolmasin. Abdulla Oripov she'rlarini o'rgatishda ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, interfaol metodlar katta ahamiyatga ega. Adabiyot o'qitishda, ayniqsa, Abdulla Oripov ijodini o'qitishda didaktik metodlar ham yaxshi samar beradi. Adabiyot darslarining samarasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, uning o'quvchi shaxsining kamol topishidagi foydaliligi nazarda tutiladi. Bunda, tabiiyki, uning fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir o'tkazish imkoniyati asosiy o'rin tutadi. Abdulla Oripov kabi ijodkorlarning ijodini o'qitish va she'rlarining poetikasini tahlil va tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Орипов А. Танланган асарлар. Олти жилдлик, 4-жилд, – Т.: Адабиёт ва санъат, 2001.
- 2.Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. –Т.: Фан, 2007.
- 3.Ҳамдамов У. Янги ўзбек шеърляти. —Т.:Адиб, 2012.
- 4.Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. III том. – Тошкент: Фан, 1978 йил, Б. 446.

Mundarija

Naim KARIMOV. Nurli ohanglar bilan yo‘g‘rilgan she‘riyat

Nurboy JABBOROV. Abdulla Oripov ijod konsepsiyasining yetakchi tamoyillari

Fatma AÇIK. Abdulla Aripov'un Şiirlerinde Özbekistan

КРУГОВЫХ Игорь Эрикович. Абдулла Арипов и современность

Abdildajan AKMATALIYEV. Qirg‘iz-o‘zbek adabiy aloqalari

Bahodir KARIMOV. Abdulla Oripov she‘rlarining ayrim qirralari haqida

Yashar QOSIM. Abdulla Oripov va avloddoshlari ijodida adabiyot ideali

Ertuğrul YAMAN. Duygu, hayal ve heyecan dolu bir şair: Abdulla Aripov

Abdurahim ERKAYEV. Abdulla Oripov – lirik poema asoschisi

Qozoqboy YO‘LDOSHEV. Milliy ruh posboni

Shahlo NORALIYEVA Abdulla Oripov ijodining Qozog‘istonda o‘rganilishi

Dilmurod QURONOV. Abdulla Oripov badiiy tarjima haqida

Olimjon ABDULLAYEV. Abdulla Oripovning istiqlol davri she‘riyatida yaqin o‘tmishga munosabat

Suvon MELI. Abdulla Oripov she‘riyatida navoiyona ohanglar

SHO‘BA YIG‘ILISHLARI

1-SHO‘BA. ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATINING BADIY-ESTETIK TAFAKKUR TAKOMILIDAGI O‘RNI

Davlat madhiyasi: matn tarixi – Nafas SHODMONOV, QarDU professori, f.f.d.

Modern o‘zbek edebiyatida Abdullah Aripov – Emek ÜŞENMEZ, İstanbul

Universitesi Rektörlüğü Dil Merkezi Başkanlığı.

Lirikada ijtimoiy dardning personifikatsiyalashuvi –Ulug‘bek Hamdam, O‘zR FA

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr adabiyoti va hozirgi adabiy

jarayon bo‘limi mudiri, f.f.d.

Abdulla Oripov va rus she‘riyati – Toir TOIROV, Moskva davlat universiteti

Sharq va Afrika mamlakatlari instituti professori, f.f.d.

Abdulla Aripov‘un Şiirlerinde Tezat Sanatı – Veli Savaş YELOK, Ankara Hacı

Bayram Veli Üniversitesi, Prof.Dr.

Abdulla Oripov she‘riyatida komil inson va mukammal jamiyat orzusining badiiy ifodasi – Sultonmurod OLIM, “Tafakkur” jurnali bosh muharriri o‘rinbosari, f.f.n.

Abdulla Oripov she‘riyatida muhabbat mavzusining badiiy talqini – Shahid

TASLIM, Nyu-Dehli, Xalqaro tadqiqotlar akademiyasi Jamia Millia Islomiya

Markaziy universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedراسi dotsenti.

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida Amir Temur obrazi talqini –

Dilrabo QUVVATOVA, BuxDU professori, f.f.d.

Donishmand shoir – Abdulla ULUG‘OV, ToshDO‘TAU professori, f.f.n.

Metaforiklik va Abdulla Oripov she‘riyati – Obidjon KARIMOV, NamDU dots.f.f.n.

Abdulla Oripov she‘riyatida Navoiy obrazining badiiy talqini – Gulbahor

Ashurova, ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.n.

Abdulla Oripovning “Nay” she‘ri haqida ayrim mulohazalar – Munavvara

OYMATOVA, Xo‘jand davlat universiteti dotsenti, f.f.n.

Abdulla Oripovning “Haj daftari” tirkumida ma’rifat va e’tiqod talqini –
Abdumurod TILAVOV, ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.n.

Abdulla Oripov she’riyatida milliy ruhning xalqona ifodasi – Laylo O‘SAROVA,
SamDCHTI dotsenti, f.f.f.d. (PhD).

Abdulla Oripov she'riyatida Muhammad payg'ambar siymosi –Zilola AMONOVA,
BuxDU dotsenti, f.f.n., Aziza RAHIMOVA, tadqiqotchi.

Abdulla Oripov she’rlarida Navoiy siymosiga ehtirom – Dilnoza JUMAYEVA,
O‘zDSMI dotsenti, ff.f.d. (PhD).

Abdulla Oripov ijodida ona yurt madhi - Sharifboy BOBOJONOV, QarDU
dotsenti,

Shohsanam BOBOJONOVA, tadqiqotchi.

Abdulla Oripov ijodida ayol obrazi konsepsiyasi – Gulrux XUDOYOROVA,
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi.

Abdulla Oripov she’riyatida lirik kayfiyat va tabiat tasviri uyg‘unligi – Azamat
ZARIPOV, Navoiy davlat konchilik instituti tadqiqotchisi.

Shoir – qalb tarjimoni – Saodat ESHPO‘LATOVA, ToshDO‘TAU litseyi
o‘qituvchisi.

Adabiy muloqotning she’rlardagi ishoratlari - Suhrob ZIYO, ToshDO‘TAU
magistranti.

Inson ruhiyatining kuychisi – Muqaddas ABDUJABBOROVA, Abdulla Oripov
ijod
maktabi o‘qituvchisi.

Ruhiyat suvrati – Malika DAVRONOVA, Abdulla Oripov ijod maktabi o‘qituvchisi.

Abdulla Oripov ijodida milliylik – Quvonch MAMIRALIYEV, ToshDO‘TAU o‘qituvchisi.

2-SHO‘BA. ABDULLA ORIPOV IJODIDA FALSAFIY MAZMUN VA BADIY SHAKL UYG‘UNLIGI

Moderatorlar: f.f.d., prof., Uzoq Jo‘raqulov, G‘ulom Bobojonov.

ZOOM (ID: 373 418 9479. Kod: XF37GS)

Abdulla Oripov ijodida adabiy tanqid va badiiy-estetik tafakkur yaxlitligi –

Boynazar YO‘LDOSHEV, QarDU professori, f.f.d.

Intellekt va orifona falsafa – Ilhom G‘ANIYEV, BuxDU professori, f.f.d.

Abdulla Oripovning o‘zbek dostonchiligi poetik takomilidagi o‘rni – Umrzoq

O‘LJABOYEV, GulDU dotsenti, f.f.n.

Abdulla Oripov she‘riyatida idilliyaviy talqin qirralari – Uzoq JO‘RAQULOV,

ToshDO‘TAU professori, f.f.d.

Abdulla Oripov lirikasida hayot va o‘limga munosabat - Nodira AFOQOVA,

“Tafakkur” jurnali muharriri, f.f.d., dotsent.

Abdulla Oripov she‘rlari turk tilida: tarjimonning so‘z tanlash mahorati – Zilola

Xudoyberganova, Turkiya Bartin universiteti professori, f.f.d.

Abdulla Oripovning adabiy saboqlari – Shavkat Hasanov, SamDU professori, f.f.d.

Abdulla Oripov ijodi Ibrohim G‘afurov talqinida – Mavlonberdi SUYUNOV,

Xo‘jand davlat universiteti dotsenti, f.f.n.

Abdulla Oripov ijodida inson va demokratiya falsafasi – To‘ra Norboyev, f.f.d.,
dos.

Abdulla Oripov adabiy suhbatlari – Shoira AHMEDOVA, BuxDU professori,
f.f.d.

Таджикские переводы Абдуллы Арипова – Шарифжан ТАДЖИБАЕВ,
Худжандский государственный университет, к.ф.н, доцент.

Значение народных поучений в творчестве Абдуллы Арипова - Акрам
ХАМДАМОВ, КарГУ, доцент.

Loyiq Sherali va Abdulla Oripov – Ehson RAJABOV, Xo‘jand davlat universiteti
dotsenti, f.f.n.

Abdulla Oripovning falsafiy she’rlari badiiyati - Obidaxon FAYZULLAYEVA,
GulDU dotsenti, f.f.n.

Abdulla Oripov badiiy tafakkurida olamning yaratilishi va uning tuzilishi
masalasi - Muxayyo RAYXONOVA, QarDU dotsent.

Folklor – Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlari manbai – Oybarchin
ABDULHAKIMOVA, ToshDO‘TAU tayanch doktoranti.

Abdulla Oripov she’riyati Begali Qosimov talqinida – Umida YO‘LDOSHEVA,
GulDU magistranti.

Философские аспекты в лирике А.Арипова - Лола СУЛАЙМАНОВА,
творческая школа имени А. Арипова г. Карши, учительница.

Абдулла Арипов – оқырманның отансүйгіштік сезімін оятатын ұлы ақын-
Бауржан САЙФУЛЛАЕВ, магистрант Низами атындағы ТМПУ.

Abdulla Oripov ijodida frazeologizmlar - Shahlo MASUTOVA, BuxDU
magistranti.